



2022-yil. 4-son.

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Elektron jurnal

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Я ПРЕПОДАВАНИЕ
ЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

Электронный журнал

LANGUAGE AND LITERATURE
TEACHING | SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PUBLIC EDUCATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Electronic journal

ISSN 2010-5584



«Til va adabiyot ta'limi» «Преподавание языка и литературы» «Language and literature teaching»

ilmiy-metodik jurnal / научно-методический журнал

Bosh muharrir

Bahodir JOVLIYEV

Tahrir hay'ati:

Baxtiyor Saidov
Dilshod Kenjayev
Nizomiddin Mahmudov
Nargiza Rahmonqulova
Yorqinjon Odilov
Nasirullo Mirkurbanov
Jabbor Eshonqulov
Valijon Qodirov
Baxtiyor Daniyarov
Abdurahim Nosiroy
Tolib Enazarov
To'liqin Saydaliyev
Ravshan Jomonov
Zulxumor Mirzayeva
Qozoqboy Yo'ldoshev
Tajixon Sabitova
Nilufar Namozova
Qayum Baymirov
Lutfullo Jo'rayev (bosh muharrir
o'rinbosari)
Alijon Safarov (elektron nashr uchun)
Sayyora Halimova (elektron nashr uchun)

Muharrirlar:

Nilufar Namozova
Nigora Uralova
Emma Torosyan
Nargis Bobodjanova

Sahifalovchilar:

Akmal FARMONOV
Gulnoza VALIYEVA

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri
Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.
Telefon: (98) 121-74-16,
(71) 233-03-10, (71) 233-03-45, (71) 233-03-67.
e-mail: til_adabiyot@mail.uz
vab-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

M U N D A R I J A

DOLZARB MAVZU

Otabek Abdunazarov. Ona tili darslarida o'qib tushunish, eshitib tushunish
ko'nikmalarini rivojlantirish2

I.Azimova, SH. Tursun, A.Solijonov. O'zbek tilini o'qib tushunish malakasini baholashning
nazariy asoslari5

TADQIQOT

Otabek Shukurov. Hozirgi o'zbek adabiy tili leksikasining genetik manbalari xususida8

E'tibor Yaxshieva. Tilshunoslikda terminologiyaning shakllanishi va o'rganilishi13

Sardorbek Umarov. Komil insonni tarbiyalashda futuvvat g'oyalarning o'rni15

Muxsinali Xonsaidov, Azimjon Majidov. Pedagogik mahorat mazmun-mohiyati va
takomillashtirish usullari18

Malika Suyunova. Ijodkor va jonli xalq tili21

Xursandbek To'liboev. Romaniy tafakkur tadrijida mifopoetik talqin o'ziga xosligi23

Iroda Asatjonova. Oydin Hojiyeva to'rtliklarida g'oya va ideallar tahlili24

TAHLIL

Farhod Nizomov. "Ikki eshik orasi" romanini qiyosiy aspektida o'rganish26

Feruza Karimova. Psixologiyaviy tadqiqotlar izidan31

Shaxnoza Azimjonova. Ijodkor portretini tarixiy jarayon zaminida o'rganish mahorati33

Sitora Suxanberdiyeva. Allomalar ilmiy-ma'naviy merosining ijtimoiy-gumanitar
fanlar rivojida o'rni34

Hamid Yodgorov. She'riy matnda disfemizmlarning o'rni35

Darmon O'rayeva. O'zbek folklori va adabiyotida mehmon va mehmondo'stlikning
badiiy talqini37

Nargiza Xusenova. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga badiiy adabiyot
mashg'ulotlarini integrativ usullar orqali tashkil etish40

Ro'zigul Qodirova. No'mon Rahimjonovning o'zbek zamonaviy dostonchiligi
(poemachiligi) nazariyasi tahlili42

ИЗУЧАЕМ ИНОСТРАННЫЕ ЯЗЫКИ

Замира Таштемирова, Мехрисо Кушматова. Несколько слов об особенностях
английских идиом45

ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ

Зухриддин Нуридинов. Трагичность бредовых идей Коврина в повести А.П.Чехова
«Черный монах»47

Жавохир Содиков. Функция детали в рассказах А.П.Чехова49

*O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya
komissiyasining Filologiya bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini
chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.*



Otabek ABDUNAZAROV,
 O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti o'qituvchisi

ONA TILI DARSLARIDA O'QIB TUSHUNISH, ESHITIB TUSHUNISH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH

Maktabda umumta'lim fanlar doirasiga kiruvchi ona tili alohida o'ringa ega. Bu xususida I.Azimova shunday deydi: *"Boshqa fanlarning o'zlashtirilishi o'quvchining o'z ona tilida yozma matnni, og'zaki matnni tushunish, o'z fikrini yozma va og'zaki shaklda izchil bayon eta olish ko'nikmasi bilan bevosita bog'liq. Aytish mumkinki, ona tili ta'limi har qanday bosqichdagi ta'limning negizini tashkil etadi. Tilning eng birinchi vazifasi ma'lumotni kodlash va dekodlashdir, ya'ni so'zlovchi o'z fikrini to'g'ri ifodalashi kerak va qabul qilingan nutqda berilgan ma'lumotni to'g'ri tushunishi kerak. O'rta maktabda ona tili ta'limi tilning aynan shu – birlamchi funksiyasini qo'llash malakasini shakllantirishga qaratilishi kerak"* [1].

Ha, albatta, o'quvchi barcha fanlarni yaxshi o'rganish uchun, avvalo, yozma, og'zaki matnlarni to'g'ri idrok qila olishi, masala mohiyatini og'zaki va yozma tushuntirib bera olishi lozim bo'ladi. Bunday ko'nikmalarni rivojlantirish uchun o'quvchida to'rt lisoniy malakani:

eshitib tushunish,

fikrini og'zaki bayon qilish,

o'qib tushunish,

fikrini yozma bayon qilishni rivojlantirib borish lozim bo'ladi.

Hozirgi kunda o'quvchining o'qib tushunish malakasini rivojlantirish

5-sinf ona tili darsligidan boshlab yo'lga qo'yilmagan, adabiyot darsligi bu vazifani bajaryapti, lekin u badiiy obrazlar bilan ish ko'rar ekan, unda matnda qo'llangan vositalarni to'g'ri dekodlash masalasiga alohida e'tibor qaratilmagan. Ona tili fani doirasida esa grammatik qonun-qoidalar matndan uzib olingan alohida gaplar misolida tushuntiriladi, matnni til birligi sifatida o'rganish, tahlil qilishga ko'p e'tibor qaratilmayapti.

Matnni o'qib tushunish haqida quyidagicha ta'rif beradi: *"Matnni o'qib tushunish murakkab psixolingvistik jarayon bo'lib, grafemalarni tanish, so'zni o'qish, so'zning lug'aviy ma'nosini, kontekstual ma'nosini anglash, sintaktik strukturani to'g'ri hal etish (ya'ni so'zlarning o'zaro munosabati, qaysi so'z gapdagi asosiy tushunchani, qaysilari unga tobe tushunchalarni ifodalayotganini anglash), shuningdek, matn mazmuniy bloklarining o'zaro bog'lanishini tushunish kabi darajalardan iborat bo'ladi"* [1].

Hozirgi vaqtda o'quvchilarning o'qib tushunish malakarini aniqlashga qaratilgan tajriba-sinov tariqasida olib borilgan ishlar natijasida ushbu ilmiy qarashning

amaldagi ifodasini ko'rsatadi. O'quvchilar grammatik bilimni yaxshi o'zlashtirganliklari bilan o'qib tushunish malakasini talaba darajasida egallamayotganliklariga guvoh bo'lamiz. Ushbu muamoning yechimi sifatida K.Mavlonova quyidagicha takliflarni ilgari suradi:

"1. O'quvchilarning yosh xususiyatlari, bilim darajalarini inobatga olgan holda matn tanlash (O'zbekistondagi gazeta, jurnal va boshqa manbalardan matnlar tanlanadi. Tarjima qilingan matnlar tanlanmaydi. Matndagi so'zlar sonini o'quv yili davomida bir xil hajmda belgilab olish lozim).

2. Matnning xususiyatidan kelib chiqqan holda topshiriq shaklini aniqlash.

3. Topshiriqlarni ishlab chiqish.

4. Mustahkamlash darslarining 20 daqiqasini o'qib tushunish mashqiga ajratish.

5. Matnni o'qib tushunishga qaratilgan sinovni o'tkazish.

6. Javoblarni taxminan belgilamaslik hamda bir-biridan ko'chirmaslikka e'tibor qaratish (bunday yondashuv vaziyatni real baholashda juda muhim).

7. Natijalarni tahlil qilish hamda umumiy xulosalar chiqarish.

8. O'tkazilgan sinovlar monitoringini olib borish.

Bir o'quv yili davomida 6–8 ta matn bilan ishlagan o'quvchi har qanday uslubdagi ma'lumotni ongli idrok eta olish malakasiga ega bo'lib boradi". [2b 149-150]

Demak, o'quvchi matanda ifodlangan so'zlarning lug'aviy ma'nosi va kontestdagi ma'nosini solishtirish, mantiqiy fikrashiga katta e'tibor qaratish, ma'lumotlarning ichidan muhimini ajaratib olish, matn haqida xulosa bera olish ko'nikmasiga ega bo'lishi kerak. Bu orqali o'quvchilarni nafaqat ona tili fanini, balki har qanday fan, matnlarni to'g'ri o'qib tushunishi va ulardan olgan ma'lumotlarini og'zaki va yozma bayon qilishi uchun o'qib tushunish malakasini rivojlantirishimiz darkor. Quyida topshiriqlarning ayrim turlari bilan tanishamiz:

TOPSHIRIQLAR

1-topshiriq.

Voqea...

Onamning faqat bir ko'zi bor edi. Narigi ko'zining o'rni chuqur bo'lib yotar, uni ko'rganimda jirkanib ketardim. Men aynan onamning bir ko'zi yo'qligi sababli tengdoshlarim oldida **xijolat** chekar, ochig'i, undan or qilardim. Otam yoshligimda **avtohalokat** tufayli o'lib ketgandi. Oilamizni boqish onamning zimmasida edi. U bir maktab oshxonasida ishlardi. Maktabda bosh-


lang'ich sinfda o'qib yurgan kezlarim onam mendan xabar olish uchun sinfimizga kirganida, uyatdan xuddi yerga kirib ketgudek bo'lardim. Shu-shu sinfdoshlarim meni "birko'z xotinning o'g'li" deb ustimdan kuladigan bo'lishdi. O'sha paytda ochig'i, shu nogiron ayoldan tug'ilganim uchun o'z taqdirimga la'natlar o'qidim. Bir kuni onamning yuziga tik boqib unga shu gaplarni aytdim: "Qachongacha siz tufayli o'rtoqlarimga kulgi bo'lib yuraman? Sizdek onam borligidan or qilaman! Sizning borligingiz men uchun haqorat!"

Onam indamadi. Yolg'iz ko'zi bilan menga termilib qoldi, keyin o'girilib nari ketdi. Men o'sha paytda aytdigan gaplarimni mulohaza qiladigan holatda emasdim. G'azabdan o'zimni qo'ygani joy topolmasdim. Uning ko'ngli, his-tuyg'ulari meni umuman qiziqtirmasdi. Men u bilan bir uyda turishni istamasdim, zotan bu uy ham aslida ijaraxona edi.

Maktabni bitirganimdan so'ng, til o'rganib, Singapurga o'qishga ketdim. Bir muddatdan so'ng o'sha yerdan uylandim. Tanish-bilishlarimdan qarz olib, o'zimga uy sotib oldim. Keyin bolalarimiz dunyoga keldi. Men hayotimdan mamnun edim. Onam yodimdan ham ko'tarilgan edi. Bir kun onam Singapurga mening uyimni so'roqlab keldi. U necha yildirki, meni ko'rma-gandi. Eshik oldida o'ynab o'tirgan bolalarim avvaliga bir ko'zli kampirni ko'rib, qo'rquvga tushdilar, keyin kula boshlashdi. Men ularga "bu ayol buvingiz" deyolmadim.

U ostonamdan hatlashi bilan "nega kelib bolalarimni qo'rqitasiz?" deb o'shqirdim. Onam gunohkorona bosh egib "men boshqa uyga kelib qolibman, uzr" dediyu, chiqib ketdi. Oradan yana yillar o'tdi. Bir kun sobiq sinfdoshlarimdan maktub oldim. Xotinimga "hizmat safariga ketyapman" dedim-u, o'sha yoqqa uchdim. Uchrashuvdan chiqarkanman, nogoh eski ijara uyimiz esimga tushdiyu bolaligim o'tgan mahallaga yo'l oldim. Ijara uyimiz eshigini uy bekasi ochdi. U menga onamning vafot etganini aytdi. Avval xiyol yengil tortgandek bo'ldim. Keyin esa yuragimni tushuniksiz bir mahzunlik chulg'adi. Uy bekasi uyidan bir konvert chiqarib berdi. Onam menga berib qo'yishlarini tayinlagan ekan.

Darhol xatni o'qishga tutindim: "Jigarbandim, ko'zimning oqu qorasi! Omonmisan? Ertayu kech seni o'ylayman, seni duo qilaman, bolam. Singapurga borib, bolalarimga qo'rqiqtanim uchun men ahmoq onangni kechir. Sinfdoshlaring bilan uchrashuvga kelishingni eshitib, juda quvondim. Lekin qarilik qursin, sen kelar paytda xastalikka chalilib, o'rnimdan ham turolmay qoldim. Bolajonim, bir umr men, bir ko'z onangni deb xijolatda yashaganing uchun oldingda aybdorman. Lekin, bir sirni aytсам, balki bu majruh onangning gunohidan o'tarsan? Sen kichkinaligingda otang bilan birga avtohalokatga uchraganding. Otang vafot etdi. Sen esa, bir ko'zingni yo'qotganding. Men bitta-yu bitta bolamning birko'z bo'lib o'sishini istamadim. Otangdan qolgan uyni sotib, ijara uyga ko'chib o'tdim. Uyning pulini jarrohlik amaliyoti harajatlari uchun to'ladim. Jarrohlar bir



ko'zimni o'yib, sening qorachilaring o'rniga joylashdi. **Xayriyatki**, ko'zlarimiz bir xil ekan. Hech kim sening bir ko'zing boshqa bir vujudan ko'chirilganini sezmasdi. Men shu paytgacha qadar "bolam, sen mening ko'zim bilan dunyoni ko'rib yuribsan" deya olmadim. Deyolmasdim ham. Sening muvaffaqiyatlaringni eshitib, shu qadar g'ururga to'lardimki, bu olamdan men uchun boshqa baxt ham, quvonch ham yo'q edi. Dunyoda bir haqiqat bor: sen mening o'g'limsan! Menga shu yetadi. Seni jonidan yaxshi ko'rguvchi ONANG!

Berilgan matn yuzasidan savollar:

1. Quyidagi mavzulardan qaysi birini matnga sarlavha sifatida tanlaysiz va nima uchun aynan shuni tanladingiz? Yozma javob bering.

- A) Bir ko'zli ona
- B) Badbaxt o'g'il
- V) Kech aytilgan sir
- G) Sen mening o'g'limsan!
- D) Myehribon ona

2. "Men o'sha paytda aytdigan gaplarimni mulohaza qiladigan holatda emasdim" deganda qaysi paytni va gaplarni nazarda tutyapti, sizningcha, keyingi paytda o'g'ilda o'zgarish bo'ldimi?

3. "Bir kuni onamning yuziga tik boqib unga shu gaplarni aytdim: "Qachongacha siz tufayli o'rtoqlarimga kulgi bo'lib yuraman? Sizdek onam borligidan or qilaman! Sizning borligingiz men uchun haqorat!". Onam

“indamadi” nima uchun shuncha haqoratlasa ham onasi indamadi? Siz shu gaplarga guvoh bo'lib turganingizda (sirini bilmaysiz deb tasavvur qilamiz) qanday yo'l tutgan bo'lardingiz?

4. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga e'tibor bering. Ulardan nechitasi xato yozilgan?

5. Singapurga o'g'lining uyiga borganda “*men boshqa uyga kelib qolibman, uzr*” deb chiqish ketish sababini nima deb o'ylasiz?

6. “*Bir kun sobiq sinfdoshlarimdan maktub oldim. Xotinimga “xizmat safariga ketyapman” dedim-u o'sha-yoqqa uchdim*” ushbu parchadan o'g'ilning qanday xislatlari namoyon bo'lmoqda?

7. Nima uchun “*bir sirni aytsam, balki bu majruh onangning gunohidan o'tarsan?*” deya bor haqiqatni maktub orqali va umrining oxiri yaqinlashganda aytmoqda? Haqiqatni o'g'lining yuziga aytmaganligini izohlang.

8. Quyida berilgan hukmlarga munosabat bildiring.

9. Sizga eng ta'sir qilgan jumlaning ayting va nima uchunligini tushuntiring.

Jumla matndagi ma'lumotga mos kelsa – to'g'ri.

Jumla matndagi ma'lumotga qarama-qarshi kelsa – noto'g'ri.

Onasining bir ko'zi yo'qligi sababli tengdoshlarim oldida xijolat chekar, ochig'i undan or qilardi.

Onasi bola o'qiydigan maktabda ishlar edi.

Onasi Singapurga o'g'lini ko'rganida o'g'li onasini bolalari bilan tanishtirdi.

O'g'li onasini ko'rish maqsadida yurtiga uchib keldi.

2-topshiriq.

Alisher sinfdoshi Rustamga telefon qilib algebra fanidan mustaqil bajarish uchun bergan misolni doskadan yozib olishga ulgurmaganini, iloji bo'lsa aytib yuborishini iltimos qiladi. Rustam esa ustozidan quyidagi misolni yozib olgan edi:

$$\frac{2a^4 + 3a^3 + 2a + 3}{(a^2 - a + 1)(2a + 3)} = ? \text{ Kasrni qisqartiring.}$$

Aziz o'quvchilar, ushbu misolni Rustam to'g'ri o'qishiga, Alisher esa to'g'ri yozib olishga yordam beringlar (Rustamning telefon orqali aytishdan boshqa imkoniy yo'l).

Javob: suratida ikki ko'paytirilgan “a” ning to'rtinchi darajasi qo'shilgan uch ko'paytirilgan “a” ning kubi

qo'shilgan uch. Maxrajida esa qavs ichida “a” ning kvadrati ayirilgan “a” qo'shilgan bir, unga ko'paytirilgan qavs ichida ikki ko'paytirilgan “a” qo'shilgan uch. Ushbu kasrni qisqartiramiz?

Bu kabi topshiriqlar oddiy tuyulishi mumkin, lekin aksariyat o'quvchilar bunday vaziyatlarda to'g'ri tushungan, ko'z bilan ko'rib turgan matn, masalalarini tinglovchiga to'g'ri tushuntirib bera olmaydi. Bularni hal qilish uchun ona tili darsliklariga shu ko'rinishdagi mashq va topshiriqlardan ham kiritish lozim bo'ladi.

3-topshiriq.

Doktor bemorga tashqi ko'rinishidan bir xil bo'lgan to'rt dona, har biridan ikkitadan bo'lgan ikki xil dori berildi. Dorini ikki martaga bo'lib ichish kerak. Ertalab har bir turdan va bittadan kechqurun. Agar tartibni buzsa yoki dorini ichmay qolsa, bemor vafot etishi mumkin.

Ehtiyotsizlik natijasida dorilar aralashib ketdi. Qanday qilib dorilarini vaqtida ichib tirik qolishi mumkin?

Albatta, hayot-mamot masalasi bo'lganligi uchun birinchi bo'lib shifokorga borib dorini ichish tartibini qaytadan so'rash kerak degan javob birinchi bo'lib xayolga keladi. Biroq, ushbu dorilar dunyoda so'nggi qolgan dori, yo bo'lmasa shifokor sirli ravishda g'oyib bo'lgan deb faraz qilaylik.

Javob: har bir dorini ikki qismga bo'lib olib, har bir yarimni ertalab va kechqurun ichib olish lozim bo'ladi.

Yuqoridagi topshiriqlar o'quvchilarni o'qib tushunish malakasini o'stirishga, matndagi kerakli ma'lumotlarni keraksizini ajratishga, e'tibordan chetda qolayotgan jihatlarga e'tibor qaratishga, matnda ifodlangan so'zlarning lug'aviy ma'nosi va kontestdagi ma'nosini solishtirishga, mantiqiy fikrlash ko'nikmasini ro'yojlantirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, kundalik ijtimoiy hayotda uchraydigan muammolarni hal etishda mantiqiy tafakkurni ishga solib fikr yuritish (bunday vaziyatlar 2 – 3-topshiriqlar misolida ko'rsatib o'tildi) ko'rsatib o'tilgan.

Xulosa qilib aytganda, o'quvchilarni nafaqat ona tili fanini, balki har qanday fan, matnlarni to'g'ri o'qib tushunishi va shulardan olgan ma'lumotlarini og'zaki va yozma bayon qilishi uchun o'qib tushunish malakasini rivojlantirishimiz darkor. Buning uchun ona tili darsliklarimizda ularning yoshi, qiziqishiga, psixologik holatiga, irodasiga tafakkur darajasiga mos, o'qib tushunishga taalluqli topshiriqlarni ko'paytirishimiz, aniq va tabiiy fanlar bilan aloqani kuchaytirish lozim bo'ladi. Chunki til ko'nikmasi inson hayotining barcha sohalari-da muhim ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azimova I. Ona tili ta'limida lisoniy malakani rivojlantirishning psixologik asosi. Global ta'lim va milliy metodika taraqqiyoti. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent, 2019.
2. K.Mavlonova. O'quvchilarda matnni o'qib tushunish malakasini shakllantirish. Global ta'lim va milliy metodika taraqqiyoti. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent, 2020.
3. Sh.A.Alimov, O.R.Xolmuhamedov, M.A.Mirzaahmedov. Algebra. 8-sinflar uchun darslik. –Toshkent: O'qituvchi, 2019.

O'ZBEK TILINI O'QIB TUSHUNISH MALAKASINI BAHOLASHNING NAZARIY ASOSLARI

Baholash jarayoni ma'lum maqsadni ko'zlab o'tkaziladi. Testdagi topshiriqlar soni, ularning tuzilishi, baholash mezonlari aynan egallangan bilim maqsadidan kelib chiqqan holda tanlanadi. Bir maqsad uchun yaratilgan test boshqa bir natija uchun to'g'ri kelmasligi ham mumkin. Masalan, o'quvchilarni chet tilini bilish darajasiga ko'ra guruhlariga ajratish maqsadida tuzilgan ko'p darajali testni chet tili o'rganishning aniq bir darajasini baholash uchun qo'llab bo'lmaydi¹.

Test yordamida ma'lum bir domen va bu domen-ga xos bo'lgan konstruktlar o'lchanadi, ular o'quvchida (test topshiruvchida) qay darajada shakllanganligi haqida xulosa chiqariladi. Bu xulosa esa o'z navbatida, biron-bir qaror qabul qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Baholash jarayonining maqsadidan kelib chiqqan holda ikki xil baholashni ajratib ko'rsatish mumkin: xulosalovchi (summativ) baholash, shakllantiruvchi (formativ) baholash.

Summativ baholash – ta'lim jarayoning ma'lum bir muhim bosqichida (masalan, modul yoki fan oxiri, semestr yoki o'quv yili yakuni, ta'limning bir bosqichi nihoyasi yoki ta'limning keyingi bosqichiga o'tishdan oldin) ta'lim oluvchining ta'limiy maqsadlarga qay darajada erishganligini o'lchash jarayoni.

Formativ baholash – ta'lim jarayoni davomida ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish sifatini baholab borish.

Bizning ishimizda **summativ baholash** jarayoniga urg'u berilgan hamda 11-sinf bitiruvchilarining Ona tili fani doirasida o'qib tushunish malakalarini baholash testlarini ko'rib chiqish maqsad qilingan.

Ta'lim sifatini baholash bilan shug'ullanuvchi tashkilotlarning hisobotlaridan ma'lumki, agarda juda katta ta'sir kuchiga ega bo'lgan sinovlarning mazmuni va test topshiriqlari metodikasi ta'lim berishning bosh maqsadi bilan hamohang bo'lmasa, o'rta ta'limda o'qitish va summativ baholash bir-biridan uzilib qoladi. Natijada jamiyatda "imtihon uchun o'rgatish"ga mo'ljallangan alternativ ta'lim paydo bo'ladi. Bu esa jamiyatning ijtimoiy, ma'naviy va huquqiy hayotiga, xususan, ta'lim jarayoniga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, Garvardda² o'tkazilgan tadqiqotlardan shu ma'lum bo'ldiki, o'quvchilarni, talabalarni majburiy standartlashtirilgan testlardan o'tish uchun tayyorlash ular o'qitilishining bosh maqsadiga aylanib qoladi. O'qituvchilar va ta'lim oluvchilarda stressli holatlarni kskin oshib ketishiga sabab bo'ladi. Bular esa summativ

baholashni tashkil etishda, uning mazmunini, formatini va topshiriqlari metodikasini belgilashda ehtiyotkorona, aniq statistik tahlillarga asoslanib amalga oshirish kerakligini ko'rsatadi.

Summativ baholash asosan ta'lim oluvchiga yoki ta'lim oluvchi orqali ta'lim beruvchiga (o'qituvchi, ta'lim muassasasi, ta'lim yo'nalishi, ta'lim tizimi) baho berish hamda ta'lim oluvchilarni saralash maqsadida rasmiy shaklda (imtihon sinov, kurs ishi yoki diplom ishi topshirish) o'tkaziladi³.

Har qanday baholash jarayoni uchun, xususan, summativ baholash uchun ham testlar ishlab chiqish quyidagi bosqichlarni o'z ichiga olishi lozim bo'ladi:

Testning maqsadini aniqlash – testning maqsadi, uning qanday shaklda bo'lishi, qanday xarakteristikalarga ega bo'lishini aniqlab olish.

Domen va konstruktarni aniqlash – baholanishi kerak bo'lgan domen hamda konstruktlar aniqlanadi. Domen va konstruktlar odatda ta'lim standartlari asosida tuziladi.

Test spetsifikatsiyasini ishlab chiqish – baholanishi lozim bo'lgan domen va konstruktarning har bir elementi qanday, nechta sondagi test topshiriqlari yordamida tekshirilishi aks etadi. Test spetsifikatsiyasini ishlab chiqishda domenga kiruvchi mazmuniy qismlardan tashqari test topshiruvchidan talab qilinadigan kognitiv operatsiya turini ham hisobga olish lozim. Buning uchun kognitiv operatsiyalarni tasniflaydigan nazariy model ishlatiladi. O'qib tushunish testlari uchun ko'plab tadqiqotchilar AQSH olimi Benjamin Blum tomonidan yaratilgan Blum taksonomiyasi modelini qo'llaydilar.

Test topshiriqlarini ishlab chiqish – test spetsifikatsiyasi asosida test topshiriqlarini ishlab chiqish bosqichi.

Dastlabki aprobatsiya – ishlab chiqilgan test topshirig'i dastlabki aprobatsiyadan o'tkaziladi. Kerakli tahliliy xulosalar olingach testga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritiladi.

Katta miqyosdagi aprobatsiya – aprobatsiya ishtirokchilari sifatida haqiqiy test topshiruvchilarga xususiyat jihatdan yaqin qatnashuvchilar tanlanadi. Aprobatsiya sharoitlari ham haqiqiy test sharoitlariga maksimal yaqin bo'lishini ta'minlash kerak bo'ladi.

Validlik va ishonchlilik tahlillari – katta miqyosdagi aprobatsiyadan so'ng natijalar testologiya qonun-qoidalarini asosida validlik hamda ishonchlilik nuqtai nazaridan tahlil qilib chiqiladi. Shundan so'ng testning oxirgi ko'rinishi tayyorlanadi⁴.

Matnni o'qib tushunishni baholash uchun, avvalo, uning qanday mayda darajalarni o'z ichiga olishini bilish testning adolatli va asosli bo'lishiga zamin yaratadi.

Matnni o'qib tushunish murakkab psixolingvistik jarayon bo'lib, grafemalarni tanish, so'zni o'qish, so'zning lug'aviy ma'nosini, kontekstual ma'nosini anglash, sintaktik strukturani to'g'ri hal etish (ya'ni so'zlarning o'zaro munosabati, qaysi so'z gapdagi asosiy tushunchani, qaysilari unga tobe tushunchalarni ifodalayotganini anglash), shuningdek, matn mazmuniy bloklarining o'zaro bog'lanishini tushunish kabi darajalardan iborat bo'ladi. Mazkur darajalar matnni tushunish, uning mazmuniy proyeksiyasini ongda hosil qilgunga qadar kechadigan jarayondir⁵.

Bu o'rinda o'zbek tilida amalga oshirilgan psixolingvisitk tadqiqotga murojaat qilish o'rinni bo'ladi. O'zbek tilidagi gazeta matnining tushunilishi bo'yicha o'tkazilgan tajribalarga asosan matnni tushunishning quyidagi darajalari ajratilgan: assotsiativ daraja, leksik-morfologik daraja, kontekstual daraja, struktural daraja, matniy daraja.

Assotsiativ daraja matndagi ma'lum til birliklari ta'sirida assotsiatsiyalar hosil bo'lishi bilan xarakterlanadi. Leksik-morfologik daraja esa so'zlarning va qo'shimchalarning to'g'ri tushunilishi bosqichidir. Kontekstual darajada so'zlarning kontekstda anglatayotgan ma'nosi reallashadi. Struktural darajada matnning mazmuniy qismlari, ularning o'zaro bog'lanishi tushuniladi. Matniy darajada matn mazmuni yaxlit anglanishi nazarda tutiladi⁶.

Mazkur darajalar matnda ifodalangan ma'lumotni to'liq anglash uchun zaruriy darajalar bo'lib, ularning qaysidir bittasi risoladagiday kechmasligi matn mazmuni o'quvchiga to'liq yetib bormasligi, ba'zan nimadir yangilish tushunib qolishiga olib boradi.

O'zbek tili malakasini aniqlash testi (O'zMAT) tizimi doirasida o'qib tushunishni tekshirish uchun tanlangan ko'nikmalar Blum taksonomiyasi hamda matn tushunilishi haqidagi psixolingvistik nazariyalarga tayangan holda shakllantirilgan. Mazkur test tizimining o'qib tushunish bo'limida uch xil uslubdagi uchta matn beriladi. O'zMAT tizimi avvalboshdan ona tili va adabiyot fanlari bo'yicha ko'nikmalarni baholaydi deb maqsad qilingani uchun matnlarning biri badiiy uslubda. Bunda hikoya yoki biror asardan olingan parchadir. Ona tilini ijtimoiy hayotning muhim masalalarini anglashda samarador ishlata olish zamon talab qilayotgan ko'nikma ekanligini hisobga olgan holda, keyingi matn publitsistik uslubga oid bo'ladi. Har qanday kasb egasi yoki oliy ta'limda o'qishga talabgor eng ko'p duch keladigani ilmiy-ommabop matnlar bo'ladi, shuning uchun ham ushbu uslubdagi matnlarni o'qib tushunish ko'nikmasi shaxsning umumiy qabul qilish qobiliyatini aniqlashga mos keladi. Shu asosda o'qib tushunish bo'limidagi uchinchi matn ilmiy-ommabop uslubga oiddir.

O'qib tushunish komponentini baholash uchun ko'nikmalar ikki guruhga bo'lib shakllantirildi. Adabiyot

faniga oid ko'nikmalarni badiiy matnni o'qib tushunish orqali baholash vazifasi shuni taqazo qildi. Badiiy matnni o'qib tushunishda quyidagi ko'nikmalar belgilab olindi:

*O'SA⁷.1. Asar yoki parcha matnidagi implitsit ma'nolarni (tagma'no) topa olish;

O'SA.2. Asar yoki parcha matnidagi eksplitsit (ochiq ifodalangan) ma'nolarni topa olish;

O'SA.3. Asar yoki parchaning syujet elementlarini farqlay olish;

O'SA.4. Asar yoki parchada muallif qo'llagan tasviriy vositalarni tushunish va farqlay olish;

O'SA.5. Asar yoki parcha tiliga xos leksik, grammatik, fonetik xususiyatlar hamda ularning kontekstual ma'nosini tushuna olish;

O'SA.6. Asar yoki parchaning umumiy g'oyasi, mazmunini aniqlay olish;

O'SA.7. Asar yoki parchada ishtirok etgan obrazlarga tavsif bera olish.

Ikkinchi guruh ko'nikmalar publitsistik va ilmiy-ommabop matnlar uchun umumiy qilib shakllantirildi va ular quyidagidan iborat:

O'SPIO⁸.1. Matnning umumiy g'oyasi yoki mazmunini tushunish (matnda ilgari surilgan asosiy fikr bu g'oya. Bitta gap orqali ifoda etish mumkin bo'lgan umumiy g'oya);

*O'SPIO.2. Eksplitsit fikr-mulohazani tushunish; -inkorni tasdiqlash;

-sinonim;

O'SPIO.3. Implitsit fikr-mulohazani tushunish (matnda aytilgan gapdan mantiqiy xulosa chiqarish orqali matnda aytilmagan fikr-mulohazani tushunish);

O'SPIO.4. Asar yoki parchada muallif qo'llagan tasviriy vositalarni tushunish va farqlay olish;

O'SPIO.5.1. Matnda qo'llangan so'z, birikma va iboralarning kontekstdagi ma'nosini tushunish

O'SPIO.5.2. Ishoraviy birliklarning matnning qaysi qismiga ishora/havola qilayotganini tushunish

O'SPIO.6. Matndagi til birliklarining qo'llanishini baholash.

O'SPIO.7.1. Muallifning voqea-hodisalarga qanday baho berganini tushunib yetish.

O'SPIO.7.2. Muallif tomonidan bildirilgan fikr-mulohazalarning asosli ekanligiga tushunish/baho berish.

O'SPIO.7.3. Fikr-mulohazalarni taqqoslash va umumlashtira olish.

O'SPIO.7.4. Sabab va oqibatni ajrata olish.

O'SPIO.7.5. Muallifning ma'lum bir misol/faraz/pretsendent matnni qo'llashdan maqsadini aniqlash.

O'SPIO.8.1. Matn qismlari (gaplar, xatboshilar) o'rtasidagi bog'lanishlarni tushunish.

Masalan: 2-so'zboshi 3- so'zboshi bilan qanday bog'langan?

A) 3- so'zboshi 2- so'zboshini dalillagan.

B) 3- so'zboshi 2- so'zboshiga misol keltirgan.

C) 3- so'zboshi 2- so'zboshini inkor qilgan.

D) ...

O'SPIO.8.2. Matn qismlariga sarlavha qo'yish;

O'SPIO.8.3. Ikkita yoki undan ortiq paragrafda bildirilgan fikr-mulohazalarni bir-biriga bog'lay olish yoki ularga umumiy tarzda taalluqli bo'lgan hulosaga kelish.

Ushbu ko'nikmalarni tekshirish uchun 79 ta badiiy, 67 ta publitsistik, 89 ta ilmiy-ommabop matn ko'rib chiqildi va 800-1100 ta so'zdan iborat bo'lgan 24 ta badiiy matn saralab olindi. Badiiy matnlarni saralashda so'zlar soni; matnning o'ta murakkab sintaktik konstruksiyalarning sodda konstruksiyalar bilan aralash qo'llanganligi, chastotasi yuqori so'zlarning chastotasi past so'zlarga nisbatan ko'proq qo'llanganligi, badiiyati yuqoriligi kabi mezonlar asos bo'lib xizmat qildi.

Xuddi shunday publitsistik va ilmiy-ommabop uslubdagi matnlar ham saralanib olindi. Har bir matn asosida testologlar tomonidan ko'nikmalarni tekshiradigan testlar tuzildi. Testlar loyihasi mutaxassislar guruhi tomonidan muhokama qilindi. Har bir testning kuchli va kuchsiz taraflari bo'yicha guruh a'zolarining fikrlari inobatga olinib, yakunda 8ta variant shakllantirildi. Ularning har biriga har bir matn bo'yicha 12 tadan, jami 36 ta test kiritildi.

Tayyor variantlar Toshkent shahri va Toshkent viloyatidagi bir necha umumta'lim muassasalari bitiruvchilarining 400 nafari ishtirokida aprobatsiyadan o'tkazildi. O'qib tushunish bo'yicha testlarni ishlash uchun sinaluvchilarga 1 soatu 20 daqiqa, javoblarni javoblar varaqasiga ko'chirishga 10 daqiqa, jami bir yarim soat vaqt berildi.

Testlarning aprobatsiya natijalari statistik tahlil qilindi. Tahlilda individual test topshiriqlarining diskriminatsiya indeksi hamda to'g'ri javob va distraktorlar ko'rsatkichlari o'rganildi. Diskriminatsiya indeksi bu testning bilimi yuqori va bilimi past bo'lganlarni ajrata olish xususiyatidir. Bunda testning to'g'ri javobi test topshiruvchilar orasida to'g'ri javoblar soni ko'p bo'lganlar tomonidan ko'proq topilganmi yoki to'g'ri javoblar soni kam bo'lganlar tomonidan ko'proq topilganmi degan savolga javob izlanadi. To'g'ri javoblar foizi test topshirig'ining nisbiy qiyinlik darajasini belgilashda hamda variantlar o'rtasidagi paralellikni ta'minlashda yordam beradi. Distraktorlar ko'rsatkichlari esa ularning qay darajada samarali ishlayotganligini baholash imkonini beradi. Bundan tashqari statistik tahlillar yordamida test variantining umumiy ko'rsatkichlari ham o'rganildi. Bunga testda qatnashganlarning arifmetik o'rtacha balli, ballarning standard og'ish ko'rsatkichlar, minimal va maksimal ballar va natijalarning gistogrammadagi ko'rinishi kabi tahlillar kiradi. Bu tahlillar test variantining umumiy qiyinlik darajasini aniqlashga va variantlar o'rtasidagi tenglik va paralellikni ta'minlashga yordam beradi.

Quyidagi jadvalda badiiy matnni tushunish uchun belgilangan ko'nikmalar bo'yicha to'g'ri javoblar miqdori aks etgan.

1-jadval. O'SA ko'nikmalari bo'yicha birinchi aprobatsiya natijalariga ko'ra to'g'ri javoblar miqdori

t/r	Ko'nikma shifri	Ko'nikmaning mazmuni	1-aprobatsiya natijalariga ko'ra to'g'ri javoblar foizi
	O'SA.1.	asar yoki parcha matnidagi implitsit ma'nolarni (tagma'no) topa olish	60
	O'SA.2.	asar yoki parcha matnidagi eksplitsit (ochiq ifodalangan) ma'nolarni topa olish	64
	O'SA.3.	asar yoki parchaning syujet elementlarini farqlay olish	-
	O'SA.4.	asar yoki parchada muallif qo'llagan tasviriy vositalarni tushunadi va farqlay olish	52
	O'SA.5.	asar yoki parcha tiliga xos leksik, grammatik, fonetik xususiyatlar hamda ularning kontekstual ma'nosini tushuna olish	59
	O'SA.6.	asar yoki parchaning umumiy g'oyasi, mazmunini aniqlay olish	78
	O'SA.7.	asar yoki parchada ishtirok etgan obrazlarga tavsif bera olish	66

Mazkur jadvalda faqat diskriminatsiya indeksi yaxshi chiqqan testlar hisobga olindi. Syujet elementlari bilan bog'liq (O'SA.3.) ko'nikma asosida tuzilgan testlarning natijasi shu sababli hisobga olinmadi. Syujet elementlari bilan bog'liq testlar berilgan matnning kulminatsiyasi yoki tugunini topish so'ralgan testlar edi. Kulminatsiya so'ralgan testlar ma'lum darajada to'g'ri ishlangan bo'lsa-da, tugun degan tushuncha o'quvchilarda shakllanmagan degan xulosaga kelindi. Bu testlar bilan bog'liq muammo bir tomondan, ularda adabiyot nazariyasiga oid bilimning, terminlarni bilish talab qilinishi bo'lsa, ikkinchi tomondan syujet elementlari bilgan holda ham, ularni asardan to'g'ri topish nazariy tushunchalarni tushunish jarayonida qo'llay olish, ya'ni ularndan matnni tahlil qilish talab etilishi edi.

Belgilangan ko'nikmalar bo'yicha O'SA.4. ko'nikmasiga tegishli ko'rsatkich qolganlariga nisbatan pastroq. Bu ko'nikmada berilgan testlarning mazmuniga

tayangan holda, aytishimiz mumkinki aprobatsiyada ishtirok etgan bitiruvchilarning ko'pchiligida matnda qo'llangan birlikning nima uchun qo'llanganini tushunish, ya'ni til birligining pragmatikasini anglash nisbatan yaxshi rivojlanmagan.

Birinchi aprobatsiyada O'SA.1. ko'nikmasi bo'yicha tuzilgan 7ta testdan ikkitasininggina diskriminatsiya indeksi talab darajasida bo'lgan. Garchi jadvalda berilgan ko'rsatkich 60 bo'lsa-da, u ikkita alohida 46% va 74%

natijalarining o'rtachasini aks ettiradi. Bu esa tajribamiz ishtirokchilarida implitsit ma'noni tushunish ko'nikmasi ham yetarlicha shakllanmaganligini bildiradi, nazarimizda. O'SA.1. va O'SA.3. ko'nikmalariga tuzilgan testlarning birinchi aprobatsiyadagi natijasi testning mavjud populyatsiyani baholashda populyatsiyada shakllangan ko'nikmalarga bog'liq jihatlari mavjudligini yana bir karara dalillaydi.

1. Jalilov K.. Baholash nazariyasi asoslari. –Toshkent, Akademnashr. 2020, 17-bet.
2. Mandatory Testing and News in the Schools: Implications for Civic Education. A Report from the Carnegie-Knight Task Force on the Future of Journalism Education. https://shorensteincenr.org/wp-content/uploads/2012/03/mandatory_testing_and_news_in_schools_2007.pdf
3. alilov K. Baholash nazariyasi asoslari. –Toshkent, Akademnashr. 2020, 25-bet.
4. Jalilov K. Baholash nazariyasi asoslari. –Toshkent, Akademnashr. 2020, 110-bet.
5. Azimova I. Ona tili ta'limida lisoniy malakani rivojlantirishning psixolingvistik asosi. *Global ta'lim va milliy metodika*. Toshkent, 2019. B. 220.
6. Azimova I. O'zbek tilidagi gazeta matnlari mazmuniy persepsiyasining psixolingvistik tadqiqi. Toshkent, 2019.
7. O'SA* - O'qish savodxonligi, adabiyot.
8. O'SPIO* - O'qish savodxonligi, publitsistik, ilmiy-ommabop.

Tadqiqot



Otabek SHUKUROV,
Qarshi davlat universiteti O'zbek tilshunosligi kafedrasida doktoranti
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

HOZIRGI O'ZBEK ADABIY TILI LEKSIKASINING GENETIK MANBALARI XUSUSIDA

Annotatsiya. Maqola hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik sistemasi o'rganishga bag'ishlangan. Aniqroq aytganda, leksikaga sezilarli darajada ta'sir etgan o'zlashmalar qatlam sifatida talqin etilgan. Buning uchun arabcha, forsha, ruscha-internatsional va inglizcha o'zlashmalar tadqiqiga doir ilmiy ishlar tahlilga tortilgan. Muhimi, o'zlashmalar orasidagi inglizcha birliklarga shakllanayotgan yangi qatlam sifatida baho berilgan.

Kalit so'zlar: o'zlashma so'z, lug'at, ma'no, leksika, arabcha o'zlashmalar, forsha o'zlashmalar, ruscha-internatsional o'zlashmalar, inglizcha o'zlashmalar

Annotation. The article is devoted to the study of the lexical system of the modern Uzbek literary language. More precisely, borrowings that have a significant impact on vocabulary are interpreted as a layer. For this purpose, scientific works on the study of Arabic, Persian, Russian-international and English borrowings were analyzed. It is important to note that English units between borrowings were evaluated as a new layer being formed.

Keywords: loan word, dictionary, meaning, lexis, Arabic borrowings, Persian borrowings, Russian-international borrowings, English borrowings

Аннотация. Статья посвящена изучению лексической системы современного узбекского литературного языка. Точнее, заимствования, оказывающие существенное влияние на лексику, интерпретируются как пласт. С этой целью были проанализированы научные работы по изучению арабского, персидского, русско-интернационального и английского заимствований. Важно отметить, что английские единицы между заимствованиями оценивались как формирующийся новый слой.

Ключевые слова: заимствование, словарь, значение, лексика, арабские заимствования, персидские заимствования, русско-интернациональные заимствования, английские заимствования

Har qanday til leksikasi muayyan jamiyat uchun dinamik ravishda xizmat qilar ekan, yakka va ayri holda yashay olmaydi. Ular tabiiy holatda o'zaro til kontakti sharoitida bo'ladi, genetik jihatdan yaqin yoki uzoq til-

lar ta'siriga uchraydi. Buni "Tillarning bir-biriga ta'sir ko'rsatishning keng tarqalgan usuli – so'z almashish" [1: 120] degan qarash bilan asoslash ham mumkin.

O'zbek tili ham tarixan bir necha tillarning leksikasi-

dagi birliklarni sezilarli darajada o'ziga singdirgan. Bular qadimiy eroniy tillar, jumladan, so'g'd tili, qadimiy xorazm tili, qadimiy oltoy va xitoy tillari; qadimiy grek va hind tili; arab tili, mo'g'ul tili; qadimiy uyg'ur tili; klassik fors-tojik tili, tojik xalq tili va nihoyat rus tilidir [2: 82].

Shubhasizki, har qanday xalq o'z tilining milliy tabiatini asrashga, avaylashga intiladi. Tilning milliy ruhi, go'zalligi va tarovatini ko'rsatuvchi atributlar ham leksik sath orqali namoyon bo'ladi. Ta'kidlanganidek, "til kontaktlari ta'sirida tilda turli xil yangi belgilar yuzaga keladi, lekin ular, asosan, tilning ochiq sathlarida, ya'ni leksik, qisman fonologik va sintaktik sathlarida namoyon bo'ladi, tilning yopiq sathi sanalgan morfologiyada deyarli kuzatilmaydi" [3: 76]. Shunga ko'ra tildagi o'zgarishlarni o'zida tez aks ettiruvchi leksika va uning genetik manbalarini o'z vaqtida taftish etib borish, munosabat bildirish, takliflar bildirish masalaning dolzarbligini belgilaydi.

Ishning maqsadi leksikaga sezilarli darajada ta'sir etuvchi o'zlashma qatlam so'zlarini o'rganish bo'lib, vazifalari esa arabcha, forsha, ruscha-internatsional va inglizcha o'zlashmalarni motivlovchi jihatlariga ko'ra tadqiq etishdan iborat.

Mazkur ishda ilmiy muammo sifatida yondashilayotgan obyekt, ya'ni leksikadagi arabcha, forsha, ruscha-internatsional va inglizcha qatlam o'zlashmalariga tavsifiy metod asosida sharh berish, tadqiq etish adekvat yondashuv hisoblanadi.

"O'zbek tilining izohli lug'ati"da to'rt mingga yaqin arabcha so'z izohlangan. Ularning salmoqli qismi ta'lim-tarbiya va madani-ma'rifiy mazmundagilari birliklardir. Arabcha-forsha so'zlar o'zbek tili tabiatiga juda yaqin singishgani, o'zbek xalqi esa bu so'zlarni o'z ona tili so'zlari qatorida qabul qilgani ham bor haqiqatdir. Negaki, nutq egalari kundalik hayotda istifoda etayotgan ayrim shunday so'zlarni arabcha yoki forsha ekanini payqashmaydi, o'z til so'zlari qatorida qabul qilishgan.

O'zbek tiliga arab tili bilan bevosita to'qnashgan til sifatida qaralib, o'zbek-arab ikki tilliligi kontaktli hodisa hisoblanishi ta'kidlanadi. Bu jihatdan o'zbek-arab tillarining o'zaro aloqasi va ta'siri boshqa turkiy tillardagi mana shunday ta'sirdan farqlanadi [4: 108].

Manbalarda arab tilidan o'zbek tili (eski turkiy til)ga to'g'ridan-to'g'ri so'z olish jarayoni XI asrga kelib to'xtatildi. Ammo keyingi davrlarda arabcha yozma manbalarining shu til egalari tomonidan keng o'rganilishi arabcha yangi o'zlashmalarining til zaxira fondini kengaytirib borishiga sabab bo'ldi, deyish mumkin.

"O'zbek tili izohli lug'ati"dagi o'zlashmalarining old qatorida arabcha so'zlarning joy olishi kishini ajablantirmaydi. Negaki ta'lim-tarbiya jarayoni, odob-axloq me'yorlari, diniy-irfoniy adabiyot tushunchalarini ifodalashda arabcha so'z, istilohlardan ko'proq foydalaniladi. O'rta asrlarda o'lkamizda arab tili faqat islom dini ta'siridagina yoyilgani yo'q. Mazkur til, o'z navbatida, rasmiy-idoraviy, fan tili hamda ijodkorlar uchun badiiy

adabiyot tili rolini ham bajargan. Bularning barchasi bu til so'zlarini hozirgi o'zbek tilining bir qismi sifatida qabul qilinishi uchun poydevor vazifasini bajargan.

"O'zbek tilining izohli lug'ati"da uch mingdan ortiq forsha so'z izohlangan. Bu so'zlarning ko'pchiligi xalq turmush-tarzi bilan bog'liq kundalik muloqot so'zlariga aylanib ulgurgan. Forscha so'zlarning tilimiz lug'at boyligiga kirib kelish davri arabcha so'zlarga qaraganda qadimiyroqdir. Bundan tashqari, ularning o'zlashish jarayoni hanuz bardavom bo'lib turgani bilan ham belgilanadi.

Manbalarda ikki tilda – o'zbek va tojik tillarida gaplasha oladigan aholi Movarounnahrda (Amudaryo va Sirdaryo o'rtalarida) VI asrda va undan ilgari ham istiqomat qilgani [1: 81] aytiladi. Bundan tashqari, Somoniylar davrida Movarounnahr hamda Xurosonda fors tili (dariy til) davlat tili vazifasini bajargan. Buning natijasida, turkiy ijodkorlar ham turkiy, ham forsiy tilda ijod etib, zullisonaynlik darajalariga ega bo'lishgan. O'zbek xonliklarining XVI-XIX asrlar oralig'idagi hukumat ishlari, rasmiy yozishmalari fors-tojik tilida olib borilgani ham tarixdan yaxshi ma'lum.

Fors-tojikcha o'zlashmalarining o'zbek tili leksikasi o'zlashish jarayoni quyidagilar bilan belgilanadi:

Movarounnahrda fors-tojik xalqlari bilan muntazam qo'shnichilik;

o'rni bilan shu tilning davlat tili darajasiga chiqib turishi;

zullisonayn darajasiga ega bo'lgan ijodkor asarlarining ta'siri;

uzoq davrga ega bilingvizm hodisasining ayrim hududlarda hanuz davom etayotgani.

Keltirilgan omillar natijasida leksikadagi fors-tojikcha o'zlashmalarining ijtimoiy hayotning turli soha doirasida faol qo'llanib kelayotgani kuzatiladi. Shu jihatdan bu birliklarning arabcha o'zlashmalarga qaraganda fonetik jihatdan ham, morfologik jihatdan ham o'zbek tili tabiatiga ko'proq yaqinlashgani seziladi. Bundan tashqari, o'zbek-tojik bilingvizmining ayrim hududlarda hanuz mavjudligi alohida ahamiyatga molikdir.

Arabcha so'zlardan farqli o'laroq fors-tojikcha o'zlashmalarni shakliy xususiyatlariga ko'ra ajratish murakkab masaladir. Fors-tojik tilidan o'zbek tiliga o'zlashgan so'zlarning mavzuviy guruhlariga ko'ra keng qamrovli ekani nafaqat avtosemantik so'zlar, balki undan tashqarida bo'lgan turkum so'zlari doirasida uchrashi bilan ham belgilanadi.

1957-yil Faxri Kamol tahriri ostida nashr etilgan "Hozirgi zamon o'zbek tili" kursi materiallari asarida o'zbek tili leksikasida turkiy tillar uchun umumiy bo'lgan so'zlar, shuningdek, tojikcha-forsha, arabcha, ruscha va rus tili orqali kirgan so'zlar tahlil qilingan. Chetdan kirgan so'zlarga munosabat esa davr siyosatiga murosa yo'li bilan bildirilgan.

A.Navoiy yashagan va ijod etgan davrda arab tili ilmiy fan tiliga, fors tili esa ijod tiliga aylangan edi. Professor

B.Bafoev tadqiqotlarida A.Navoiyning asarlaridagi arabcha va forscha soʻzlar statistikasi oʻrganilgan va oli bu haqda quyidagilarni yozadi: “Alisher Navoiyning poetik va ilmiy asarlari soʻz boʻyligining taxminan 30-33 foizini arab tilidan kirgan soʻzlar tashkil qiladi. Fors-tojik leksik elementlari 18-20 foizgacha boradi” [5: 254].


Professor E.Begmatov ham bugungi kunda shunday soʻzlarni genetik manbasiga koʻra oʻzlashma soʻz yoki tashqi resurs deyishdan oʻzini uzoq tutadi. Uning qarashlariga koʻra, arabcha-forscha soʻzlar uzoq davrdan beri isteʼmolda boʻlgan, oʻzbek tilining qonuniy boʻyligiga aylangan leksikadir. Shuning uchun u soʻz yasashda ishtirok etuvchi arabcha, forscha soʻzlarni ichki resurs sifatida baholash kerak, deb hisoblaydi.

XX asrning boshlaridan oʻzbek tilining lugʻat boʻyligini ilmiy terminlar bilan boyitish ishlari faollashdi. Bu davrda nashr etila boshlangan lugʻatlar fikrimizni asoslay oladi. Mazkur davrlarda katta miqdordagi evropa va boshqa til soʻzlari rus tili vositachiligida lugʻat boʻyligimizdan joy ola boshladi. Muhimi, olinmalarning asosiy manba til xususiyatlari chetda qolib, asosan, vositachi til taʼsiri ostida oʻzlashtirildi. Vosita tilning kuchi, asosan, XX asrning 90-yillariga qadar davom etdi, deyish toʻgʻri boʻladi.

Leksikadagi oʻz qatlam va oʻzlashgan qatlam soʻzlarining monitoringi tilshunoslar doimiy diqqatida boʻlib kelyapti. Negaki tilning tabiatini oʻzgarishiga taʼsir qiluvchi omillar mana shu masala atrofida yuz beradi. Oʻzbek tilining lugʻat boʻyligi, asosan, oʻz qatlam (umumturkiy, oʻzbekcha) soʻzlaridan iborat. Qariyb bir asrlik davr oraligʻida faol leksikaga ruscha va rus tili orqali kirgan soʻzlar hajmining besh ming soʻz atrofida boʻlishi bir avlod zaxira lugʻat boʻyligi uchun jiddiy taʼsir kuchiga ega.

Sobiq ittifoq davrida oʻzbek tili leksikasining taraqqiyoti, yuqoridagilar evaziga, katta miqdordagi ruscha va rus tili orqali kirgan oʻzlashmalar bilan boyidi. Bu oʻzlashmalar tadqiqotchilar tomonidan turli tekshirish aspektlarida oʻrganilgan boʻlib, ular orasida I.Rasulov, M.Poʻlatov, F.Abdullaev, E.Sh.Shohmedov, N.G.Gʻulomova, R.Doniyarov, X.D.Jamolxonov, G.Muhammadjonovalarning ishlari mavzu tadqiqiga bevosita aloqadordir.

N.Gʻulomova mavzuga bevosita aloqador tadqiqotlarni oʻrganar ekan, ruscha va rus tili orqali kirgan oʻzlashmalarni sarhisob qiladi, faktlarni qiyoslaydi, xulosa qiladi. Olima keltirgan maʼlumotlar tadqiqotlarda oʻrganilgan statistikaga asoslangan. 1-jadval.



Havola etilgan diagrammada leksikadagi oʻzlashmalar xronologik tahlili aks etgan. Tilshunoslarning tadqiqotlarida keltirilgan raqamlar muayyan yillar va davrlar kesimida qiyoslangan. Bunda ruscha hamda rus tili orqali kirgan soʻzlar bilan arabcha-forscha oʻzlashmalarni qiyoslash, ularni yozma manbalaridagi oʻrnini yillar/davrlar kesimida aniqlash, taʼsir doirasini aniq raqamlarda koʻrsatish va tilning dinamik holatiga baho berish maqsad qilingan. Olima umumlashtirgan maʼlumotlar oʻzlashmalarning davriy nashrlar (gazeta, jurnal) yoki badiiy asar materiallariga asoslangan.

Oʻzlashmalarning jadvaldagi statistikasiga asoslanib, V.V.Reshetov tadqiqotiga koʻra 1934-yil materiallari tahlilida ruscha va rus tili orqali oʻzlashgan soʻzlar 17.2

foiz, arabcha-tojikcha soʻzlar 21.7 foizni tashkil etgan. Ruscha oʻzlashmalarning oʻsish koʻrsatkichi 1923-yil materiallarida 2 foizdan boshlanib, 1967-yil materiallarida 19 foizgacha oshib borgan [6: 9].

1920-1972-yillar oraligʻidagi statistik raqamlar, albat, nisbiy ahamiyatga ega. Bu hodisa matnning janr xususiyatlariga koʻra ham farqlanishi tabiiy. Albatta, badiiy adabiyot, xususan, sheʼriyatda uslub talabi bilan arabcha-forscha soʻzlar salmoqli oʻrin tutsa, tabiiy fan sohalari boʻyicha ruscha va rus tili orqali oʻzlashgan evropa-cha soʻzlar koʻp uchrashi mumkin. N.Gʻulomova ruscha soʻzlar oʻzlashishiga doir statistik maʼlumotlarni tahlillar qilar ekan, “1968-1971-yillarda lugʻat tarkibining surati ushbu nisbatning umumiy qolipidan biroz ogʻishgan,

jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlariga zid ravishda oldingi statistik ma'lumotlarga nisbatan arab-fors so'zlarining ulushi biroz oshgan [6: 9]", – deya ta'kidlaydi va bunga sabab qilib til boyishidagi ichki imkoniyatlarni ishga solish uchun "arxaik" so'zlarning adabiy tilga qabul qilish tendensiyasi boshlanganini qayd etadi.

Tilshunos A.Hojiyev sovet davri o'zbek tili taraqqiyotini monografik planda o'rgangan olim hisoblanadi. U leksikaning istiqboli semantik kalkalash orqali yangi so'z hosil qilinishi bilan alohida bog'liq bo'ldi, deb hisoblaydi. Shuningdek, u kalkalashni murakkab jarayon sifatida tushunib, ular haqida tez hukm chiqarish o'rinli bo'lmashligini eslatadi, nutqqa kiritilayotgan kalkalar haqida "...to'g'ri-noto'g'riligini, maqbul yoki nomaqbulligi kelgusining o'zi ko'rsatadi" [7: 174], deya baho beradi. O'rin topmaganlari esa kelajakda yangilariga almashtirib borilishi tabiiy hol sifatida qoraladi.

Z.Saitqulovning nomzodlik dissertatsiyasida leksikada paydo bo'lgan ruscha o'zlashma so'zlar sinonimiyasi va ularning lug'atlarda aks etishi masalasi o'rganilgan. Dissertatsiyada ruscha leksik o'zlashmalar o'zbek tili leksikasida sinonimiyaning rivojlanish manbalaridan biri sifatida talqin etilgan. Ishda sinonimiya va antonimiya o'rtasidagi farq ochib berilgan va ruscha o'zlashmalarning o'zbek tilidagi sinonimik paradigmalari aniqlanib, ular orasidagi o'xshashlik va farqlar ko'rsatilgan [8: 4]. Sinonimlarning lug'atlarda aks etishi masalasida tegishli izohlar berilgan.

O.Usmonov va R.Doniyorovning 1956-yilda nashr etilgan "O'zbek tilidagi ruscha-internatsional o'zlashtirish so'zlar izohli lug'ati" alohida e'tiborga ega. Bu lug'at rus tilidan va rus tili orqali boshqa tillardan o'zbek tili leksikasiga o'zlashgan so'zlarni va terminlarni jamlagan. Mazkur lug'atda 8000 dan ortiq so'z izohlangan. Unga kiritilgan so'zlarning katta qismi rus va rus tili orqali kirgan yunon, lotin, Evropa tillarining so'zlari va terminlardir. Shuningdek, qisman bo'lsa-da, sharq xalqlari tillaridan o'zlashtirilgan so'zlar ham mavjud. Lug'atdan o'rin olgan so'zlarning muayyan qismi baynalmilal xususiyatga ega.

Ruscha-baynalmilal so'zlar rus tilidan o'zbek tiliga ko'proq grafik shakli o'zgarishlarsiz olingan, biroq ularning genetik manbasi turli tillarga mansub. Shunga ko'ra ularning genetik-etimologik manbasi rus tili so'zlari va rus tili orqali boshqa tillardan kirgan so'zlarga ajraladi.

O'zlashma so'zlar masalasi har bir davrda ham o'zining aktualligini saqlaydi. Ruscha so'zlar o'zbek tilida ayni bir qatlam ko'rinishida shakllanganidek, turkiy so'zlarning ham rus tili leksikasidagi ulushi sezilarli darajadadir. A.Kazkenova o'zining "O'zlashma so'zlar ontologiyasi" nomli mashhur monografiyasida ekzotizm-larga "begona" olamning voqelik va atributlari – urf-odat, an'anasi, kiyim-kechagi, oziq-ovqati va hokazolarni anglatish vositasi deb ta'rif beradi [9: 76]. Olima rus tilida turkiy tillarga tegishli ko'plab o'zlashmalar mavjud ekanini aytadi va bu hodisa rus millati uchun olamning

lisoniy manzarasining organik qismi sifatida idrok qilina-di, deb hisoblaydi.

O'zbek tilining ichki resurs asosida boyish yo'llari ilmiy va o'quv adabiyotlarda turlicha berilgan. "O'zbek tili leksikologiyasi" asarida ichki manba yo'llari sifatida quyidagilar ko'rsatilgan:

- a) adabiy tilga o'zbek dialekt va shevalaridan zarur so'zlar olish;
- b) eski o'zbek tili, jumladan, o'zbek mumtoz adabiyoti tili leksik boyliklaridan o'rinli foydalanish;
- c) traditsion leksik qatlamlarni aktivlashtirish;
- d) o'zbek tilining o'z so'zlaridan yangi so'z va terminlar yasash;
- e) so'z yasashni faollashtirish, ayrim affikslar va modellar funksiyasini kengaytirish;
- f) o'z va o'zga til materiallaridan foydalanib, sintaktik usulda so'z yasashini kuchaytirish;
- j) so'zlarni yangi-yangi ko'chma ma'noda qo'llash;
- h) kalkalash usulida so'z yasash va boshqalar [2: 47].

Ozarbayjonlik olim G.Mirzaeva o'zining maqolasida turkiy tillar doirasida inglizcha so'zlarning o'zlashish masalasiga e'tibor qaratadi. U rus tili bilan yaqin aloqada bo'lgan turkiy tillarni alohida kuzatar ekan, so'z o'zlashtirishda rus tilining vositachilik roli yo'qalayotganini e'tirof etadi. Uning xulosalariga ko'ra, bu hodisa 20-asrning oxirlaridan o'z kuchini yo'qotgan. Buning evaziga inglizcha so'zlarning to'g'ridan-to'g'ri o'zlashish jarayoni boshlangan [10: 71] bo'lib, bunda virtual makon hamda inglizcha so'zlar bilan "to'yingan" Internet fenomeni motivlovchi omil vazifasini bajaryapti.

Boshqa sohalarida bo'lgani kabi, XX asrning ikkinchi yarmidan tillarning o'zaro ta'sir o'tkazish usulida o'ziga xos o'zgarishlar yuz berdi. Buning asosiy "o'yinchilari" sifatida ishlab chiqarishi yuksak taraqqiy etgan va iqtisodiy jihatdan rivojlangan davlatlar tilini ko'rsatish mumkin. Negaki ular tomonidan bozori qaram davlatlarga eksport mollari, texnologiyasini sotish bilan birga o'zlarining maqsadli til siyosatini ham evolyusion holatda yurgizish ishlari maqsad qilingan. Natijada yangi bozor mahsulotidan tashqari, ularning nomlari, ishlab chiqaruvchi zamonaviy texnologiya, kompaniya nomlari, ko'plab uskunalar hamda ularga bog'liq jihozning nomenklaturalari tizimli ravishda qabul qiluvchi tili leksikasidan joy ola boshladi.

Mustaqillik davri o'zbek tili leksikasida evropa tillariga tegishli so'zlar, xususan, inglizcha o'zlashmalar fors, arab va ruscha so'zlar singari alohida qatlam sifatida shakllana boshladi. Inglizcha o'zlashmalarning leksikadagi o'rni, shakllanishi va taraqqiyoti, motivlovchi manbalari, semantik evolyusiyasi hamda boshqa atributlarini yoritish alohida masala hisoblanadi. Shu bois bugungi kunda dunyo tillari uchun donorlik vazifasini bajarayotgan ingliz tilining boshqa tillarga ta'sir darajasi, lug'at tarkibi, genetik tarkibi hamda manbalari, so'z qabul qilish imkoniyati haqida ham ayrim fikrlarni bildirib o'tish joiz.

Taniqli tilshunos N.Mahmudov soʻz oʻzlashtirishning obʼektiv va subʼektiv asoslariga koʻra farqlanishini inglizcha terminlar asosida misolida tushuntiradi. "... ingliz tilidagi tilshunoslik terminologiyasida koʻpincha mazkur ikki tipdagi oʻzlashtirish farqli terminlar bilan nomlanadi, yaʼni: tushuncha va uni ifodalaydigan soʻzni birgalikda oʻzlashtirish – "borrowing", mavjud boʻlgan "oʻz" tushunchani ifodalash uchun boshqa tildan soʻz oʻzlashtirish – "loaning" [11: 10]. Koʻrsatilganidek, birinchi tip (*borrowing*) yangi tushunchani, ikkinchi tip (*loanword*) esa xorijiy soʻznigina oʻzlashtirishga qaratilgan ekan, soʻnggi paytlarda yangi tushuncha ifodalovchi birliklarning oʻzlashish dinamikasi sezilarli faollashdi.

Ingliz tili leksikasiga sezilarli taʼsir etgan manba tillarning ulushi boshqa tillarning genetik tuzilishidagi hissalaridan farqlanadi. Hozirgi ingliz tilidagi lotincha soʻzlar miqdori 29 foiz, fransuzcha soʻzlar miqdori 29 foiz, nemischa (qadimgi ingliz tiliga asos boʻlgan german tillariga tegishli) soʻzlar miqdori 26 foiz, yunoncha soʻzlar miqdori 6 foiz va yana boshqa til soʻzlari 10 foizni tashkil etadi [12]. Yana bir boshqa manbaga koʻra, ingliz tili leksikasidagi oʻzlashma soʻzlar taxminan 80 foiz[13]ga teng.

Shunga qaramay, ingliz tili leksikadagi oʻzlashma qatlam va oʻz qatlam soʻzlarining oʻziga xos oʻrni bor. Muloqot jarayonida eng keng tarqalgan 1000 soʻzning 80 foizdan ortigʻi inglizcha boʻlsa, ammo keyingi eng keng tarqalgan 1000 soʻzning 60 foizidan koʻprogʻi oʻzlashmalardir[14: 8].

Ingliz tili leksikasi tarixan murakkab jarayonni bosib oʻtgan. Buni tillarning taraqqiyot tarixida kadam uchraydigan holat sifatida eʼtirof etish mumkin. Aynan shuni nazarda tutib, taniqli leksikograf (Merriam-Webster lugʻatining yordamchi muharriri) Kori Stamper "Ingliz tili bolaligidanoq boshqa til soʻzlarini oʻzlashtirib kelmoqda", deb bejiz aytmagan edi [15].

Hozirgi ingliz tili lugʻat boyligida bir talay xitoycha oʻzlashmalar ham uchraydi. Ularning koʻpchiligi xitoy tili orqali emas, balki koreys va yapon tili vositachiligidan kirib kelgan. Shuning uchun fransuzcha olinmalar siyosat, iqtisod, diplomatiya, sanʼat va sport kabi sohalarida faol qoʻllanadi. Bu oʻzlashmalarning aksariyati ingliz tilining fonetik qoidalariga muvofiq talaffuz qilinadi.

Soʻnggi yillarda ingliz tili lugʻat boyligiga yana koʻplab zamonaviy nemischa soʻzlar (ozuq-ovqat, ichimlik va boshqa mavzuviy guruhlarda) olinma sifatida qabul qilinyapti. Italyancha oʻzlashmalar orasida, xususan, musiqa, arxitektura, mebelchilik sanoati, oshxona konsepti, modalalar olami bilan aloqadorlari koʻproq kuzatiladi.

Ingliz tilida ruscha oʻzlashmalarning miqdori boshqa oʻzlashma manbalarga taqqoslaganda koʻp emas. Rus tilidan ingliz tiliga toʻgʻridan-toʻgʻri soʻz olish ikkinchi jahon urushidan keyingi davrlarga toʻgʻri keladi. Bu soʻzlarning aksariyati rus hukumati siyosati, madaniyati va tarixi bilan bogʻliq tushunchalarni oʻzida aks ettiradi.

Ingliz tili lugʻat boyligidagi lotincha va yunoncha oʻzlashmalarning aksariyati ilmiy atamalardir. Shuningdek, ingliz tiliga arab tilidan ham toʻgʻridan-toʻgʻri yoki bilvosita soʻz oʻzlashish yoʻllari mavjud. Bunda, asosan, diniy, madaniy, maishiy mavzudagi soʻzlar guruhi etakchilik qiladi.

Hozirgi ingliz tili leksikasi tarkibi turlicha boʻlib, unda asosan, fransuz, nemis, italyan, rus, xitoy yapon, yunon, ispan, hind, arab, afrika tili oʻzlashmalari etakchilik qiladi. Umuman olganda, hozirgi ingliz tili leksikasida 350 ga yaqin manba til soʻzlari mavjudligi aytiladi [16].

Oʻzbek tili leksikasidagi soʻzlarning genetik manbalari ("Oʻzbek tilining izohli lugʻati" doirasida) kuzatilganda tarixan 30 dan ortiq til unsurlari oz yoki koʻp miqdorda boʻlsa-da, hozirgi muloqot jarayonida qoʻllanayotgani maʼlum boʻladi. Albatta, ularning barchasi manba til xalqlarining toʻgʻridan-toʻgʻri aloqasi orqali oʻtgani yoʻq.

Hozirgi oʻzbek tilining katta hajmdagi imlo lugʻatiga 85000 soʻz kiritilgan. Albatta, bu raqam leksikadagi soʻzlar miqdorining aniq chegarasini belgilamaydi. Yana lugʻatga shakllantirilishi zarur boʻlgan yangi oʻzlashmalar, faollashgan axborot texnologiyalari, iqtisod, savdo-sotiq va boshqa soha soʻzlari, shuningdek, maʼrifiy-irfoniy va badiiy uslubga xos koʻplab birliklar ham mavjud. Shularni hisobga olib, lugʻatga shakllantiriladigan soʻzlar miqdori bundan ham koʻp boʻlishini taxmin etish mumkin.

"Oʻzbek tili izohli lugʻati"ning 2020-yil tuzatilgan yangi nashrida 80 mingga yaqin soʻz va soʻz birikmasi keltirilgan. Undagi izohlanuvchi soʻz (vokabula) 35000 ga yaqinni tashkil etadi. Bu miqdor hajman katta imlo lugʻati soʻzlari hajmi bilan qiyos etilsa, oradagi farq katta ekan seziladi. Shunga koʻra, muloqot jarayonida faol boʻlgan soʻzlarni "Oʻzbek tilining izohli lugʻati"ga kiritib, munosib tavsifini berish galdagi vazifalardan biridir.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, hozirgi oʻzbek adabiy tilining genetik manbalari forscha qatlam, arabcha qatlam, ruscha-baynalmilal qatlam va shakllanayotgan inglizcha qatlam guruhida oʻrganish mumkin. Mustaqillik davri leksikasida shakllana boshlagan inglizcha qatlamning lugʻatlarga kiritilishi muhim vazifa boʻlib, shartli ravishda ijtimoiylashmagan, ijtimoiylashayotgan va ijtimoiylashgan bosqichlarda farqlab oʻrganilishi lugʻatlarga kiritish uchun asos boʻla oladi. Shakllana boshlagan yangi soʻz, neologizm va oʻzlashma soʻz kabi darajalanishlar lisoniylashish jarayon bosqichlari hisoblanadi. Yakuniy bosqich pirovardida leksikadagi *lugʻatlashgan* soʻz sifatida barqarorlashadi.

Ayni paytda oʻzbek tiliga soʻz oʻzlashtirishda rus tilining vositachilik roli passivlashdi. Buning oʻrniga virtual makon va Internet fenomeni motivida inglizcha soʻzlarning toʻgʻridan-toʻgʻri oʻzlashish jarayoni esa faollashdi.

Ingliz tili leksikasida yuzlab manba til soʻzlari mavjudligi va zaxira boyligining katta qismi oʻzlashmalardan

tarkib topishi tilning umumiy taraqqiyot tendensiyalariga keskin ta'sir etmagan. Bunda o'z qatlam so'zlarining ak-

tual leksikadagi muntazam dinamik jarayoni ham pozitiv ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Waterman J. A History of the German Language. Washington: University of Washington Press, 1966. 266 p.
2. O'zbek tili leksikologiyasi. –T.: Fan. 1981. –B. 315.
3. Nurmonov A., Rahimov A. Lingvosinergetikaga kirish. – T.: Akademnashr, 2013. –B. 112.
4. Begmatov E. Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. –Toshkent: Fan, 1985. –B. 200.
5. Navoiy va adabiy ta'sir masalalari. –T.: Fan, 1968. –B. 354.
6. Гулямова Н.Г. Русские лексические заимствования в узбекском языке. АКД. Ташкент, 1975. 24.
7. Hojiyev A. Sovet davrida o'zbek adabiy tilining taraqqiyoti. 3-tom. –Toshkent: Fan, 1988. –B. 188.
8. Смиткулов З. Заимствование русских слов и системные отношения в узбекской лексике (внесенная синонимия и её отражении в словарях). АКД. Ташкент, 1985. –С. 22.
9. Казкенова А.К. Онтология заимствованного слова. Монография. 2-е изд. – М.: Флинта, 2013. –С. 248.
10. Мирзоева Г. Английские заимствования в тюркских языках. Научный журнал "Молодой ученый". Херсон. №12 (88) 2020. –С. 69-72. <https://doi.org/10.32839/2304-5809/2020-12-88-15>
11. Bu haqda qarang: Mahmudov N. Olamning lisoniy manzarasi va so'z o'zlashtirish // O'zbek tili va adabiyoti. 2015. №3. – B. 3-15.
12. https://en.wikipedia.org/wiki/Lists_of_English_words_by_country_or_language_of_origin <https://www.dictionary.com/e/word-origins>
13. The Secret Life of Words: English Words and Their Origins. The Great Courses, 2012. P. 269.
14. <https://www.dictionary.com/e/borrowed-words> Which Words Did English Take From Other Languages? <https://www.dictionary.com/e/borrowed-words/>

E'tibor YAXSHIEVA,

ToshDO'TAU tayanch doktoranti

TILSHUNOSLIKDA TERMINOLOGIYANING SHAKLLANISHI VA O'RGANILISHI

Annotatsiya: Ushbu maqolada dunyo tilshunosligida terminologiyaning shakllanishi, til sistemasida tutgan o'рни va o'rganilishi haqida fikr yuritiladi. Jumladan, o'zbek tili ham terminologik tizimlarga nihoyatda boy. Shu bois ushbu maqolamizda ona tilimizda terminologik tizimlarni o'rganish bo'yicha amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar haqida ham so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: ilm-fan, leksik birlik, sistema, termin, terminologiya, terminshunoslik, pedagogik terminologiya, leksika, paradigmatic munosabatlar, innovatsiya.

Abstract: The formation of terminology in world linguistics, its study and its role in the language system is analysed in this article. Including the Uzbek language is extremely rich in terminological systems. That's why, in this article, we will talk about a number of works on the study of terminological systems in our native language.

Keywords: terminology, term, pedagogical terminology, vocabulary, lexical unit, system, the science, paradigmatic relations, research, innovation.

Аннотация: в данной статье рассматривается становление, изучение и роль терминологии в мировой лингвистике в языковой системе. В том числе узбекский язык чрезвычайно богат терминологическими системами. Поэтому в этой статье мы расскажем о ряде работ по изучению терминологических систем в нашем родном языке.

Ключевые слова: терминология, термин, педагогическая терминология, лексика, лексическая единица, система, наука, парадигматические отношения, исследовательская работа, инновация.

Har bir fan tarmog'ining qon tomir — tilshunoslik terminologiyasi hisoblanadi. Terminlar tizimining shakllanishida terminografik tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida tub burilishlar, islohotlar, innovatsiyalar kuzatilmoqda. Shubhasiz, bu jarayonlar millatning ko'zgusi bo'lmish tilda o'z ifodasini topadi. Tildagi yangilanishlar zamonaviy tilshunoslikning oldiga bir qator masalalarni ko'ndalang qo'yadi.

Tilning sohaviy tagsistemi o'z rivojlanishi va taraqqiyoti barobarida umumtil sistemasi tarkibiga singib ketib, uning ajralmas qismiga aylanib boradi.

Ilmiy-sohaviy tushunchalar o'z ifodasini so'zlar, so'z birikmalari, sintaktik konstruksiyalarda topishga intiladi. Natijada terminlar yuzaga keladi.

So'nggi yillarda termin o'zbek va jahon tilshunosligida eng muhim tadqiqot ob'ekti bo'lib kelmoqda. To'g'ri, termin tushunchasiga aniqlik kiritish muammosi bir necha avlod vakillari diqqat-e'tiborida bo'lgan. Biroq

shuni ta'kidlash joizki, bugungi ijtimoiy hayotdagi tub burilishlar: ilm-fan rivoji, texnika taraqqiyoti, iqtisodiy islohotlar terminni tadqiq qilishni hamon taqozo etmoqda. O'z navbatida, V.Leychik ayni masala yuzasidan to'xtalib, shunday deydi: agar XX asr birinchi yarmida tilshunoslar terminni lug'at tarkibining uzoq bir periferiyasi sifatida qarashgan bo'lsa, bugungi kunda ilmiy-texnika inqilobini boshdan kechirganimizdan keyin, unga munosabat keskin ravishda o'zgardi. Ayrim mutaxassislar hisob-kitobiga ko'ra, rivojlanayotgan tillardagi yangi leksikaning 80-90 foizini terminlar va boshqa maxsus leksik birliklar tashkil etishini inobatga olish kerak. Zero, ko'p olimlar tomonidan e'tirof etiladigan – til intellektuallashuvi ma'lum darajada tilda maxsus leksikaning keng qo'llanishi bilan bog'liqdir.

O'zbek tili ham uzoq tarixiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan, bugungi yangilanishlar davrida esa u har jihatdan boyib, intellektuallashib bormoqda.

Buning yaqqol dalili sifatida pedagogik terminlar shakllanishini ko'rish mumkin. Chunki pedagogika terminologiyasi yosh avlod ta'lim-tarbiyasi, zamonaviy kadrlar tayyorlash masalasi bilan chambarchas bog'liq bo'lgani bois uzluksiz rivojlanib bormoqda. Til ham jamiyat bilan birgalikda rivojlanadi.

Ma'lumki, termin – ko'p aspektli birlik bo'lib, bir paytning o'zida bir nechta fanning ob'ekti bo'la oladi va har bir fan termin tushunchasiga o'ziga xos belgi va xususiyat kiritishga urinadi. Taniqli o'zbek tilshunosi S.Usmonov quyidagi ta'rifni keltiradi: **Termin gapdan tashqarida olinganda ham ma'lum bir aniq ma'no ifodalaydigan so'z yoki turg'un holatdagi so'z birikmasidir**¹.

Termin ham boshqa leksik birliklar singari atash funksiyasiga ega. Bir guruh olimlar termin xususiyatlarini leksik birlik funksiyasi doirasida tahlil qiladilar. U erda termin maxsus so'z emas, balki so'zning maxsus funksiyasi sifatida talqin qilinadi. Rus tilshunosi G.Vinokur mazkur yo'nalish asoschisi sifatida e'tirof etiladi. U birinchilardan bo'lib terminni "maxsus funksiyadagi so'z",² deb ataydi va biz nazarda tutayotgan atash funksiyasi haqida fikr yuritadi. Olimning fikrini qo'llab quvvatlagan holda H.Jamolxonov bu masalaga nisbatan quyidagicha yondashadi: *darhaqiqat, terminning atash funksiyasi asosiy belgilardan biri. Ammo bu funktsiya ot turkumidan boshqa so'zlarga ham xos. Demak, atash funksiyasini termin bilan so'z o'rtasidagi asosiy farq deb bo'lmaydi*³.

Bu fikr keyinchalik V.Gak, V.Leychik, A.Moiseev, B.Golovin kabi olimlar tadqiqotida ham rivojlantirildi. D.Rozaryonov tomonidan o'rinni qayd etib o'tilganidek, terminning funksional nazariyasiga ko'ra, *deyarli istalgan so'z termin bo'la olishi va, aksincha, istalgan termin terminlik xususiyatini yo'qotib, umumiste'mol so'zga o'tib qolishi mumkin*⁴.

B.Golovin qayd qilishicha, termin – *alohida olingan so'z yoki ot boshqaruvli so'z birikmasi bo'lib, kasbiy tushunchani ifodalaydi va ma'lum bir kasb doirasida (ilm,*

*texnika, ishlab chiqarish, boshqaruv) sohaviy muloqot ehtiyojlarini qondiradi*⁵. V.Leychik esa, termin – *ma'lum tilning maxsus maqsadlarga yo'naltirilgan muayyan bir fan, ijtimoiy soha, ishlab chiqarishning umumiy, konkret, mavhum tushunchalarini ifodalovchi leksik birligidir*⁶, – deb ta'riflaydi. L.Ivinaning qayd qilishicha, termin – *ilm-fanning inson faoliyati doirasi va bilish nazariyasi maxsus tarmoqlarining asosiy leksik birligi bo'lib, bir vaqtning o'zida ob'ekt va jarayonlarni nomlash va olamni anglash quroli sifatida xizmat qiladi*⁷.

D.S. Lotte terminologiyani sistema sifatida birinchilardan bo'lib

qayd etadi va sistema sifatida belgilovchi uchta talabni keltiradi:

1. Terminologik sistema tushunchalarni tasniflashga asoslanishi;

2. Tasniflovchi sxemalarga asoslangan holda terminlashuvchi belgi va tushunchalarni ajratib olish;

3. So'zlar terminlashuvchi tushunchaning boshqalari bilan umumiyliigi va o'zining xususiyiligi ifodalashi kerak⁸.

Yuqoridagi fikrlardan xulosa qilsak, ma'lum bir sohaga oid so'zlar terminologik sistemani tashkil qilishi uchun:

a) salmoqli miqdorda bo'lishi;

b) umumiste'mol so'zlar va boshqa sath terminlaridan farq qiluvchi xususiy ma'nolarga ega bo'lishi va o'z sohasi uchun muomala vositasi sifatida xizmat qilishi;

v) ma'lum mavzuiy guruhlariga birikishi;

g) mazkur sistemaning boshqa elementlari bilan turli paradigmatic (shakl va ma'no munosabatlari) munosabatlarga kirishishi;

d) umumiy til sistemasi va boshqa terminologik sistema elementlari bilan munosabatlarga kirishishi;

e) soha terminlarini shakllantirgan va taraqqiy qildiruvchi usul va manbalarga ega bo'lishi lozim.

Terminologiyaning dolzarb muammolari juda kengdir. Tilshunos olim N.A.Baskakovning qayd etishicha, turkiy tillardagi aniq bilim sohalari terminologiyasi tilshunoslikda ko'plab ilmiy tadqiqotlarga asosdir⁹. Darhaqiqat, o'zbek tili fanlari terminologiyasi tizimi ham nihoyatda boy. Shu bois ona tilimizda terminologik tizimlarni o'rganish bo'yicha qator ishlar amalga oshirildi.

O'zbek tili terminshunoslik sohasining hozirgi darajasi, ilmiy qiymati bevosita turkiy, rus hamda boshqa xalqlarda amalga oshirilgan terminshunoslikdagi ishlar bilan chambarchas bog'liq. SHu jihatdan olib qaraganda, N.A.Baskakov, L.A.Bulaxovskiy, G.O.Vinokur, V.V.Vinogradov, V.P.Danilenko, A.A.Reformatskiy, D.S.Lotte, T.A.Kandelaki, S.A.Chapligin kabi o'nlab tilshunos olimlarning ilmiy tadqiqotlari o'zbek tili terminshunoslik ilmining qaror topishida o'zining salmoqli hissasini qo'shdi.

Turkiy xalqlar tilshunoslari, jumladan, M.SH. Gasimov, B.U.Oruzboeva, R.A.Urekenova, F.S.Faseev

kabi olimlarning bir qator ishlari ham terminologiyamiz rivojiga o'z hissasini qo'shdi.

Ma'lumki, o'zbek tilshunosligi terminologiyasi nazariy masalalari o'lkamizda XX asr boshlarida o'rganila boshlandi. O'zbek tili terminshunosligi rivojlanishida, eng avvalo, S.Ibrohimovning "Farg'ona shevalarida kasb-hunar leksikasi" hamda U.Tursunovning "Terminologiya masalalari" mavzusidagi tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etdi.

R.Doniyorovning doktorlik dissertatsiyasi o'zbek tili terminologiyasining ham nazariy ham amaliy rivojiga katta hissa bo'lib qo'shildi¹⁰.

O'zbek tilshunosligida terminologiyaning leksikografik xususiyatlariga bag'ishlangan qator tadqiqotlar keyingi yillarda ko'plab e'lon qilindi. Terminologiyaning leksikografik masalalari M.Umarxo'jaev, X.Dadaboev,

I.Sadikova, S.Nurmatova, O.Tursunova, P.Nishonov, O.Ahmedov, H.Mirzaxmedova, S.Muhamedova, S.Normamatov, S.Mustafaeva kabi olimlar tadqiqotida o'z aksini topgan.

Sohaviy terminlarning lingvistik tadqiqi bilan D.Kadirbekova, N.Martinova, A.Adigeneva, D.Kamchibekova, O.Ahmedov, P.Nishonov, X.Paluanova shug'ullangan¹¹.

Xulosa o'rinda shuni aytish mumkinki, terminlarning shakllanishi mamlakatlararo munosabatlar oqibatida yuzaga keluvchi tillararo aloqa, ya'ni turli oilalarga mansub tillarning o'zaro ta'siriga bog'liq. Mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy islohotlar davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi deb e'lon qilingan bugungi kunda ona tilimiz, xususan, terminologiyadagi muammolarni aniqlash va uning asosli ilmiy echimlarini topish har qachongidan ham dolzarb bo'lib qoldi.

1. Усмонов С. Ўзбек терминологиясининг баъзи масалалари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1968. – Б.4.
2. Винокур Г.О. О некоторых явлениях словообразования в русской технической терминологии// Труды Московского Института истории, философии, литературы. – т. 5. – Москва, 1939. – С.3.
3. <?> Жамолхонов Ҳ.А. Термин, терминология ва омонимия ҳодисалари ҳақида баъзи бир мулоҳазалар (ботаника терминлари асосида) //Ўзбек тилшунослигининг айрим масалалари, ТДПИ, Илмий асарлар, 87-том. – Тошкент, 1972. – Б.34.
4. Розарёнов Д.А. Термин в современном художественном произведении (на материале английского языка): дисс... канд.филол.наук. – Тула, 2007.
5. Головин Б.Н. Типы терминосистем и основаниях их различия// Термин и слово. – Горький, 1981, – С.5.
6. Лейчик В.М. Терминовидение. Предмет, методы, структура. – Bialystok: Uniwersitet w Bialystoku, 1998. – С.5
7. Ивина Л.В. Номинативно-когнитивное исследование англоязычной терминосистемы венчурного финансирования: дисс...канд.филол.наук. – Москва, 2001, – С.13.
8. Лотте Д.С. Основы построения научно-технической терминологии // Вопросы теории и методики. – Москва, 1961.
9. Баскаков Н.А. и др. Теоретические проблемы и вопросы по тюркскому языкознанию, рекомендуемые для докторских и кандидатских диссертаций // Советская тюркология. 1981, - № 2. – С.35-36.
10. Данияров Р. Техническая терминология узбекского языка на современном этапе: Автореф. докт. дисс. – Ташкент, 1989.
11. Мустафаева С. Хитойча-ўзбекча тилшунослик терминлари. Тошкент: Фан ва технологиялар Маркази, 2014. 111 б.; С. Муҳамедова ва муаллифлар жамоаси. Банк-молия терминларининг ўзбек тилидаги изоҳли лугати. Тошкент: Инновация-Зиё, 2020. – 157 б.; Кадирбекова Д.Х. Инглиз ва ўзбек тилларида ахборот технологиялари терминологиясининг лингвистик хусусиятлари. Монография. – Тошкент: Фан ва технология, 2016. – 128 б.; Мартынова Н.А. Роль терминологической лексики в формировании коммуникативной компетенции специалиста // Общество и человек. – 2014, №1 (7). –С. 67-72.; Нормаматов С.Э. Ўзбек лугатчилигининг шаклланиши ва ривожланишида жадид маърифатпарварларининг ўрни: Филол. фанлари доктори дис. ... автореф. – Т., 2019; Адигенеева А.Б., Камчибекова Д. К вопросу о преподавании профессиональных терминов в русском языке. Электрон ресурс: https://revolution.all-best.ru/pedagogics/00554873_0.html. Мурожаат санаси: 30.08.2021.; Нишонов П. Француз ва ўзбек тиллари юридик терминологиясининг қиёсий-типологик тадқиқи: Филол. фанлари номз. ... дисс. автореф. – Тошкент: 2009. – 26 б.

Sardorbek UMAROV,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

KOMIL INSONNI TARBIYALASHDA FUTUVVAT G'OYALARINING O'RNI

Annotatsiya: Mazkur maqolada komil insonni axloqiy jihatdan yetuk qilib tarbiyalashda futuvvat ilmining o'rni

Annotation: This article discusses the role of futuvvat in the upbringing of a perfect human being. Futuvvat is

Аннотация: В данной статье рассматривается роль футуват в воспитании совершенного челове-

haqida keng to'xtalib o'tiladi. Futuvvat ilmi tasavvuf ilmining amaliy xalqona ko'inishi ekanligi aytiladi. Jumladan, komillik martabasiga yetishda insonda saxovat, javonmardlik, axiylik sifatleri bo'lishi kerakligi ta'kidlandi. Futuvvat nazariyasi haqida Sharq mutafakkirlarining fikrlari va badiiy adabiyotga kirib kelishi, shuningdek, Alisher Navoiyning "Xamsa" asari orqali atroficha tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: Komillik, oriflik, futuvvat, fatiylik, javonmardlik, axiylik, G'azzoliy, irfon, ruh futuvvati.

said to be a practical popular form of mysticism. In particular, it was emphasized that in order to reach the level of perfection, a person should have the qualities of generosity, generosity and generosity. The views of Eastern thinkers on the theory of futuwwat and their entry into the literature were also analyzed through Alisher Navoi's Hamsa.

Key words: Perfection, enlightenment, Futuwwat, fatwa, bravery, ahi, Ghazali, gnosis, futuvvat of the soul.

ка. Футувват считается популярной формой мистицизма. В частности, подчеркивалось, что для достижения уровня совершенства человек должен обладать качествами великодушия, великодушия и великодушия. Взгляды восточных мыслителей на теорию футувват и их вхождение в литературу также были проанализированы через Хамсу Алишера Навои.

Ключевые слова: Совершенство, Ариф, футуват. Фатий. Джаванмрдлик, Ахыйик, Газзали, Ирфан.

Inson butun hayoti davomida har qancha ko'p kitob o'qib uni amalda qo'llamasa, bari befoyda. Xuddi yong'oqni mag'ziga kirmasdan po'stida yugurib yurishga o'xshaydi. Komillikning sharti ham unga amal qilishdir. Zero, komillik hamma narsani me'yori va unga amal qilish orqali hosil bo'ladi. Misol uchun non yopmoqchi bo'lsangiz unga suv, achitqi va tuz solib qoriysiz. Ko'pchigan xamirni esa rostlab qizigan tandirda yopasiz. Agar mana shu jarayonlarni amalga oshirishda biror xatoga yo'l qo'ysangiz xamiringiz pishmagan, yopgan noningiz sho'r yoki tuzi kam bo'lib mukammallik kasb etmaydi. Aslida insonning komillikka erishuvi ham shunga o'xshab ketadi.

Sharq allomalari Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Farobiy, Ibn Sino, Imom Moturidiy, Imom G'azzoliy, Imom Termiziy, Yusuf Xos Hojib, Bahovuddin Naqshbandiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy kabi buyuk zotlar komillikka erishishning inson fenomeni doirasida bir qancha yo'l va usullarini ishlab chiqishgan. Ana shu komillikka olib boruvchi yo'llardan biri – bu tasavvuf va tavhid ilmining bir bo'lagi sanalgan futuvvat ilmidir.

Futuvvat ilmi ko'hna Sharq adabiyotida chuqur o'rin olgan ta'limot hisoblanadi. Pok ilohiy ishq, Haq va haqiqat, sof insoniy xislatlar, kamolot kasb etish, ishq va inson konsepsiyalari, soflik, saxovat, himmat, axiylik, fatiylik kabi sifatlarini o'zida jam etib, adolat va haqiqat timsoli bo'lmish Mutlaq ilohga muhabbat zavqi ushbu mo'tabar ilmning asosini tashkil etadi. Zohiriy jihatdan futuvvatning asosini xalq ichida ma'lum bir ijtimoiy guruhlariga uyushib, xalqning g'amlari va qayg'ulari, zo'limlar zulmidan ezilgan xalqning manfaatlarini himoya qiluvchi mard, jasur yigitlar tashkil etgan bo'lsa, botiniy jihatdan esa futuvvat qalbdan Allohni nomini zikr qilishni qo'ymaydigan, saxovat va himmatli, iymonli, diyonatli, mard, saxiy komil insonni tushunamiz.

Inson tabiati faqat ruhiy dunyodan iborat bo'lmagani sababli, u agar to'liq moddiy dunyo ehtiyojlarini rad etsa, yo bu foni dunyoni tark etmog'i, yo ikkiyuzlamachilikni, ya'ni riyokorlikni kasb etmog'i lozim. Ahli futuvvat ushbu ziddiyatni yengib o'ta olgan jamoadir. Futuvvat

ma'naviyatini o'zlashtirgan kishi amalda yaratuvchi va ruhiyatda darveshdir. Uning axloqiy jihatdan sifati – javonmardlik, ya'ni saxovatlilik, oliyhimmatlik, kamtarinlik, to'g'riso'zlik, mardlik kabi xislatlarning uzviy yaxlitlikda namoyon bo'lishidir. "Bu guruh mehnat bilan topgan nonini boylik deb bilgay", deb yozadi Kaykovus.

Shariat, falsafa va tasavvuf ham aslida irfoniy jihatidan bir-biriga yaqin tushunchalardir. Ilmi qol deya e'tirof e'tilgan shariat ilmlari hamda dunyoviy ilm hisoblangan falsafa komillikka intilayotgan solihni zohiriy tarbiyalasa, ilmi hol sanalgan tasavvuf ilmi solihni botiniy qalb dunyosini tarbiyalaydi. Insonning komillikka intilishi shu ikki tushunchaning qorishuvidan, amalda qo'llay olishdan va unga amal qilishidan shakllanadi. Bu haqida imom G'azzoliyning quyidagi fikrlari e'tiborlidir: "Bilgilki, hazrati Haq subhanahu va taoloni tanimoqning kalidi o'z nafsini tanimoqdir. Ushbu ma'nida aytibdirlarki, "Man arofa nafsahu fa qod arofa robbahu", ya'ni har kishi o'z nafsini tanisa, batahqiq Parvardigorini tanigaydir... Ikki nimarsidin biri zohir badandirki, ani tan atabdurlar, muni zohir ko'z birla ko'rgali bo'lur. Yana biri ma'nii botindirki, ani nafs derlar, jon atarlar va dil ham derlar. Bu ma'nini botinni (yashirin ma'noni) botin (ichki) ko'z birla tanigani bo'lur, zohir ko'z birla ko'rgali bo'lmas. Va sening haqiqatining ushbu ma'nii botindir..."

Komillikning eng asosiy sharti esa qalbni nafs qutqusidan tozalash va qo'lni kasb-hunar bilan band etmoqlikdir. Kamollikning muhim zohiriy shartlaridan biri ham aynan insonning kasb-hunari borligi hisoblanadi. Bu yo'lning tarixi esa komillikning timsoli bo'lgan payg'ambarlarning hayot yo'li bilan bog'liqdir. Payg'ambarlar tarixidan ma'lumki, ular qandaydir kasb-hunar bilan shug'ullanishgan. Payg'ambarlar o'z qalbi va ruhini Allohning yodi bilan pok etib, halol mehnat bilan rizq topishgan. Jumladan, Odam alayhissalom – dehqonchilik, Idris alayhissalom – temirchilik, Muso alayhissalom – cho'ponlik qilganlar. Muhammad alayhissalom cho'ponlik va tijorat bilan shug'ullan-ganlar. Payg'ambarlardan meros qolgan bu an'ana ma'naviy kamolotning cho'qqisini zabt etgan komillik martabasiga erishgan avliyolik, valiylik, so'fiylik, oriflik

maqomiga erishgan zotlar tomonidan davom ettirilgan. Jumladan, Naqshbandiya tariqati shayxlari ishsiz, ma'lum kasb-hunar egasi bo'lmagan insonlarni shogirdlikka qabul qilmaganlar, o'zlari biror kasb-hunar bilan mashg'ul bo'lganlar. Xoja Ali Rometaniy – to'quvchi, Muhammad Boboyi Samosiy – bog'bon, Sayyid Amir Kulol – kulol, Bahouddin Naqshband – naqqosh, to'quvchi va chorvador, Amir Kulolning o'g'li Amir Hamza – ovchi, Xoja Ubaydulloh Ahror – chorvador va savdogar bo'lishgan.

Mazkur an'ana tasavvufning ko'plab tariqatlari va maqomotlarda o'z aksini topgan. Masalan, futuvvat ahli ham kasb-hunar orqali topilgan halol mehnatni komillikka erishning asosiy yo'li deb bilgan. Bu jamoaga birlashgan kishilarning ko'pi javonmardlik, axiylik, fatiylik sifatlariga ega insonlar sanalgan. Ahli futuvvat jamoasiga birlashib pirga qo'l bergan fatiylar ham ma'lum kasb-korga ega insonlar hisoblanishgan. Bu haqida Alisher Navoiy o'zining "Nasoyim ul-muhabbat shamoyin ul-futuvvat" asarida avliyo va mashoyixlarning halol mehnat bilan kun kechirishini va ma'lum bir kasb bilan mashg'ul bo'lganligini e'tirof etadi: Abu Said Xarroz – etikdo'z, Muhammad Sakkok – pichoqchi, Abu Hafz Haddod – temirchi, Abulabbos Omiliy – qas-sob, Ibrohim Ojiri – g'isht quyuvchi.

Tarixdan ma'lumki, tasavvuf ilmining eng gullab rivojlangan davri XI asr oxiri – XII asr boshlariga to'g'ri keladi. Bu davrning ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotida shaharlar aholisining asosini tashkil etgan hunarmandlar, kosiblar va o'rta hol savdo ahlining ma'rifati va ijtimoiy mavqei yuksalib borgan. Natijada ularning ma'naviy ehtiyojlari va bilim darajasi keskin oshib, ijtimoiy faolliklari har sohada sezila boshlagan. Aynan mana shu davrda futuvvat va axiylik tashkilotlari faol ishlagan. Futuvvat va axiylik jamoalari borgan sari keng tarkib topdi. Futuvvat tasavvuf g'oyalarini amaliy tadbir etab boshladi va tasavvuf g'oyalari futuvvatga qo'l berib, xoslar doirasidan chiqib, xalq ichiga yoyildi. Xullas, jamiyatning ijtimoiy, ma'naviy ahvoli yangi bir bosqichga ko'tarildi. Bu haqida eronlik tasavvufshunos olimi Muhammadkozim Yusufpur ham shunday yoza-di: "Tasavvuf tariqatining ko'p sonli tarmoqlari ichida ko'proq jamiyat orasida yoyilgan va rivoj topgan oqim-lardan biri futuvvatdir. Tasavvuf xoslar (ma'rifatli tab-aqa) orasida tarqalgandan so'ng, futuvvat odobi bilan ko'cha va bozorlarga kirib bordi. Darvoqe, futuvvat bu avomona tasavvuf bo'lib, uning rasm-rusumlari oddiy va amaliy, ya'ni kosib hunarmandlar, dehqonlarga tus-hunarli bo'lgan."

Bu davrda jamiyatdagi ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar adabiyotga ham ta'sir etab boshladi. Adabiyot ilohiy ishq va ma'rifatni insonning aqli bilan emas, balki qalb oynasi orqali ko'rishni kashf etdi. Adabiyot endi Xudo va inson, olam va odam bilan bog'liq azaliy muammolarni irfoniy, ma'rifiy, tasavvufiy va ijtimoiy mezonlar asosida tahlil qila boshladi. Bu davr allomalari insonni komillikka

erishish va tavhidning mohiyatni anglash yo'lida shariat, tasavvuf, falsafa aslida yagona bir ilm ekanligini va bu yo'lda irfon (*bilish*) barchasi uchun yagona mohiyatga eltuvchi komillik va oriflik yo'li ekanligini anglashdi. Bu murakkab jarayonni tasavvuf ahli xoslar doirasida qoldirmasdan, futuvvat tashkilotlari orqali oddiy xalq ommasiga ham yoyishga o'tdilar. Natijada bu evrilishlar sekin-asta badiiy ijodga maydoniga ham ta'sir ko'rsata boshladi. Natijada bu jarayon xalq og'zaki ijodiga ham, yozma adabiyotga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolma-di. Xususan, Fors-tojik xalqlarining og'zaki adabiyoti-da "Samaki Ayyor", turkiy xalqlar og'zaki adabiyotida Nasriddin afandi obrazlari aslida futuvvat va javonmard insonlarning umumlasha obrazlari jumlasidandir.

Yozma adabiyotda futuvvat, axiylik tashkilotlarining g'oyalari ishq, saxovat, himmat masalalari bilan qorishib o'ziga xos g'oyaviy mazmun kasb etab boshladi. Natijada adabiyotda axiy, fatiy, javonmard, ayyor obrazlari shakllandi. Alaxusus, futuvvat haqida yozilgan ilmiy va badiiy asarlarda inson qalbining saxovati, mardligi keng yoritiladi. Xususan, Fariddin Attor, Jaloliddin Rumi, Nasimiy, Abdulla Ansoriy, Nizomiy, Dehlaviy va Alisher Navoiy, Husayn Voiz Koshifiylar futuvvat mavzusiga bag'ishlab, ilmiy va nasriy asarlar yaratdilar. Xususan, Alisher Navoiy javonmard, fatiy insonlarda komillikka xos sifatlarini ko'radi. Bu "Xamsa" dostoning ikkinchi dostoni sanalgan "Farhod va Shirin" dostonida yaqqol ko'zga tashlanadi. Masalan, "Hayrat ul abror" da abror insonning hayot yo'li futuvvat g'oyalari asosida yoritilgan va tub mazmuniga singdirib yuborilgan. "Xamsa"ning ikkinchi dostoni "Farhod va Shirin" da esa Farhod obrazini bosh obraz darajasiga olib chiqib, uni komil inson sifatida tasvirlaydi. Komillikning asosi esa insonning amaliy mehnati va hunar bilan shakllanishi quyidagicha tasvirlaydi:

*Hunarni asrabon netgumdur oxir,
Olib tufroqqamu ketgumdur oxir.*

Yoki:

*Jahonda qolmadi ul yetmagan ilm,
Bilib tahqiqini kasb etmagan ilm.*

Alisher Navoiy "Farhod va Shirin" dostoni markazida komil inson tarbiyasi turadi. Shariat ahkomiga qurilgan tariqat rasmi rusumlari, pir muridlik an'anasi, solik odo-bi, poklanish, tavba tazarru, zikr-u samo – hamma ham-masidan maqsad insonni komillikka yuksaltirish, ruhni yaratish, g'aybiyotning sir-u asrorini kashf etish edi. Alisher Navoiy Farhod timsolida insonni ruhiy, ma'naviy va jismoniy kamol toptirish va poklash ilmi bo'lgan fu-tuvvat orqali poklaydi. Farhodning botinidagi barcha salbiy xislatlarni nafs tushunchasiga bog'lab izohlaydi va unga qarshi jihod e'lon qiladi. Asarda temir odam, dev obrazlari nafs timsolidir. Navoiy shuning uchun in-sonning birinchi vazifasi o'z nafsini jilovlab olishi, uni mahv etishidir deb biladi. Qanoat, saxovat va himmat

bilan inson o'zining ilohiy mohiyatini va ulug'ligini anglassa, eng yomon dushman nafsi ekanligini ham anglaydi. Navoiy mazkur dostonida aynan komillikka yetishning bir yo'li futuvvat ekanligi Farhod obrazi orqali ko'rsatib beradi.

"Xamsa"ning uchinchi dostoni "Layli va Majnun" dostonida Navoiy Majnunni "futuvvat ahlidin erdi" deb ta'riflaydi. Navoiy Majnunni "ruh futuvvati"ni irfoni darajaga olib chiqadi.

Navoiyning keyingi to'rtinchi dostoni "Sab'ai sayyor"-da yetti hikoyat futuvvat g'oyalari bilan boyitiladi va bir-biri bilan mantiqiy bog'lanib, yaxlit bir kompozitsiya hosil qiladi. Navoiy hikoyatlardagi Farrux va Axiy, Zayd Zahhob, Sad, Shoh Jo'na va Ma'sud, Mehr va Suhayl,

Muqbil va Mudbir timsollari orqali axiylik, javonmardlik, saxovat va himmat masalalarini keng ochib beradi. "Xamsa"ning so'nggi dostoni yakunlovchi "Saddi Iskandariy"da esa adolatli shohning fatiyliklari va uning odamlarga ko'rsatgan saxovat va himmati tasvirlanadi. Navoiy Iskandar timsolida yuksak darajaga erishgan komil, orif, javonmard insonni mahorat bilan tasvirlaydi.

Bugungi kunda o'sib unayotgan yosh avlodning ma'naviy dunyoqarashini tarbiyalashda futuvvat nima ekanligi va bu mo'tabar ilming mohiyatini Alisher Navoiy asarlari orqali yetkazish lozim. Zero, Alisher Navoiy ijodi bir bog' bo'lsa, unga hayot berib turuvchi tuprog'i – bu futuvvat ilmidir. Futuvvatning ildizi esa pok ilohiy ishq sanaladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Zayniddin Muhammad G'azzoliy. Kimyoi saodat. T.: Kamalak, 1995. B.57.
2. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 15-жилд, с. 68.
3. Алишер Навоий. Сабаи сайёр. Нашра тайёрловчи: С.Ҳасанов. Тошкент. Ғофур Ғулом номидаги нашриёт матбаа бирлашаси. 1991.
4. Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. To'la asarlar to'plami. 10 jildlik, Toshkent matbuot axborot agentligi G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 390-391-betlar.
5. Ҳасанов С. Навоийнинг этти тухфаси. Тошкент: Ғофур Ғулом номидаги Нашриёт-матбаа бирлашмаси 1991.
6. Хусайн Воиз Кошифий. Футувватномаи султоний ёхуд жавонмардлик тариқати (Таржимон: Н.Комилов). – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси давлат илмий нашриёти, 2011.
7. Муҳаммадқозим Юсуфпур. Нақди муфтий. Техрон: Рўзна, 1380. Б:119.
8. Куръони карим. Ўзбекча изоҳли таржима. Таржима ва изоҳлар муаллифи Алоуддин Мансур. – Т.: Чўлпон, 1992.

Muxsinali XONSAIDOV,

*O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi
Boshlig'i birinchi o'rinbosari, polkovnik.*

Azimjon MAJIDOV,

*O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi Qo'shinlar kundalik foliyatini
boshqarish kafedrasini o'qituvchisi, podpolkovnik.*

PEDAGOGIK MAHORAT MAZMUN-MOHİYATI VA TAKOMILLASHTIRISH USULLARI

Annotatsiya. Maqola ofitserning pedagogik mahorati mavzusiga bag'ishlangan bo'lib, unda ta'lim-tarbiya jarayonining mazmuni, mohiyati, tarkibiy qismlari, pedagogik mahoratni oshiruvchi omillar haqida fikr-mulohazalar, taklif hamda tavsiyalar o'z ifodasini topgan.

Tayanch so'zlar: Pedagogika, ta'lim, tarbiya, pedagogik mahorat, harbiy ta'lim, ofitserning pedagogik faoliyati, pedagogik madaniyat, pedagogik mahorat mezonlari.

Abstract. The article is devoted to the topic of pedagogical skills of an officer, it reveals the contents of educational process, the essence, components, conclusions about the factors of improving the pedagogical skills of an officer, suggestions and recommendations.

Keywords: Pedagogy, training, education, pedagogical skills, military training, pedagogical activity of an officer, pedagogical culture, criteria of pedagogical skills.

Аннотация. Статья посвящена на тему педагогического мастерства офицера, в нём раскрыты содержание учебно-воспитательного процесса, сущность, составные части, выводы о факторах повышения педагогического мастерства офицера, предложения и рекомендации.

Ключевые слова: Педагогика, обучение, воспитание, педагогическая мастерства, военное обучение, педагогическая деятельность офицера, педагогическая культура, критерии педагогического мастерства.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni SHavkat Mirziyoev ta'kidlagan-

laridek, "Biz yuqori malakali harbiy kadrlar tayyorlash, o'quv-tarbiya jarayonlariga ilg'or xorijiy tajribalarni, ped-

agogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etishga bundan buyon ham birinchi darajali ahamiyat qaratamiz" [1].

Ofitserlar professional faoliyatida jangovar va ijtimoiy-siyosiy tayyorgarlikni yaxshi bilishi hamda boshqalarga namuna bo'lishi lozim. SHuning uchun har bir ofitserdan yuksak pedagogik mahoratga ega bo'lish talab qilinadi.

Ofitserning pedagogik mahorati – uning psixologik-pedagogik tafakkuri, o'z xizmat faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilimi, malakasi va ko'nikmalari hamda hissiy-irodaviy sifatleri majmui hisoblanadi.

Pedagogik mahorat ofitser shaxsining yuksak taraqqiy etgan g'oyaviy, kasbiy, axloqiy, jangovar, tashkilotchilik va harbiy pedagogga xos xislatlari bilan uyg'unlikda ta'lim-tarbiya vazifalarini muvaffaqiyatli amalga oshirish imkonini beradi.

Pedagogik mahorat – kasbiy faoliyatni yuqori darajada bajarilishini ta'minlovchi shaxsiy xususiyatlar majmui.

Bu xususiyatlar quyidagilar:

1. Insonparvarlik;
2. Kasbga oid bilimlar;
3. Pedagogik qobiliyat;
4. Pedagogik texnika [2].

Pedagogik mahorat murakkab tarkibga ega bo'lib, harbiy-pedagogik faoliyat mazmuni bilan belgilanadi. U shartli ravishda - o'qituvchi mahorati va tarbiyachi mahoratiga ajratiladi.

Pedagogik mahoratning bu elementi ofitserning o'z mutaxassisligini, harbiy ishni, psixologiya va pedagogika fanini, didaktika prinsiplarini va metodlarini, o'z o'quv fani metodikasini chuqur bilishga, boshqa fanlardan tushunchaga, keng dunyoqarashga ega bo'lishiga asoslanadi. Rus olimi Y.Kravsova ta'biriga ko'ra, ta'lim shunday jarayonki, bu faoliyatning natijasida bilimsiz sub'ekt bilimli, hech narsani eplay olmaydigan inson esa ko'p narsaga qodir shaxsga aylanadi [3].

Hayotning ob'ektiv sharoitlari, ilmiy-texnik taraqqiyot, xizmatning qisqa muddati davomida murakkab harbiy mutaxassislikni egallash, zamonaviy qurol-yarog' va jangovar texnikani o'rganish, katta axborot oqimini tahlil qilish kabi dolzarb vazifalar pedagogik mahoratni takomillashtirishning zarur shartlari sifatida ofitserdan ta'lim jarayoni psixologiyasini, askarni va harbiy jamoani har qanday sharoitda muvaffaqiyatli harakat qilishga tayyorlash qonuniyatlarini bilishni va amal qilishni talab etadi.

Tarbiyachi-ofitser mahorati askarlar tarbiyasi qonuniyatlarini, prinsiplarini, metodlarini, maqsad va vazifalarini, asosiy yo'nalishlarini bilishi va bu bilimlardan amalda to'g'ri foydalana olishi bilan ifodalanadi.

Tarbiyaviy ishda pedagog ta'sir ob'ektini, pedagogik ta'sir etish vositalarini, tarbiya prinsiplarini har tomonlama va chuqur bilsagina muvaffaqiyat qozonishi mumkin. SHuning uchun harbiy-pedagogik mahoratning yuksak

cho'qqilariga erishmoqchi bo'lgan ofitser askar shaxsi va harbiy jamoa psixologiyasini, bo'ysunuvchilarning shaxsiy xususiyatlarini, ularga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni, shuningdek, axloqiy va huquqiy normalarni, umumharbiy nizom talablarini, Mudofaa vazirining buyruq va direktivalarini bilishi va amaliy faoliyatda, kundalik turmushda qo'llay olishi lozim. O'zining ichki tarkibi bo'yicha tarbiyachi mahorati yuksak darajada rivojlangan oddiy va murakkab aqliy ko'nikmalar va malakalar, psixologik-pedagogik bilimlar asosida shakllangan va rivojlangan hissiyotlar va iroda, amaliy faoliyat va odamlar bilan muloqot davomida shakllangan xislatlar, dunyoqarash birligidir.

Ofitserning pedagogik mahoratida pedagogik texnika asosiy o'rinlardan birini egallaydi. Umumiy holda pedagogik texnika o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- a) o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish, turli tarbiyaviy tadbirlarni o'tkazish texnikasi;
- b) ofitserning o'z bo'ysunuvchilarining u yoki bu harakatlariga bo'lgan munosabatini ifodali namoyon qila olishi;
- v) nutq texnikasidan, so'zning kuchidan foydalana olish;
- g) "tarbiyaviy materiallar", ya'ni tarbiyalanuvchilar shaxsiy xususiyatlari, jamoa xususiyati va boshqalarni o'rganish va ularni hisobga olish texnologiyasi;
- d) ta'lim va tarbiyaning texnik vositalaridan, ko'rgazmali qurollardan unumli foydalanish;
- e) harbiy xizmatchilarning davomatini hisobga olish va nazorat qilib borish.

Pedagogik mahoratning tarkibiy qismlaridan biri pedagogik takt, ya'ni ofitserning har qanday, hatto konfliktli vaziyatlarda ham bo'ysunuvchilar bilan bo'ladigan munosabatida pedagogga xos bosiqlik, vazminlik va aql-idrok bilan o'zini tuta olish qobiliyati juda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ofitserdan ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va o'tkazishda quyidagi qobiliyatlar talab qilinadi:

1. Tashkilotchilik qobiliyati – bo'linma pedagogik jamoasini uyushtirish, jipslashtirish, muhim vazifalarni hal etishga ruhlantira olish va o'z ishini to'g'ri tashkil eta olish;
2. Muomala qobiliyati – bo'ysunuvchilar, boshliqlar, turli toifadagi harbiy xizmatchilar va ishchi-xizmatchilar hamda ularning oila a'zolari, askarlarning ota-onalari, jamoatchilik vakillari bilan pedagogik va psixologik nuqtai nazardan o'zaro munosabatlar o'rnatish;
3. Didaktik qobiliyati – o'quv materialini tushuntira olish, tinglovchi ongiga etkaza bilish, ilmiy izlanuvchanlik, fan va texnika yangiliklaridan ta'lim-tarbiya jarayonida unumli foydalana olish qobiliyati;
4. Kuzatuvchanlik qobiliyati – ofitserning o'z bo'ysunuvchilari va atrofidagilar ruhiy holatini, ichki kechinmalarini, ulardagi ijobiy va salbiy o'zgarishlarni seza olish qobiliyati;
5. Nutq qobiliyati – nutq yordamida o'z fikr va tuyg'ularini aniq va ravshan ifoda eta olish qobiliyati;

6. Obro' orttira olish qobiliyati – bo'ysunuvchilariga va xizmatdoshlariga o'zining amaliy faoliyatiga, xizmat burchiga mas'uliyatli munosabati, muomalasi, kundalik turmushdagi va oilasidagi ibratli xulqi orqali bevosita emotsional-irodaviy ta'sir ko'rsatish va shu asosda o'zi haqida ijobiy fikr uyg'ota olish qobiliyati;

7. Kelajakni ko'ra bilish qobiliyati – o'z faoliyatining, harakatlarining natijasini oldindan ko'ra bilish, rejalashtirish, yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni bartaraf etish yo'llarini izlab, muvaffaqiyatga erishishga ishonch qobiliyati;

Ofitserning pedagogik mahorati umumiy tarzda o'zining mezonlariga ham ega. Ular quyidagilar:

1. Pedagogik faoliyatda qo'llanilayotgan usul, vosita, shakl va metodlarining ilmiy asoslanganligi;

2. Pedagogik amaliyotning pedagogika, psixologiya va boshqa fanlar yangiliklari va yutuqlari bilan hamohangligi;

3. Uzoq vaqt davomida o'zgarib turuvchi sharoitda ijobiy natijalarning barqarorligi, dolzarbligi, optimalligi va kelajakka yo'naltirilganligi;

4. Pedagog o'zi va boshqalarning ilg'or ish tajribasini umumlashtira olishi va ommalashtirishi.

Pedagogik mahorat ko'p qirrali va keng ma'noli tushuncha bo'lib, uning shakllanishi va rivojlanishi uzoq vaqt davom etadi. Ofitserning harbiy pedagogik xislatlarini va professional-pedagogik mahoratini shakllantirish va rivojlantirish davr talabidir.

Bu jarayon o'z-o'zidan kechmaydi, uni oqilona boshqarish lozim. Har bir ofitser muntazam bilim saviyasini, dunyoqarashini, aqliy, estetik va jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirib borishi zarur. SHunda u ta'lim-tarbiya jarayonining samarali boshqarib, o'z mahoratini ko'rsata oladi.

Pedagogik mahoratining shakllanishi va takomillashuvi ofitser shaxsining professional, ijtimoiy, ruhiy va ma'naviy rivojlanishidagi qarama-qarshiliklarni engish orqali erishiladi.

Bunda eng muhim shart sifatida kasbiy shakllanish va rivojlanishning murakkab jihatlarini, ofitser uchun zarur bo'lgan sifatlarini tarbiyalash vazifalarini hal etishga xalaqit berayotgan omillarni bartaraf etish yo'llarini tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar tamonidan to'g'ri tushunishni ko'rsatish mumkin.

Ofitserning professional sifatleri, pedagogik mahorati shakllanishiga jamiyatdagi turmush tarzi, kundalik faoliyat, jamoadagi ma'naviy-ruhiy muhit va boshqa omillar ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Ofitser hayoti va faoliyatini tahlil qilgan holda, bu jarayon bir necha bosqichlarni o'z ichiga olishini ko'rsatib o'tish mumkin.

Amerikalik pedagog T.Hyuston o'z asarida shunday yozadi: *"Bizni bugun o'ylashga majbur etayotgan narsa shuki, ko'p tajribaga ega bo'lgan insonlar biror bir vazifani bajarishlari uchun nisbatan kamroq vaqt sarflaydilar. Aniq ma'lumotlarga qaraganda, inson o'zi uchun umuman noma'lum bo'lgan vazifalar uchun juda ko'p vaqt sarflashga majbur"* [4]. Bu o'rinda pedagogi tajribaning ahamiyati haqida fikr yuritilmoqda.

Ofitserlarda harbiy-pedagogik xislatlar shakllanishi va rivojlantirilishiga ular oliy harbiy o'quv yurtida o'qish davrida asos solinadi. Kursantlarda bo'lajak harbiy-pedagogik faoliyatga nisbatan qiziqish shakllantiriladi. Bu davrda harbiy profesional pedagogik faoliyat, ta'lim-tarbiya ishlari jarayoni metodikasi barcha masalalari bo'yicha zarur bilim asoslari beriladi, boshlang'ich malaka va ko'nikmalar shakllantiriladi.

Ofitserlar pedagogik mahoratini takomillashtirishda ularning harbiy qismlardagi xizmat faoliyatini amalga oshirish jarayoni muhim o'rin egallaydi. Ofitser xizmatining birinchi yillari ularning o'qituvchi va tarbiyachi sifatida shakllanishidagi muhim va mas'uliyatli davri hisoblanadi. CHunki u endi egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini amalda qo'llashi lozim bo'ladi va buning uchun shaxsiy javobgarligini his etadi.

Amerikalik pedagog Bell Huks ta'kidlaganidek, mehribon ustozlar doimo o'zgarib turuvchi bilimlar olamini zabt etish uchun talabalari aqlini rivojlantirib boradilar [5].

Ofitserning pedagogik mahoratini takomillashtirish uchun:

1. Ofitserlarni zarur bilimlar bilan qurollantirish;

2. Turli vositalar va metodlar yordamida ofitser shaxsiga maqsadli va tizimli pedagogik ta'sir ko'rsatish;

3. Harbiy qismdagi xizmat va turmushni harbiy nizom talablari asosida tashkil etish;

4. Ofitserning o'z bilimlarini, umumiy madaniy saviyasini, harbiy pedagogik mahoratini oshirish maqsadida o'z ustida mustaqil ishlashi, o'z tajribasini oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish va boshqalar.

Ofitser mahorati pedagogik jarayonning natijasiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. CHunki ta'lim-tarbiya o'zaro munosabatlarga asoslanadi. Harbiy pedagogning shaxsiy qiyofasi, zehni, ichki hissiyoti, topqirligi va boshqa shu kabi sifatleri pedagogik san'atning o'zagi sanaladi. Bilim va qobiliyatlarga asoslangan ofitserning pedagogik mahorati barcha yutuqlar garovidir. Ko'pincha mashhur insonlarning nomi tilga olinganida ularning ustozlari ham eslab o'tiladi. CHunki, ustozning shaxsi ta'lim jarayonida birinchi o'rinda turadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

Mirziyoev SH. YAngi O'zbekiston strategiyasi. – T.: "O'zbekiston", 2021. 224-b.

Nasirov K.J. Pedagogika.Psixologiya. Darslik. –T.: OHBI, 2017. 111-b.

Kravsova E. Pedagogika i psixologiya. – M., 2009. Ctr. 11

Therese Huston. Teaching What You Don't Know. Boston. Harvard Press, 2009. P.47.

Bell Hooks. Teaching Community: A Pedagogy of Hope. – New York. Routledge, 2008. P. 92.

Malika Suyunova
ToshDO'TAU adabiyotshunoslik
mutaxassisligi magistranti

IJODKOR VA JONLI XALQ TILI

Annotatsiya. Ushbu maqola badiiy asarning asosiy komponentlaridan biri bo'lmish jonli xalq tili xususidadir. Badiiy adabiyotda yozuvchi va shoirlar tomonidan qayta ishlangan til va jonli xalq tilining badiiy adabiyotga ko'chishi haqida fikr-mulohazalar beriladi.

Kalit so'zlar. Jonli xalq tili, badiiy asar tili, dialektizm, badiiy nutq, badiiy asarda individuallik.

Annotation. This article is about the living folk language, which is one of the main components of a work of art. In fiction, feedback is given on the language processed by writers and poets and the migration of a living folk language into fiction.

Key words. Lively folk language, the language of a work of art, dialectism, artistic speech, individuality in a work of art.

Аннотация. Эта статья о живом народном языке, который является одной из главных составляющих художественного произведения. В художественной литературе дается обратная связь о языке, обработанном писателями и поэтами, и о миграции живого народного языка в художественную литературу.

Ключевые слова. Живой народный язык, язык произведения искусства, диалектизм, художественная речь, индивидуальность в произведении искусства.

Jahon xalqlari tarixiga nazar tashlarkanmiz, bar-chasining o'ziga xos rivojlanish davri borligini ko'ramiz. Ko'pchilik xalqlarning millat darajasiga ko'tarilishining asosiy omillaridan biri, albatta, ularning o'z tili mavjud ekanligidir. Antik davr adabiyotida yunon va lotin tili il-miy va badiiy adabiyotlar tiliga, shuningdek, jamiyatning barcha tabaqalariga birdek kirib bordi. Ular o'z tillari vo-sitasida madaniyatini yoyish uchun uchun yillar, asrlar davomida kurashlar olib bordi. Tarixda "Ellinlashtirish" deb nom olgan bu davr bizning hududlarimizda ham kurtaklarini yozdi. Aytmoqchi bo'lganimiz shuki, xalq tili millat o'zligining oynasidir. Agar millat keng quloqch yoyimoqchi bo'lsa, albatta, o'z tilini asramog'i, hech bir ziyon-zahmatlarsiz o'zidan keyingi avlodlarga yetkaz-mog'i lozimdir.

Jahon xalqlari adabiyotiga nazar tashlasak milliy tilni o'z asarlariga singdirib, xalqqa o'zining asliyatini ko'zgu qilgan buyuk siymolar bisyor. XII asr Yevropada xalqqa yaqin bo'lgan italyan adabiy tilining asoschisi Dante Aligeri hisoblansa, XV asrda turkiy tilning naqadar boy va serqirra ekanligini Alisher Navoiychalik sinchkovlik bilan isbotlay olgan olim kam topiladi. Aynan shu davr-da fransuz yozuvchisi Fransua Rable ham o'zining "Gargantuya va Pantagruel" romani bilan fransuz ti-lining mustaqil taraqqiyoti uchun kurashlar olib bordi¹. Xalq badiiy tili atamasining nazariy asoslari shu kunga qadar to'la va chuqur ishlab chiqilmagan badiiy asar-ni butun bo'y-bastini namoyon qiluvchi tilning ichki imkoniyatlari ijodkor ong va hissiyotlar tug'yonidan vu-judga kelgan asarni qog'ozga to'kish uchun yetarlimi yoki ijodkorning lison imkoniyatlarini bilish darajasi qan-day. A. Tolstoyning xalq tili haqida yozgan quyidagi so'zlarini eslash o'rinli: «...Xalq so'zlashadigan tilda yozuvchi ifodalamoqchi bo'lgan hamma tovushlarni berish imkoniyati bor, - men shunisini yaxshi ko'raman.

Bundan tashqari, eng muhimi shuki, xalq tili eng yax-shi badiiy regulatordir. Xalq tili ortiqcha, jimjimador, shishirilgan narsalarni aytmoqchi bo'lganida ham aytgani qo'yamaydi². Aynan mana shu hodisa jonli xalq tilining asl qiymatini belgilovchi vositadir. Shu o'rinda savol tug'iladi. Xalq badiiy tili unsurlariga nimalar kira-di, badiiy asar tili qaysi mezonlar asosida baholanadi? Zero, asarning tili yozuvchi so'z tanlash va so'z qo'llash mahoratining bosh mezoni sanalishini yuqorida ta'kid-lab o'tdik.

Ko'pchilik ilmiy va nazariy manbalarga tayangan holda xalq badiiy tili unsurlari sifatida quyidagilarni kiri-tish mumkin:

Shevalar va dialektizmlar

Ma'nodosh so'zlar

Zid ma'noli so'zlar

Ko'p ma'noli so'zlar

Iboralar

Maqol va matallar

Onomastik birliklar

Ohang

Qochirim va latifalar

Tag ma'no va kinoyalar

Tasviriy ifodalar

Qarg'ish va olqishlar

O'ziga xos dialog va monolog shakllari

Bu til unsurlarining barchasi bir bo'lib, jonli xalq ti-liga birlashadi va ular davrlar osha sayqallanib boradi. Badiiy asarda hayotiylikni ta'minlash uchun albatta, jonli xalq tili uning asosiy tirtagi bo'lmog'i lozim. Sheva ele-mentlari buning eng oshkora usulidir. Ammo jonli xalq tili deyilganda, faqatgina shevani tushunish noo'rindir. Adabiyotshunos olim va ijodkor Pirmqul Qodirov bunga quyidagicha fikr bildiradi: "Ba'zilar jonli xalq tili degan-da faqat shevalarnigina ko'zda tutadi. Holbuki, yetakchi

shevalar sintezidan tarkib topgan va har bir madaniy xalqning ko'pchilik vakillari orasida aloqa quroli bo'lib xizmat qiladigan milliy til ham borki, uni jonli xalq tiliga qarshi qo'yish mumkin emas. Ba'zilar, aksincha, adabiy til bilan xalq tilini bir-biriga butunlay Qo'shib yuborishga moyillik sezadilar. Bu nuqtai nazar ayniqsa tarixiylik printsipiga to'g'ri kelmaydi. Chunki hali milliy tillar shakllanmagan davrlarga nazar tashlasangiz, xalq tili bilan yozma adabiyot tili orasida juda keskin farqlar bo'lgani ko'rasiz. Jonli til bilan fan tili, idora tili, matbuot va badiiy adabiyotdagi avtor tili orasida bugun ham Ma'lum farqlar mavjud"³. Jonli xalq tili asosan, nasr va dramaturgiyada yaqqol ko'zga tashlanadi. Nazmda ijodkorning o'ziga xos individual so'z qo'llash mahorati asosiy o'rin egallaydi.

Badiiy asar tilidagi ekspressivlik, badiiylilik poetiklikni ta'minlash maqsadida nasr va dramaturgiyada ham ijodiy individuallik bo'ladi, albatta. "Ijodda individuallik roli ortgan sharoitdagi janr kanonlarini tugal belgilab bo'lmaydi. Shu bois ham ta'rif va tasnifda har bir janrga xos eng umumiy belgilarni asosga olish bilan qanoatlanishga to'g'ri keladi. Bunday umumiy belgilar sifatida esa asarning adabiy turga mansubligi, asosiy estetik belgisi, kompozitsion xususiyatlari, tasvir ko'lami, badiiy nutq shakli va tabiati kabilar ko'rsatilishi mumkin"⁴.

«Haqiqiy so'z san'ati, - deb yozgan edi M. Gorkiy 1930-yilda, - hamisha juda tushunarli bo'ladi, ko'zga aniq ko'rinib turadi, odamga tirik narsaday ta'sir qiladi. Shunday yozish kerakki, so'z bilan tasvirlangan obrazni kitobxon ushlab ko'rish mumkin bo'lgan narsaday aniq ko'ra olsun. Bunday mahoratga yozuvchi o'zi tasvirlagan narsani a'lo darajada bilgandagina erishishi mumkin. Agar yozuvchi noaniq, chalkash tilda yozsa, tasvirlagan narsasini o'zi aniq ko'rmagan bo'ladi. Agar juda jimjimador yozsa, bu uning nosamimiy yozganini bildiradi. Agar yozuvchi tasvirda ezmalik qilsa, bu ham uning aytmog'chi bo'lgan gapini o'zi yaxshi tushunmaganini ko'rsatadi». Buyuk rus ijodkorining bu fikrlari ayni haqiqatdir. Turli tasvirlardan iborat til qalamlaridan foydalanib u bilan qog'ozga turli go'zal tasvirlar ishlash mahorati yozuvchi yoki shoirning salohiyatiga bog'liq hodisadir. Til qanchalik boy bo'lmasin, ijodkor so'z xazinasi kambag'al bo'lsa, asar o'z qiymatini yo'qotadi yoki yozuvchi so'z boyligi ko'p bo'lib so'z qo'llash mahorati bo'lmasa badiiy asar yana o'z qiymatini yo'qotadi. Demak, ijodkor mahorati birlamchi bo'lgani holda, jonli xalq tili esa badiiy asarni hayotiyiligini ta'minlaydi.

Tildagi sun'iylik, qo'shtirnoq ichidagi madaniyatlilik, kitobiylik va xalqqa begonalik badiiy asarni kitobxondan uzoqlashtirishi mumkin. Ijodkor xoh u nosir bo'lsin, xoh shoir bo'lsin, xoh dramaturg bo'lsin u oddiy xalq yaratgan til boyliklarini bilishi ulardan to'g'ri va unumli foydalana bilishi lozim. O'zga millatlarga, madaniyatlarga



taqlid qilish orqali tilning sun'iy lashishga yo'l qo'yayotgan ko'pchilik ijod ahlini biz tilning, adabiyotning xizmatchilari deya olmaymiz. Badiiy asar obrazlari sifatida jamiyatning har bir tabaqasi qatnashishi mumkin, har bir qatlamining hayot tarzi xususida so'z borishi mumkin. Demakki, tilning bor imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanish lozimdir.

Xulosa qilib aytganda, xalq tili masalasi adabiyotshunoslikning asosiy o'rganilish obyektlaridan biridir. Xalq tilida millatning turmush tarzi bilan bog'liq barcha so'zlar ularning turli ma'no ottenkalari aks etadi. Adabiy til imkoniyatlari esa bu borada cheklangan. Badiiy xalq tilining turli ma'no qirralari badiiy asar qiymatini yanada oshiradi, uni xalqqa yaqinlashtiradi, xalq bilan yashatadi chunki xalq tili o'lmaydi. U xalqimizning bozorlarida, to'ylarida, yig'inlarida, oddiy suhbatlarida har o'zbek millatiga mansubman degan odamning ichida mavjud. Leksikasining boyish manbasi aslida o'sha xalq tili, bu til faqatgina bozorlarda, to'y-xashamlarda qolib ketmasligi kerak. Badiiy adabiyotga ko'chib, ommaviy madaniyat ta'sirida yevropa tillarini keng iste'molchisiga aylanayotgan yosh avlodning badiiy didini, xalqning milliy ruhini uyg'otishi kerak.

1. Qodirov P. Xalq tili va realistik proza. Toshkent., 1973

2. Ziyouz.com kutubxonasi

3. Qodirov P. Xalq tili va realistik proza. Toshkent., 1973

4. Quronov D. Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslari. Toshkent., 2018

Xursandbek TO'LIBOEV,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Nukus davlat pedagogika instituti

ROMANIY TAFAKKUR TADRIJIDA MIFOPOETIK TALQIN O'ZIGA XOSLIGI

Annotatsiya: Maqolada istiqbol davri o'zbek romanchiligidagi sifat o'zgarishlari, poetik talqin barqarorlashuvi, mifopoetik tasvir imkoniyatlari kengayotgani xususida fikr yuritiladi. Unda shaxs va xarakter uzviyligi, ijodkor badiiy konsepsiyasi yaxlitligi muayyan darajada qalamga olinadi.

Tanyach so'zlar: syujet, kompozitsiya, mifopoetika, talqin, xarakter, personaj, g'oya, shakl va mazmun.

Abstract: The article focuses on the quality changes, the stabilization of poetic interpretation, the expansion of the possibilities of mythopoeic images in the Uzbek novel during the independence period. In addition, in this article written about the unity of personality and character, the integrity of the creative artistic concepts.

Key words: plot, composition, mythopoeic, interpretation, character, personage, idea, structure and content. article written about the unity of personality and character, the integrity of the creative artistic concepts.

Аннотация: В статье речь идет о качественных изменениях, показываемых в узбекской романистике периода Независимости, о постоянстве поэтического толкования, расширении возможностей мифопоэтического изображения. В ней в определенной мере описаны непрерывность личности и характера, единство художественной концепции писателя.

Ключевые слова: сюжет, композиция, мифопоэтика, толкование, характер, персонаж, идея, форма и содержание.

Ijodkor badiiy konsepsiyasi hamisha xolislikka intiladi. Vaholanki, har bir asarda bir-biriga nisbatan raqobatda turadigan dunyoqarashlar turfaligi mavjud. Darvoqe, mantiqan bog'langan badiiy konseptuallikda ham davr ruhiyati, ham muallif shaxsiyati, ham qahramon individualligi aralashib ketadi. Unda ijtimoiylashgan mohiyatning falsafiy-ma'rifiy-axloqiy asoslari tipiklashadi. SHartlangan tizimda faoliyat, dunyoqarash, ong va tuyg'u tahlil va talqin adabiy qamrov evrilishlarini hosil qiladi.

Mifologik tabdilda "faol va nafaol ong shakllari mavjud. Ko'nikma bu nafaol bilim, biroq ong tarixi va anglash taraqqiyoti turfa hodisalar sanaladi. Dialogik nuqtai nazardan, so'z inson oliy asab faoliyati haqida borayotir; ijtimoiy-ruhiy omillar jamoatchilik intizomin-ing ishlab chiqarishdan holi jarayonlaridan iborat. Inson ijtimoiy ongi o'z ichiga ta'sirning aqliy va hissiy hamkorligi kengligini qamraydi, shartlilik va shartlanganlik xususiyatlarini dalolatlaydi"¹. SHundan kelib chiqib aytish mumkinki, mifologik tafakkurda *materiya-pozitsiya-g'oya* tig'izligi kuzatiladi. Aynan muammoning moddiylashuvi adabiy mohiyatga yo'llanma vazifasini bajaradi. Tuyg'uning bilvosita va bevosita ongda reallashuvi ifoda taraqqiyotini ta'minlaydi. Mohiyatan mavhumlikdan aniqlikka ko'chadigan mifologik obraz badiiy vazifadoshlikka xizmat qiladi. Janr ma'nosi bilan tagmatn muvofiqligi muallifning asosiy mushohadalarida aloqadorlik kasb etishi barobarida, adabiy mantiqning erkinlashuviga sharoit tug'diradi. Binobarin, ijodkor iroda yo'nalishi hamda g'oyaviy tanlov nisbati istiloh mag'zini tayin etadi. Unda ko'rgazmalilik va sharh badiiy munosabatlarni shakllantiradi. Romaniy tafakkurda asotiriy

muhokama jamiyatning sharoit taqozosidan oziqlanadi. SHu nuqtai nazardan, SH.Bo'taevning "SHox" romani-da epik maydon tarixiy zamonaro cheklovlarga barham berib, insoniyat taraqqiyotining muhim bosqichlarini qamrab oladi. Tasavvur timsolidan tushuncha tafakkuriga siljiydigan adabiy mushohadada ijodkor mavqei qabarib ko'rinadi:

"Janob Ximer ko'k kitobni yopib joyiga qo'yarkan, ko'kish alanga tushirilgan tasvirga boqib:

– Lahzada va abadiyan! – deya shivirladi qasamyod so'zlarni takrorlayotganday. Bu choqda qabulxonada ekspertlar guruhi yig'ilishgan edi. Doktor Rabinovich ham kirib keldi, uning ko'rinishi g'alati edi, egnida ancha paytlardan buyon dazmol ko'rmagan kostyum-shim bor edi. Uzun jingalak sochlari to'zg'ib, goh u tomonga, goh bu tomonga tushib turgani uchun, boshining qaysi qismi kal ekanligini ham bilib bo'lmadi. Qovoqlari shishgan, qizarib turgan ko'zlari tevarak-atrofga jonsaraklik bilan boqar, ba'zan bir nuqtaga qadalgancha qotib qolar, ko'rayotganini ko'rib ko'rmayotganga o'xshar edi.

Yig'ilganlarning ba'zilari bilan u juda quyuq so'rashdi.

Ba'zilarning uzatilgan qo'llari havoda qoldi.

Yo'q, u shaxsiy munosabat tufayli bunday qilmadi. Doktor Rabinovichda shaxsiy munosabatning o'zi yo'q edi. To'g'rirog'i, bu haqda bosh qotirishga, buni o'ylashga fursati bo'lmadi.

Qabulxonaning deraza tokchasida tuvakdan o'sib chiqib, shipga etgan chirmovuqqulning nima-sidir uni qiziqtirib qoldi, unga andarmon bo'lib, uzatilgan qo'llarni-da, tevarak-atrofni-da unutdi, qo'ydi. CHirmovuqqulning nimasi qiziqtirib qolgani uning yolg'iz o'ziga-yu xudogagina ayon edi, xolos"².

“Lahzada va abadiyan” shiori ostida birlashgan “Ko’k alanga” shirkati turfa darajadagi manfaatdor kuchlarni birlashtiradi. Ekspertlar guruhi orasida doktor Rabinovich alohida ajralib turadi. Butun hayotini ilm-fan yo’liga tikkan qahramonning ko’rinishi ham g’alati: egni-da ancha paytlardan buyon kiyilayotgan kostyum-shim, uzun jingalak sochlari to’zg’in, qovoqlari shishgan. Unda hatto shaxsiy munosabatning o’zi yo’q. SHifokor qiyofasida g’alati ziddiyat kuzatiladi: bir tomondan, u jamoatchilik manfaatlarini hamisha ustun qo’yadi, ikkinchi tomondan, personaj tabiatida odamzodga nisbatan cheksiz nafrat tajassum topadi. Mavjud jihatni faqat kasbiga e’tiqod qo’ygan mutaxassis hamda inson vujudini ulkan zulmatgoh deya, ishongan xodim zichligidan iborat shaxsga mengzash mumkin. Doimiy tarzda tajriba va kashfiyotlar o’tkazayotgan doktor Rabinovichning ko’ngli nozik odam.

Badiiy tizim “qadimiy go’zal tafakkur mahsullari zaminida maydonga kelib, shakllangan. Tashqi olamning fantastik in’ikosi inson tafakkurining rivoji, e’tiqodiga bog’liq tarzda mazmunan boyigan. Mifologiya real hayotga yaqinlashgan sari uning obrazlari hayotiylik kasb eta borgan... kuzatishlar shuni ko’rsatadiki, har bir muallifgina emas, bir muallifning turli asarlarida o’ziga xos betakror - g’oyaviy-badiiy uslubdan foydalanilgan. SHu tariqa adabiyotimiz go’zal fikrlar hisobiga ham, nozik va yorqin ma’nolarga ham boyib, shaklan rang-baranglik kasb etib borgan. Biroq mifologik libosdagi adabiy shakllarga faol murojaat qilish barcha davrlar adabiyotiga xos xususiyatdir. Muhimi, mavjud an’anani g’oyaviy-badiiy, shakliy-uslubiy jihatdan davr hayoti hamda zamonaning dolzarb masalalariga uzviy tutashtirish, poetik ijod imkoniyatlarini tag’in-da kengaytirishda mahorat ko’rsata bilishdir”³. Binobarin, ifoda aniqligi va tasvir ta’sirchanligini aynan uslubiy birliklar emas, balki turfa usullarni mohirlik bilan payvandlay olish bilan ham belgilanadi.

Odamzodning shaxsiy mayli, ijtimoiy mas’uliyati doimo ziddiyatlar zanjirini hosil qilgan. Mavjud muammolar zalvori odamzod tafakkuri va ruhiyati tadqiqotiga tuta-shadi. SHu ma’noda, reallik bilan illyuziyaning bir-biriga qorishib ketishini hayotiy ehtiyoj hosilasi sifatida baholash maqsadga muvofiq. Negaki, tipik sharoit janrning takomillashuvini, uslubiy vazifadoshlik muntazam yangilanishni tayin etadi. Mazkur yangilanish umuminsoniy g’oyalar, badiiy ifoda, shartli kiritmalar hamda mifologik talqin yordamida yuzaga chiqadi.

Umuman, istiqlol davrida borliqni estetik anglash, umumlashtirish hamda baholash mezonlari ancha kengaydi. Xususan, milliy romanchilik taraqqiyotida yangicha falsafiy qarashlar ta’siri adabiy tafakkur yuksalishi va qadriyaviy me’yorlar teranlashuvi kuzatiladi. Unda tasavvuf estetikasi, mumtoz an’analar hamda mifologik tabdil tig’izligi namoyon bo’ladi. O’zgarayotgan janr etakchi tamoyillarini ham milliy, ham jahoniy andozalar tayin etayotganligi kiritma-usulining ehtiyojini oshiradi. SH.Bo’taevning “SHox” romanida mifologik talqin real voqelik mohiyatini ichdan yoritadigan vositaga evrildi. Asosan, G’arb tasvir an’analariga tayangan muallif qadimgi yunon asotirlari (Zevs, Prometey, Afina), olam va odam yaratilishi bilan bog’liq ibtidoiy qarashlar (iblis, xannos, janob Ximer) hamda yangicha ijtimoiy munosabatlarni (Hotam, Qulmahmud, Larisa Ziganshina, doktor Rabinovich, opa) ifoda markaziga yig’adi. Bir-biriga nisbatan to’ldiruvchi mohiyat kasb etadigan tafsilotlararo badiiy batartib-lilik asarning jiddiy muvaffaqiyatini ta’minlaydi. O’z mohiyatidan uzoqlashayotgan inson fojeasi asar g’oyaviy leytmotivini belgilaydi. Badiiy kiritmalar, asotiriy syujet chiziqlari diniy-ma’rifiy konstruksiyalar, odatda, tuyg’ular realizmini asoslashga xizmat qiladi. Zero, unda tasavvurlararo tug’ilayotgan badiiy idrok yangilanishi aniq namoyon bo’ladi.

1. Фрейденберг О.М. Миф и литература древности. – М.: Главная редакция восточной литературы. 1978. –С. 18.
2. Ёўтаев Ш. Шох. –Т.: А.Навоий номидаги миллий кутубхона. 2006. –Б. 122-123.
3. Ёқубов И. Бадий-эстетик сўз сехри. – Т.: ТДПУ. 2011. – Б.14-15.

Iroda ASATJONOVA,
UrDU talabasi

OYDIN HOJIYEVA TO’RTLILIKLARIDA G’OYA VA IDEALLAR TAHLILI

Annotatsiya. Ushbu maqolada shoira Oydin Hojiyeva she’riyati haqida ma’lumot beriladi. Shoira she’rlarining mavzu ko’lami, obrazlar olami tahlil qilinadi. Shuningdek, shoiraning to’rtliklar yaratish mahorati she’rlari tahlili orqali oydinlashtiriladi. Oydin Hojiyeva to’rtliklarning tahlili shuni ko’rsatadiki, she’rlarining ruhi va ohangini, mazmuni

Annotation. This article provides information about the poetry of the poet Aydin Khojiev. The scope of the subject and the world of images of the poet’s poems are analyzed. Also, the poet’s ability to create quatrains is clarified through the analysis of her poems. Aydin Khojiev’s analysis of the quatrains shows that universal thoughts

Аннотация. В данной статье представлена информация о поэзии поэтессы Айдын Ходжиевой. Анализируются тематика и образный мир стихотворений поэта. Также через анализ ее стихотворений выясняется умение поэтессы создавать четверостишия. Анализ четверостиший Айдын Ходжиевой показывает,

va yo'nalishini, avj pardasini, maqsad, g'oya va ideallarini umuminsoniy fikr va tuyg'ular belgilaydi. Shu ma'noda, Oydin Hojiyeva to'rtliklari haroratini ta'minlagan omil ham undagi jo'shqin va faol insonparvarlik, poetik timsol, go'zal tuyg'ular olamidir. Maqolada shoira she'riyatining aynan shu jihatlari o'z ifodasini topgan.

Kalit so'zlar: lirik kechinma, murakab davr, mavzu ko'lami, poetik timsol, mavzu, g'oya.

and feelings determine the spirit and tone, content and direction, climax, goals, ideas and ideals of her poems. In this sense, the factor that ensures the warmth of Aydin Khojjeva's quartets is her enthusiastic and active humanitarianism, poetic symbolism, and the world of beautiful feelings. These aspects of the poet's poetry are expressed in the article.

Key words: lyrical experience, complex period, subject scope, poetic image, theme, idea.

что универсальные мысли и чувства определяют дух и тон, содержание и направленность, кульминацию, цели, идеи и идеалы ее стихов. В этом смысле фактором, обеспечивающим теплоту квартетов Айдын Ходжиевой, является ее восторженный и деятельный гуманизм, поэтический символизм, мир прекрасных чувств. Эти аспекты поэзии поэта выражаются в статье.

Ключевые слова: лирический опыт, сложный период, тематика, поэтический образ, тема, идея.

Taniqli o'zbek shoirasi. Oydin Hojiyeva she'riyatida davrimizning haqqoniy ifodasi, o'ziga xosligi, zamon-doshlarining qalbi va harakatining yorqin tasviri namoyon. Shoira she'rlarining elaro mashhurligi tasodifiy emas. Oydin Hojiyevaning olijanoblik, jasorat, haqqoniy xalq g'ururi, tabiat va insonga nisbatan samimiy tuyg'ular va hurmat, boy ranglar va kutilmagan yangi timsollar bilan bajarilgan lirikasi, kitobxon qalbini larzaga keltiradi, insoniyatning kelajakka bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi. "Qirq yildan ortiq ijodiy faoliyatida u jozibador, teran insoniy dard bilan sug'orilgan she'rlarni ko'plab yaratdi – ularni bir joyga jamlasa, bemaolot to'rt jildga joylashadigan kitob bo'ladi"

Oydin Hojiyeva lirikasi teran tafakkur va jo'shqin hissiyot vobastaligidan hosil bo'lgan she'riyatdir. Shoira lirik qahramoni ko'pda yuksak intellekt sohibasi ekanligi sezilib turadi. U biroz o'ychan, ba'zan falsafiy, ba'zida esa jiddiy va ta'sirchan. Shoira ma'naviy-ruhiy izlanishlarida, poetik timsol yaratish jarayonida his-tuyg'ular manzarasi, kechinma tarangligi, o'tkir dramatik vaziyat va kolliziyalar bo'rtib turadi. Unda makon va zamon chegarasining qamrovlari keng, o'tmish, bugun va kelajak voqeligi inson taqdiri, ertasi bilan esh tasvirlanadi.

Xudoyim rizqingni o'lchab beradi,
Moslab bichib berar bo'yingga libos.
Kimga – mo'l-ko'l, kimga – tejab beradi,
Boriga shukur qil, dema ko'pu oz...

Rizqni faqat Alloh beradi, Rizq Allohdan deyishni hammamiz bilamiz. Ammo, vaqti kelsa rizq masalasida ikkilanib qolamiz.

Aniq ishonch bilan Allohga tavakkul qila olmaymiz: maosh vaqtida berilmasa, huddi shu maoshsiz och qoladigandekmiz, qandaydir mablag'ni ko'zlab biror narsa xarid qilmoqchi bo'lsang-u, shu mablag' qo'limizga kelmasa, o'zimizni qo'yishga joy topa olmaymiz, "yog'liqqina" joyda ishlasak, xatto ibodatimizga halaqit bersa ham baribir bu ishdan bo'shamaymiz, chunki bunaqa ishni yana qayerdan ham topamiz?! Oydin Hojiyeva ham she'rda Alloh taolo har bir bandasiga rizqini taqsimlab beradi, huddi rizq insonni bo'yiga moslab tikilgan libosdek. Ya'ni Haq taolo kimgadir mo'l-ko'l

qilib beradi, kimgadir esa kam beradi. Lekin inson shunday yaralganki, boriga shukur qilmaydi. Ko'p nolinadi, har narsadan norozi bo'ladi. Shuning uchun qadimdan "Boriga shukur qiling" degan naqlar xalq orasida ko'p tarqalgan.

Chinni piyolangiz kungrasida,
Bitilgan muhabbat baytiman ayting.
Tanglayim ko'tarib tong qo'rasida,
Bir hovuch nur qo'shgan ismimga xalqim.

Millat, xalq tushunchalari shoira ijodida ustuvor ahamiyat kasb etadi. Millat bu – tarbiyasi va tili bir – umumiy bo'lgan odamlardan iborat madaniy-ma'naviy kategoriya. Kishi yon-atrofidagi istagancha odamlar bilan emas, balki o'zi bilan bir ona til va bir xil tarbiyaga ega odamlar bilan yashashni istaydi. Zero, inson shaxsi uning taniga emas, ruhiga taalluqlidir. Bizning moddiy, jismoniy xususiyatlarimiz irqimiz bilan bog'liq bo'lsa, bizning ruhiy-ma'naviy sifatlarimiz biz tarbiyalangan jamiyatda shakllanadi. Xalqning merosiy ma'rifati va merosiy madaniyati zamon-zamonlar osha boshqa xalqlarning madaniyatlari va udumlari bilan boyib, oqibat uzluksiz taraqqiy qilib boruvchi milliylik vujudga keladi.³

Millat – xalqning madaniy-ma'rifiy o'ziga xosligidir. Milliylik millatning o'ziga xosligidir. Millat ham, milliylik ham o'z doirasida o'zgarib, yangidan yangi sifat belgilari topib boradi. Millat, xalq, mafkura atamallari biz uchun aniq tushunchalar hisoblanadi. Bu tushunchalar mohiyatida shoiraning nafis va inja tuyg'ulari o'z ifodasini topgan. Ijodkor xalqini sevadi, shu millat vakillarini ardoqlaydi, ularga cheksiz ehtirom ko'rsatadi. Quyosh chiqqan mahalda tashqariga chiqqan shoira ismiga bir hovuch nur qo'shgan xalqiga alyor aytadi. Shunday xalqi, millati borligidan doimo tanglayini ko'tarib yuradi, hamdlar aytadi.

Yaxshigni oshirgan mehribon eling,
Yomonning yashirgan mehribon eling,
Shamolgaroning ham – soyabon eling...
Ko'ksingga el kabi tumor qaydadur?

She'rdagi samimiyat va teranlik dalolat berib turibdi, bu otashin misralar muayyankular to'liqida tug'ilgan bo'lsa-da, o'sha kunning o'zida umri tugaydigan yengil-yelpi satrlar emas – ular boqiylikka daxldor baytlardir. She'rda shoira xalqiga ta'rif berib, dagi olijanoblik pardasi ostida zuhur etadigan yuvoshlik, xokisorlik sifatlarini sanaydi. Bu xalq "yomonni yashirib, yaxshini oshiradi"

O'zing to'rt yonga olma,
 Shoxing sinib qoladur.
 Shoxi sinib qolganlar,
 El ichinda oladur.

Ushbu to'rtlik "Birlashgan o'zar, birlashmagan to'zar", maqoliga monand. Shoira Oydin Hojiyeva ko'pchilik to'rtliklarida xalq maqollaridan andoza olgan. O'zingni to'rt tarafga olma, xalq ichidan qochma. Shoxing, qanoting sinib qoladi. Shoxi singan, ya'ni xalq ichidan ajralgan odamlar, el ichida o'ladur. Ya'ni xalqdan umrbod ajralib qoladi.

Agarchi Jamshidsan bazmi shohona,
 Mezbonsan mehmoning shohu devona.
 Bo'y baravar tillo sochsang-da, bormas,
 Ko'ngli qolgan odam topgay bahona.

Agar Jamshid payg'ambardek mezbon bo'lib shohona bazm uyushtirib mehmoning shoh, devona bo'lsa ham, sendan ko'ngli qolgan odamni ustidan bo'yi baravar oltin-kumush sochsang ham bahona topib uyingga bormaydi. Ko'ngil ishi og'ir. Ko'ngil – bag'rikenglik oftobi. Unda taft, harorat, dard, tug'yon, ichki o'y-kechinma, ehtiros-u armon, umidvorlik mujassam... Ko'ngil shod

bo'lsa, botinga sig'maydi. Ko'ngil xafa bo'lsa, uni botindan topolmay halaksan, kishi. Ko'ngilning yupanchi – ilm, fazilat, jasorat, mehr-oqibat, do'stlikdadir.

G'amgin hayollaring jismiga joylab,
 Kechalar qush kabi chiqqillar tumor.
 Ko'zi ko'r sevgining yo'lini poylab,
 Hech bir qiz bo'lmagan senday intizor.

Shoira go'zal hayotning muayyan tomonini badiiy tadqiq qilar ekan, u asosiy e'tiborini inson qalbida kechayotgan ziddiyatlar, tuyg'ular tovlanishini ifodalashga qaratadi. U inson ruhiy olamini rang-barang ko'rinish vaziyatlarda badiiy tadqiq etib, shu orqali uning yaratuvchilik, bunyodkorlik hamda borliqdagi barcha sodir bo'lgan, bo'layotgan voqealarga mas'uliyat hissini oshirishga intiladi. Inson qalbi va tabiat tovlanishlarining ma'nosi nozik kuzatishlar va teran falsafiy umumlashmalar uchun katta imkoniyat yaratadi. Xayol obrazi vositasida shoira hayot go'zalligini, tinchlik, osoyishtalikni, insonlarning quvonchini, orzu-intilishlarini ko'radi.

Osmon egiladi boshimga jim-jim,
 Afsona aralash sirlari sim-sim.
 Yulduz boshloqlarin tera boshlarman,
 O'yning kokillarin o'ra boshlarman.

Tabiat go'zalliklaridan behad chuqur hayajonga tushish, o'z tuyg'ularini tabiatdagi tovlanishlar surati orqali berish Oydin Hojiyeva ijodiga xos xususiyatlaridan biridir. Shoiraning hayot haqidagi falsafiy fikrlari lirik kechinma yo'nalishi hamda tabiat tasviri bilan hamohang teranlashib, tiniqlashib boradi. Oydin Hojiyeva to'rtliklarida insonni sevis, ardoqlash, tabiatni, Vatanni e'zozlash g'oyalari bilan birlashib ketadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ozod Sharafiddinov. Ijodni anglash baxti. – T.: "Sharq", 2004.
1. Hojiyeva Oydin. Shom shu'lalari. – T.: "Sharq", 2010-yil. 247.
2. I.Erkinov. Milliy o'zlik va til. – T.: "Sharq", 2009-yil. 113.

Tahlil



Farhod NIZOMOV,

Navoiy davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi

"IKKI ESHIK ORASI" ROMANINI QIYOSIY ASPEKTD A O'RGANISH

O'zbek adabiyotshunosligida badiiy asarni qiyosiy aspektda o'rganish, bir asarni ikkinchi bir asarga solishtirish, adabiy hodisalarning umumiy va xos tomonlarini aniqlash ancha rivojlangan usul hisoblanadi. Adabiyotshunoslikda qiyosiy metod deb atalgan tahlil orqali bir qancha ilmiy tadqiqotlar ishlari ham qilindi. Milliy adabiyot nazariyasi yangicha konseptlarga ega bo'ldi.

Bu borada qiyosiy metodning o'rni alohida. Ayni shu metodga tayanilgan holda bir qancha durдона tadqiqotlar yaratildi. "Qiyosiy metod badiiy asarni boshqa asar(lar) bilan qiyosan tahlil qilishni ko'zda tutadi. Konkret asarni o'tmishda yoki u bilan bir paytda, boshqa milliy adabiyotda yoki o'zi mansub adabiyotda yaratilgan asarga qiyoslab tadqiq etish mumkin. Qiyoslash obyekti tadqiqot maqsadidan kelib chiqqan

holda belgilanadi". Mazkur metod o'zbek va jahon adabiyotshunosligida keng qo'llangan.

Mazkur maqolada O'zbekiston xalq yozuvchisi O'tkir Hoshimov va belarus xalq yozuvchisi, Xalqaro Nobel mukofoti sovrindori Svetlana Aleksiyeovich ijodini o'zaro qiyoslaymiz. O'zbek adibining "Ikki eshik orasi" va belarus adibasining "Urushning ayoldan yiroq qiyofasi" asarlaridagi obrazlar, turli voqealar, qahramonlar xatti-harakati, turli davrda yaratilgan ikki asarning umumiy va xususiy jihatlariga ahamiyat qaratamiz. O'zbek romani 1986-yilda yoziladi. Belarus yozuvchisining asari uzoq vaqt 1978 – 2004-yillar davomida yaratilgan. Har ikki asarda asosiy voqealar urush haqida, urushning insoniyat boshiga yetkazgan kulfatlari haqida hikoya qiladi. Ikki betakror asar ham urush tugagach oradan 30-40 yil o'tib yaratilgan.

Svetlana Aleksiyeovichning ushbu asari mahoratli tarjimon Feruza Musayeva tomonidan o'zbek tiliga o'girilgan. Kitob annotatsiyasida asar "hujjatli-ocherk janrida yozilgan" deya izoh berilgan. Ovropa adibasining asari dunyo bo'yicha eng ko'p sotiladigan – bestseller asarlar sirasiga kiradi. U haqida ko'p iliq gaplar aytilgan.

Maqolada ikki buyuk ijodkorkorning "Ikki eshik orasi" va "Urushning ayoldan yiroq qiyofasi" asarlari xususiyatlarini uch guruhga ajratgan holda o'rgatishni lozim topdik:

1. Ikki asardagi o'zaro o'xshash va farqli voqealar.
2. Asarlarda aks etgan o'zaro o'xshash obrazlar tipologiyasi.
3. Mualliflarning badiiy asar yaratishdagi o'ziga xos poetik uslubi.

1. Ikki asardagi o'zaro o'xshash va farqli voqealar. Ushbu asarlarni mutolaa qilar ekansiz, bir-biriga o'xshash voqealarni juda ko'p uchratasiz. Maqola hajmidan kelib chiqib, ulardan bir nechta misol keltiriladi. "Ikki eshik orasi" romanida urush boshlangani haqida xabar tarqaladi. Asar qahramoni Husan duma va uning ayoli Qora amma o'zlarining qora kunlariga asrab qo'ygan barcha narsasini topshirib yuboradi. "... cholim ikki qop bug'doy, bir qop jo'xori, bir qop turshak, yong'oq aralash quruq mevani eshak aravaga ortib idoraga obchiqib berdi. Urush bo'layotgan joylarda sovuq erta tusharkan, shekilli, bisotimizdagi hamma issiq kiyimlarni topshirdik. Kimsanimning etigi, telpagi, cholimning ohorli paxtalik choponi – hammasi..." – deya iqrar bo'ladi Qora amma.

Xorij asarining ham bir necha o'rnida shunga o'xshash voqealar sodir bo'ladi. Zayom (zaxira puli) yig'ish uchun kelgan chopar qishloqning chekkasida yashaydigan bir beva ayolning uyiga keladi. Ayol ko'rimsiz bir uyda yashaydi. Uch bolasi bor. Barchasi otasiz kat-ta bo'lmoqda. Ota urushda halok bo'lgan. Bolalar och. Yeyishli aytarli yeguligi yo'q. "Ayol ularga havonchada qandaydir o't-cho'plarni tuyib berayotgandi. U mendan so'radi:

Zayomga yozishga keldingmi?

Men: ha, deb javob berdim.

U esa: - pulim yo'q, ammo bitta tovug'im bor. Kecha qo'shnim tovug'imni so'rayotgandi, so'ray-chi, agar olsa, sotib pulini senga beraman, - dedi". Ayol, haqiqatdan ham, bu ishni amalga oshiradi.

O'Hoshimovning romanida urush davridagi ochlik muammosi ham aniq dalillar bilan ochib berilgan. Asar boshlarida Robiya va uning oilasi ochlikdan qiynalishadi. Qorin nonga to'yimagani uchun o'qishga ham quvvati yetmagan qiz: "– Non...- deyman, yalinib. – Dadajon, non! Onam yotgan joyida ingraydi. Qiynamang bachamni. Payti kelib o'qib olar. – Shu gap-ni aytgancha ham charchab qoladi. Entikib-entikib nafas oladi. – Men-ku qiltamoqman. Aqalli, Robiyajonga bir burda non topib bering... Dadam noilojlikdan battar tajanglashib hovonchada talqon tuyadi. Bir qoshig'ini onamga, bir qoshig'ini menga tutadi. Onamdan talqon o'tmaydi. Ko'zi bilan menga imo qiladi" ("Ikki eshik orasi", 44-bet).

S. Aleksiyeovichning asarida Nastiya ismli ayol qishlog'iga o't qo'yilishi sabab, bolalarini olib o'rmonga qochadi. Bir qiz va to'rt o'g'il. Uyidan hech qanday yegulik olishga ulgurmagan ayolning bolalari kechqurun "...non, non" deya yig'lashadi. Bechora ayol nima qilishni bilmay qoladi. Yolg'iz qizi Yuliya eng nimjoni edi. Ayol bolalarini jim qilish uchun suvga cho'ktirmoqchi bo'ladi. Shunda Yuliya: "Oyijon, meni cho'ktirmang. Boshqa so'ramiyan... Boshqa non so'rab yig'lamiyman. Yig'lamiyman...", - deydi. Ammo ertasiga qiz bolalari orasida yo'q edi. Ayol qishlog'iga qaytsa, kuli ko'kka sovrilgan kultepallarni ko'radi. "Bir-ikki kundan so'ng Nastiya xola o'z bog'idagi olma daraxtiga o'zini osib qo'ydi. Oyoqlari yerga tegib turardi. Bolalari atrofi-da turib, non so'rashardi..." ("Urushning ayoldan yiroq qiyofasi", 31-32-betlar).

Har ikki asarda ham onalar vafot etadi. Biri kasallikdan tuzalmasdan, boshqasi esa noilojlikdan o'z joniga qasd qiladi. O'zbek ayoli o'zi yemay burda nonini jigarbandiga ulashsa, boshqa millat ayoli esa chorasizlikdan o'z qizining umriga zomin bo'ladi.

Umar zakunchi g'allani toza yig'ishtirib olish uchun "o'zi yaratgan yangi usul – "sherikchilik"ka xiyonat qilishi Olimjon yerdan bitta-bittalab terib olgan yarim qop hajmdagi bug'doy boshog'i teng yarmi bolaga, yarmi kolxozga qolishi kerak. Ammo Umar zakunchi bolani xo'rlaydi. Terilgan hosildan avval ikki, keyin yana bir hovuch qo'shib insof qilgan bo'ladi. Ammo kuni bo'yi shunga kuch sarflagan "ikki bukilib qop ko'tarib borayotganda ham yerdan ko'z uzmadi. Yo'lida yarim-ta boshog' ko'rinsa, erinmay to'xtaydi. Qopi xalaqit berayotgani uchun yerga qo'yadi-da, boshog' uvog'ini ildam yulqib oladi, qopiga tashlaydi. Yuzidan ter oqib kelayotganiga parvo qilmaydigan" (357-bet.) Olimjonga bu chinakam adolatsizlik edi. Bu unda nafrat uyg'otadi. U: "– Berasiz, ha berasiz! – dedi rangi o'chib. – yarmini

berasiz! O'ziz aytgansiz!”, deydi. Bundan jahli chiqqan zakunchi bolaning qopiga chang solib, uni pichoq bilan to'g'ri kelgan joyidan yirta boshlaydi. Qo'lida bir tutam qop parchasi qolgan “Olimjon cho'kkalab o'tirgancha bir zum Zakunchiga hayratlanib qarab qoldi. O'sha zahoti alam bilan chinqirdi. – Qopimni nima qilding?! – dedi yerga mushtlab. – nima qilding?! Dadamga nima deyman? Nima qilding?!”, deb baqiradi. (“Ikki eshik orasi”, 359-bet.) Ushbu alamli nidoda bolaning mardligi, o'z haq-huquqini talab qila olishi, otasiga bo'lgan mehr, oilasi uchun jon kuydurishini ko'rish mumkin. Olimjonning Bir parcha qop parchasini ushlab, nuqul takrorlagan gap: - Qopimni nima qilding?! O'zi bitta ediku... deyishi, qopni changallab yig'lashi, shu matoning qanchalik oila uchun, uning hayoti uchun muhimligini bildiradi. Demak, urush davrida odamlar bittagina qop tayyorlashga qiynalishgan. Uydagi narsalarni qadrlab ishlatishgan ekan-da.

G'arb adabiyoti namunasida esa O'n yoshli qizlarning erta-yu kech dalada bug'doy o'rishi, onalariga qo'shilib kunlik normani ikki hissa qilib bajarishlari, hech qanday oylik to'lanmas, faqat ish kuniga belgi qo'yilishi, xalq butun yoz tinimsiz ter to'kib mehnat qilishi, kuzda esa bir qop ham bug'doy ololmasligi, ovqat sifatida faqat kartoshkadan foydalanilishi haqidagi voqealarda fikr yuritayotgan mavzuga ishora qiladi.

Badiiy adabiyotni ko'rkam qilib turadigan mavzu-

lardan biri – muhabbat mav-zusidir. “Ikki eshik orasi” romanida ham ayol va erkak sevgisi nihoyatda go'zal musiqalarda kuylangan. *Kimsan va Robiya, Shokir va Fotima, Shomurod va Ra'no, Muzaffar va Munavvar* kabi yoshlarning buloq suvi yanglig' toza tuyg'ulari juda tabiiy aks etgan. Rost gaplar va rost tuyg'ular ifoda etilgan.

“Urushning ayoldan yiroq qiyofasi”da urush qatnashchisi bo'lgan ayollarning bir nechtasi aynan muhabbat sabab, erkakning ayolga bo'lgan mehr-mubbati sabab omon qolganliklarini maroq bilan hikoya qiladi. Janggohdagi ishq munosabatlari tinch maydondagiga qaraganda anchayin murakkab kechadi. Asar qahramonlaridan biri Vera Vladimirovnaning iqrori shunday: “Urushda sevgi taqiqlangandi, rahbariyat bilib qolsa, odatda, sevishganlaridan birini boshqa chastga o'tkazishardi, ochiqchasiga bir-biridan ayirishardi. Biz sevgimizni begona ko'zdan asrardik. Bolalarcha qasamlarimizni buzdik...Biz sevdik... Agarda urushda sevib qolmaganimda, tirik qolmas edim deb o'ylayman. Sevgi qutqarardi. U meni ham qutqardi”. (“Urushning ayoldan yiroq qiyofasi”, 283-284-betlar.)

2. Asarlarda aks etgan o'zaro o'xshash obrazlar tipologiyasi. Tahlil etilayotgan ushbu ikki asarda qismlari, tortgan azoblari, amalga oshirgan jasoratlari, Vatan va el-yurt oldida amalga oshirgan ishlari jihatidan quyidagi obrazlar o'zaro o'xshashlik kasb etadi.

Buni “Kesishuv” texnologiyasi orqali ko'rib o'tamiz.

“Ikki eshik orasi” romani

Robiya obrazi – avval otasini yo'qotib qo'yadi. Otasining kelishini intiq bo'lib kutadi. Keyin esa sevgan insoni Kimsan Husanovni kutadi. Uni intiq kutadi, ancha vaqt xat kelmaydi. Bedarak yo'qoldi deganda ham sabr bilan kutadi. Asardagi **Qora amma** ham o'g'lini intia kutadi

Kimsan – oilaning yolg'iz o'g'li, urushga o'z ixtiyori bilan ketgan. Oilasiga maktub yozib turadi. Orada bedarak ketadi. Umar zakunchi tomonidan “sotqin”, “Vatan xoini” deb nohaq ayblanadi. Asar yakunida qahramon bo'ladi. Haykal ochiladi.

“Urushning ayoldan yiroq qiyofasi” asari

Vira Metrafonova – asarda jangda qatnashadi. Avval eri bilan bir joyda xizmat qiladi. so'ng ajralishadi. Jangdan qaytgan ayol erini toqat bilan urushdan kelishini kutadi. Ancha vaqt umr yo'ldoshidan maktub kelmaydi. sabr qiladi.

Lyubov Zaxarovaning eri – urushda ko'p qahramonliklar ko'rsatadi. Nemis harbiylariga qarshi mardonovor urushadi. Asir tushadi, fashistlar qo'lida qattiq azoblanadi. Qo'shinda yo'qolib qolganligi uchun dushman tomonga o'tdi. “Sotildi” degan ayblovlar qo'yiladi. Urushdan davtzech oqlanadi.

Fotima – Orif oqsoqolning kelini Shokir ismli yigitning rafiqasi, eri urushga ketganda ikki farzandi bilan qoladi. Butun umr erini kutib yashaydi. Oqsoqolga chin dildan xizmat qiladi. O'g'liga sunnat to'yi

Mariya Fyodorovna – urushga eri ketganda uch farzandi bilan qoladi. Ular yosh edi. Ulg'aytirguncha tortmagan azoblari qolmaydi. Eri urushdan qaytmaydi. Ammo bolalarini voyaga yetkazadi. Omonlik kunlar nasib etadi.

Ochilboy – Komil tabibning o'g'li, ko'zlari yaxshi ko'rmaydi, oqsoqlanib yuradi. Urush boshlangach urushga boradi. Artilleriyachi bo'lib qatnashadi. Oliy Bosh Qo'mondon tomonidan Jangovar Qizil Bayroq ordeni bilan mukofotlanadi.

Nadejda Anisimova – urushga borganda 19 yoshda bo'ladi. Ikkala o'pkasidan o'q yeydi. O'q umurtqa suyagidan o'tib, oyoqlari shol bo'lib qoladi. Ammo o'lmaydi. Yana yashaydi. Ko'rsatgan mardligi “jasorati uchun” ordeni bilan taqdirlanadi.

Ushbu qatorni yana “Ikki eshik orasi”dagi *Bashorat*, *Zuhra*, *Lazakat*, *Rashid abzi*, *Dyadya Vasya* obrazlarini “Urushning ayoldan yiroq qiyofasi” asaridagi *Fekla Fyodorovna*, *Valentina Pavlova*, *Yadviga Mixailovna*, *Zinaida Vasilejevna* kabi obrazlarga nisbatan ham qo'llash mumkin.

3. Mualliflarning badiiy asar yaratishdagi o'ziga xos poetik uslubi. Adabiyotshunoslik tarixida badiiy uslub masalasi alohida tatbiq etilgan. Uslubning badiiy adabiyotga oid jihatlariga e'tibor qaratilgan. Badiiy uslubning muhim nazariy asoslarini “umulashtiruvchi mujassam tarzda ifodalovchi uchta eng muhim element bor: 1. Barcha adabiy oqim va yo'nalishlarni, barcha tur va janrlarni qamrab oluvchi muallif shaxsiyati; 2. Muallif dunyoqarashining mahsuli bo'lgan yaxlit badiiy asar; 3. Badiiy so'zning asosi bo'lgan uslub” kabilardir. Shularni inobatga olib O'tkir Hoshimov va Svetlana Alekseyevich asarlarida quyidagicha usubiy o'ziga xosliklarni, ya'ni o'xshash va farqli jihatlarini aniqladik: 1. Har ikki yozuvchi qalamiga olgan obrazlari vositasida oddiy odamlarning mardligi, matonati, vatanfarvarligi va sabr-bardoshligi, o'zligi kabi jihatlarini ochib beradi. 2. Asar voqealarining bayon qilinishi voqeaviy hikoya shaklida – asarda qatnashgan qahramonlar tomonidan bayon qilinadi. 3. Ikkala asarda tasvirlangan hayot manzaralari, odamlararo munosabatlar, ularning monolog, dialoglari, shuningdek, yozuvchining o'ziga xos badiiy uslubi qorishgan holda bayon etiladi. 4. Asarlarda aks etgan voqealar, turli o'xshatishlar tabiiy

hamda samimiyligi, o'ta ta'sirchanligi bilan o'quvchini o'ziga jalb etadi. 5. “Ikki eshik orasi” romani jami yetti qism, qirq yetti bobdan iborat. Bu romanning o'ziga xos kompozitsion qurilishi ifodalaydi. 6. “Urushning ayoldan yiroq qiyofasi”da esa boblarga ajratilmagan, badiiy sarlavha qo'yilgan 26 qismdan iborat, asarda 120 ga yaqin urush qatnashchisining qismati yorqin bo'yoqlarda o'z badiiy ifodasini topgan. 7. O'zbek romanida voqea hodisalar bayonida qatnashgan to'qqizta obraz tomonidan hikoya qilish orqali adib bir-biriga mahorat bilan bog'laydi. 8. Xorij romanida esa asosiy voqealar yozuvchi suhbatda bo'lgan 120 ga yaqin personaj (shartli ravishta atadik) tomonidan bayon qilinadi. Muallif ularning suhbatlari qanday bo'lsa, shunday keltiradi. 9. Har ikkala romanda ham asarda ayol-lar obrazi ham zo'r mahorat bilan tasvirlangan. 10. Ayollarga xos aksariyat jihatlar ham o'xshash: mehribon, sodda, irodali, jafokash, Vatan manfaati uchun jon fido qila oladigan, mehnatsevar, qat'iyatli fazilatlariga egadir. 11. Asarlarning adabiy turi bir xil: epik turda yozilgan, janrlari bir-biridan farq qiladi. biri roman, yana biri – hujjatli-ocherklar to'plamidan iborat. 12. Ushbu ikki asarda ham insonlarning murakkab taqdiri, urushning dahshatli kunlari, inson qismati maromiga yetkazib badiiy jihatdan mukammal tasvirlangan.

Ushbu xususiyatlarni **Konseptual jadval** asosida ham tizimli o'rganish mumkin. Buning uchun quyidagi amallar ketma-ket bajariladi:

Konseptual Jadval - O'rganilayotgan hodisa, tushuncha, fikrlarni ikki va undan ortiq jihatlarini bo'yicha taqqoslashni ta'minlaydi. Tizimli fikrlash, ma'lumotlarni tizimlashtiradi, ko'nikmalarni rivojlantiradi

Konseptual jadvalni tuzish qoidasi bilan tanishadilar.

Taqqoslanadiganlarni aniqlaydilar, olib boriladigan taqqoslanishlar bo'yicha, xususiyatlarni alohida ajratadilar

Alohida yoki kichik guruhlarda konseptual jadvalni to'ldiradilar.

- Uzunlik bo'yicha taqqoslanadigan (fikir, nazariyalar) joylashtiriladi;
- Yotig'i bo'yicha taqqoslanish bo'yicha olib boriladigan turli tavsiflar.

O'tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi" va Svetlana Alekseyevichning "Urushning ayoldan yiroq qiyofasi" asarlarini konseptual jadval asosida tahlil qilish

Qiyoslanuvchi jihatlar	O'. Hoshimovning "Ikki eshik orasi" romani	S.Alekseyevichning "Urushning ayoldan yiroq qiyofasi" asari
Asarda yuzaga chiqqan g'oyalar bo'yicha tahlil	Oddiy odamlarning mardligi, matonati, vatanparvarligi va sabr-bar-doshligi, o'zligi, hayot sinovlarida kurashchanlik	Oddiy odamlarning mardligi, matonati, vatanparvarligi va sabr-bar-doshligi, o'zligi, hayot sinovlarida kurashchanlik
Asar voqealarining bayon etilish uslubi bo'yicha tahlil	Voqeaviy hikoya shaklida – asarda qatnashgan qahramonlar tomonidan bayon qilinadi. Yozuv-chining bayon uslubi kam aks etgan.	Voqeaviy hikoya shaklida – asarda qatnashgan qahramonlar tomonidan bayon qilinadi. Yozuvchining bayon uslubi kam aks etgan.
Asarlarning kitobxonni o'ziga jalb etgan qirralari bo'yicha tahlil	Asarlarda aks etgan voqealar, turli o'xshatishlar tabiiy hamda samimiyligi, o'ta ta'sirchanligi bilan o'quvchini o'ziga jalb etadi.	Asarlarda aks etgan voqealar, turli o'xshatishlar tabiiy hamda samimiyligi, o'ta ta'sirchanligi bilan o'quvchini o'ziga jalb etadi.
Asarlarning kompozitsion tuzulishi bo'yicha tahlil	"Ikki eshik orasi" romani jami yetti qism, qirq yetti bobdan iborat. Bu romanning o'ziga xos kompozitsion qurilishi ifodalaydi. Hikoyalar ichida hajman 10-15 betlik hikoyalar ham bor.	Boblarga ajratilmagan, badiiy sarlavha qo'yilgan 26 qismdan iborat. Qismlar hajmi kichik, o'rta shaklda, eng katta hikoya 4-5 betdan iborat.
Asarda qatnashgan obraz (personaj)lar bo'yicha tahlil	Romanda asosiy hikoyachi personaj 9 ta, asarda jami 100 ga yaqin turli kishilar obrazi uchraydi.	Asarda 120 ga yaqin urush qatnashchisining qismati yorqin bo'yoqlarda o'z badiiy ifodasini topgan.
Asarda aks etgan ayollar obrazi bo'yicha tahlil	Asarda ayollar obrazi zo'r mahorat bilan tasvirlangan. Bu romanda ayollar front ortida sadoqat bilan mehnat qiladi.	Ayollar obrazi zo'r mahorat bilan tasvirlangan. Bu asarda ayollar front ichkarisida, janggohlarda jang qiladi. Asir tushadi. Qurbon bo'ladi, ko'pchiligi urush qahramoniga aylanadi.
Asarning adabiy turi bo'yicha tahlil	Katta hajmli epik asar	Katta va kichik hajmli epik asar
Asarning janri bo'yicha tahlil	Roman shaklida yozilgan	Hujjatli-ocherk, asosan pub-litsistik badialardan iborat.

Asarda tasvirlangan murakkab jarayonlar	Insonlarning murakkab taqdiri, urushning dahshatli kunlari, inson qismati, urush tugasa ham u yetkazgan jarohatlarning tugamasligi maromiga yetkazib tasvirlangan.	Insonlarning murakkab taqdiri, urushning dahshatli kunlari, inson qismati, urush tugasa ham u yetkazgan jarohatlarning tugamasligi, ayollarning front ichkarisidagi azoblari, asirlarning qirib tashlanishi kabi voqealar maromiga yetkazib tasvirlangan.
Asardan chiqadigan xulosalar bo'yicha tahlil	Mavjud voqealar, ulardan chiqariladigan xulosalar, tirik tuyg'ularning bayon etilganligi, urush va tinchlik mavzusi borligi jihatidan yuksak tarbiyaviy ahamiyatga ega	Mavjud voqealar, ulardan chiqariladigan xulosalar, tirik tuyg'ularning bayon etilganligi, urush va tinchlik mavzusi borligi jihatidan yuksak tarbiyaviy ahamiyatga ega

Demak, bimalol aytish joizki, ta'lim jarayonida O'tkir Hoshimov va Svetlana Aleksiyeovich ijodini qiyoslab o'rgatish ma'naviyati butun, hayot mashaqqatlarida irodali, har xil vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qila oladigan,

yaxshi va yomonning farqiga boradigan inson tarbiyasida muhim vosita vazifasini bajara oladi. Eng muhimi yosh avlod yurt, millat uchun foydali ish qilish lozimligini anglab yetadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Aleksiyeovich S. Urushning ayoldan yiroq qiyofasi. Matn: Tarjimon Musayeva F. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2018. 384 bet.
2. Hoshimov O'. Ikki eshik orasi. Toshkent: "O'qituvchi" NMIU, 2018. 428 bet.
3. Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. Oliy o'quv yurti talabalari uchun darslik. – T.: "Akademnashr", 2018. 466-bet.
4. Xoldorov D. Badiiy uslubning nazariy asoslari. O'zbek tili va adabiyoti jurnali. 2020. 4-son, 69-bet.

Feruza KARIMOVA,

*O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti ilmiy xodimi,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

PSIXOLINGVISTIK TADQIQOTLAR IZIDAN

Turk dunyosining eng qadimgi yozma yodgorliklarida inson nutqi va uning ruhiyati o'rtasidagi chambarchas bog'liqliklar turli ramzlar va ishoralar orqali berilgan. Ular misolida "Devonu lug'otit turk"dagi qo'shiq va matnlarni yoki "O'rxun-Enasoy" bitiklarida keltirilgan jangnoma qo'shiqlardagi olqish va alqovlar, shuningdek, marsiyalar ruhining o'ziyoq fikrimizni dalillay oladi.

Tilshunoslikdagi psixologik kurtaklar ildizi ancha uzoqlarga borib taqaladi. Nemis olimi V.Gumboldning "xalq ruhi" va "lisoniy dunyoqarash" haqidagi olamshumul konsepsiyasi va V.Vundning "xalq psixologiyasi" haqidagi nazariyasi, amerikalik lingvist L.Blumfeldning "stimul-reaksiya" haqidagi bixoveristik qarashlari, ukrain tilshunosi A.Potebniyaning til va tafakkur haqidagi psixologik falsafasi tilni tadqiq etishda inson ruhi va xalq ruhini e'tirof etgan holda masalaga yondashilganligi bilan dunyo tilshunosligida katta iz qoldirgan nazariyalardan hisoblanadi.

O'zbek tilshunosligida esa mazkur sohaga endi dashtabki qadamlar qo'yilmoqda. Bugungacha til va ruhiyat mushtarakligiga o'z asarlarida e'tibor qaratgan olim-

lar sirasiga N.Mahmudov, A.Nurmonov, M.Hakimov, D.Xudayberganova va D.Lutfullaeva nomlarini keltirish o'rinli bo'lardi.¹

So'nggi yillarda olimlar e'tiborini tortgan muloqot va uning ishtirokchilari nutqi tuzilishiga oid tadqiqotlarda pragmatik psixologik qarashlar bilan birga psixologik yondashuvlar ham bo'y ko'rsatmoqda. Albatta, ular zamirida tildagi hodisalarni mukammal tadqiq etish ehtiyoji tura-di. Masalaning ana shu tomoniga e'tibor qaratish ham dolzarb, ham qiziqarli hisoblanadi. Xususan, bolalar nutqi tadqiqi bilan shug'ullangan olim M.Qurbonava tadqiqotlarida bu masalaga ham to'xtalib o'tilgan.²

Kattalar muloqotining psixolingvistik tomonlarini tadqiq etish ham galdagi tadqiq etilishi kerak bo'lgan masalalardan biri sanaladi.

Inson ruhiyatining u qo'llayotgan nutqda aks etishi va u tuzgan grammatik shakllarning (jumlaning) qay tarzda qurilishiga inson jismi va ruhiyatida ro'y berayotgan o'zgarishlar dahl eta olishi inson fenomenini va uni qurshab turgan muhit haqidagi tasavvurni hosil qilishda muhim bosqich bo'lib xizmat qiladi. Mazkur holatni tad-

qiq etishga turtki bo'lgan asos **antropotsentrik nazariyadir**.

Albatta, tildagi har qanday semantik va pragmatik tadqiqotlar zamirida ham psixolingvistik yondashuvlarning u yoki bu darajadagi izlarini sezish mumkin. Bu haqda pragmatik olim M.Hakimov o'zining ushbu soha haqidagi dastlabki maqolalarida ham aytib o'tgan.³ Kishilarning qayg'uli va baxtli onlaridagi yuz ifodalari va ular qo'llagan iboralardagi ovoz tonining g'amgin yoki shodon jarangining o'ziyoq, fikrimizni isbotlay oladi. Ya'ni ruhiyat va uning nutqdagi ifodasi va u orqali so'zlovchining olamiga kirib borish va uni tahlil etish istagi har qanday tadqiqotchini befarq qoldirmaydi, deb o'ylaymiz.

Bolalar nutqidagi buzilish holatlarini asosini ular kechirgan yoki kechirayotgan kasalliklar bilan bog'liqligi bugun barchamizga ayon haqiqat sanaladi. Kattalar o'z nutqlarida haqiqiy holatlarini qay darajada yashirishga urinmasin, yolg'on informatsiya berayotgan aql va uni qabul qilolmayotgan ruh o'rtasida kelishmovchiliklar tug'ilishi va bu uning yuz va tana holatlarida aks etishi ham ayni haqiqatdir.⁴

Insonlar muloqotini tahlil etishda, avvalo, uning yashash tarzi, oilaviy va ish sharoiti va unda kechadigan axloqiy va ma'naviy qonun-qoidalarini bilish birinchi bosqich sanalsa, uning hamsuhbat do'stlari va maslakdoshlari kimlar ekanligiga e'tibor qaratish ham talab etiladi. Chunki yaqin va har kuni ko'rib, gaplashib turadigan insonlarning axloqiy qarashlariga ko'nikish yoki ularga, beixtiyor tarzda, taqlidan so'zlar qo'llash holatlarini yoshlar nutqida ko'plab kuzatish mumkin.

Voyaga etgan va katta insonlar tuzayotgan jumlar uslubi va xususiyatini (maqol yo matal qo'shish, piching yo kesatiq, hazil yoki o'z ustidan engil hangoma qilish, tanqid yo maqtash yoki maqtanish, tez yoki sekin (qiyinalib) jumla tuzish, gapga chechanlik yoki duduqlanish, suhbatda o'zini yo'qotib qo'yish yoki vaziyatdan chiqib keta olish) kabilar ularning nutqiy ko'nikmalari sanalib, kishilar ularni oila yoki ish jarayonida ko'proq o'zlashtirgan bo'ladilar. Nasliy qobiliyatlarning kechishidan ko'ra ijtimoiy muhit ta'sirining kuchi ancha salmoqli ekanligi ham hech kimga sir emas. Bu haqda o'zbek psixologiyasining darg'alaridan biri professor E.G'oziev shunday fikrlarni keltirgandi: *"Insonning shaxsiy xislatlarini rivojlantiruvchi, ularni takomillashtiruvchi va barqarorlashtiruvchi asosiy shakl – uning jamiyatdagi hayot yo'li, muayyan iz qoldirishi va ijtimoiy tarjimai holi hisoblanadi"*.⁵

Darhaqiqat, jamiyatdagi hayot yo'li birinchi navbatda u egallagan kasb va soha misolida ko'proq ko'zga tashlanadi. Masalan, o'qituvchilar o'z kasbidan ko'nikma holiga kelgan dars o'tish jarayonidan kelib chiqib, uzoq va ko'p so'zlashni odat qilsa, yurist va huquqshunoslar

har bir so'zning sohada qanday katta yuk tashishini e'tiborga olgan holda, kam so'zlab, xushyorlikka intiladilar. Bunga o'xshash misollarni boshqa kasb va soha egalarida ko'plab keltirish mumkin. Aytmoqchimizki, o'ttirilgan nutqiy tajribalar, nutqiy operatsiyalar kishilarning o'zlari mansub bo'lgan soha va muhit ta'sirining bir in'ikosi hamdir.

Bunga misol qilib "Muvozanat" romanidagi Muhammadjon aka obrazini keltirish mumkin:

"Nihoyat, gangur-gungir bo'lib o'tirgan davrani baland ovoz bilan Muhammadjon aka o'ziga jalb qildi.

– Endi sizlarga bir ko'nglimni to'kib solsam, azizlarim.

– Muhammadjon aka gapga juda chechan, notiq odam edi. Uzoq yillar davomidagi o'qituvchilik, rahbarlik lavozimlari qonida ota-buvisidan o'tgan biyronligi bor bu odamning haqiqatan ham bulbuligo'yo qilib yuborgandi. Binobarin, qaerda bo'lmasin, Muhammadjon aka so'zga og'iz ochdimi, qolganlar mum tishlagandek jim bo'lishardi, butun vujudlari quloqqa aylanib tinglashardi". ("Muvozanat", U.Hamdani. 16-bet).

Tilshunoslik va uning boshqa sohalar bilan hamkorligini hisobga olgan holda tadqiqotlar yaratishini qo'llab-quvvatlagan tilshunos olim A.Nurmonov I.Yo'ldoshev bilan birgalikda nashr ettirgan "Tilshunoslik va tabiiy fanlar" nomli kitobida tilshunoslikka yondosh sohalar sifatida psixologiya va sotsiologiya fanlarini o'rnini alohida ta'kidlagandi.⁶

Muloqotning sotsial tomoniga e'tibor qaratgan olimlardan biri S.Mo'minovning "O'zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari" nomli doktorlik ishi o'zbek muloqot egalarining milliy-madaniy o'ziga xosliklarini keng planda yoritib bergan tadqiqotlardan sanaladi.⁷ Muallif ishida o'zbekona muloqot sirlari va uning yaratilish bosqichlari ijtimoiy planda chuqur tahlil etilgan. Muallifning "ruhiy kesim" haqidagi o'ziga xos qarashlari o'zbekona kamtarlik va kamsuqimlik, andisha va mulohazakorlik tushunchalari bilan uyg'unlashgan holda qalamga olingan.⁸

So'nggi yillarda mazkur masalaga e'tibor qaratayotgan yosh tadqiqodchilardan biri F.Karimovadir. Uning "O'zbek tilidagi dialogik nutqning lingvopragmatik xususiyatlari" nomli ishida ham dialogdagi muloqot ishtirokchilarining ruhiy holatlariga oid fikr-mulohazalar bayon etilgan.⁹ Muallif ishida ruhiy holatning inson ma'naviy ehtiyojlari bilan bog'liq tomonlari tahlil etilgan. Shuningdek, samarali muloqot jarayonidagi hissiy tomonning roli verbal tomonga qaraganda ko'proq yuk tashishi badiiy asarlar misolida tadqiq etilgan. Ishda "stimul-reaksiya", "ehtiyotlar piramidasi", "konstruktiv va desktruktiv nizo turlari" kabi tushuncha va iboralardan maqsadli foydalanilgan.

1. Mahmudov N. Til. – Toshkent: Yozuvchi, 1998. – 40 b; Nurmonov A. Tanlangan asarlar. 3 jildlik. III jild. – Toshkent: Akademnashr, 2012. –164-169 betlar; Nurmonov A., M.Hakimov. Lingvistik pragmatikaning nazariy shakllanishi // O'zbek tili

- va adabiyoti. – Toshkent, 2001. – №4. – B. 54; Hakimov Muhammad, Qurbonova Sayyora. Psixolingvistik bilimlarning nazariy asoslari // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2015. – №2. – B. 34-40; Xudayberganova D. O'zbek tilidagi badiiy matnlarning antropotsentrik talqini: Filol. fan. d-ri ... diss. – Toshkent, 2015. – 244 b; Lutfullaeva D. Assotsiativ tilshunoslik nazariyasi. – Toshkent: Meriyus, 2017. – 140 b.
2. Qurbonova M. O'zbek bolalari nutqining pragmatik xususiyatlari. – Toshkent, 2018. – 160 b.
3. Hakimov Muhammad, Qurbonova Sayyora (2015), Psixolingvistik bilimlarning nazariy asoslari // O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 2015. – №2. – B. 34-40.
4. Mustafoev F. Suhbatdoshni sirli boshqarish (Suhbatning psixofiziologik aspektlari). – Farg'ona: Farg'ona, 2005. – B. 25.
5. G'oziev E. Psixologiya metodologiyasi. – Toshkent: Noshir, 2013. – B. 99.
6. Nurmonov, A., Yo'ldoshev B. Tilshunoslik va tabiiy fanlar. – Toshkent: Sharq, 2001. – B. 63.
7. Mo'minov S.M. O'zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari: Filol. fan. d-ri. ... diss. – Toshkent, 2000. – 235 b. .
8. Mo'minov S.M. Ko'rsatilgan dissertatsiya. – B. 206.
9. Karimova F. O'zbek tilidagi dialogik nutqning lingvopragmatik xususiyatlari. Filol. fanlari bo'yicha falsafa d-ri(PhD) ... diss. – Toshkent, 2021. – 135 b.

Shaxnoza AZIMJONOVA,

*Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika
instituti tayanch doktoranti*

IJODKOR PORTRETINI TARIXIY JARAYON ZAMIRIDA O'RGANISH MAHORATI

(Akademik Naim Karimov tajribasi asosida)

XX asr o'zbek adabiyoti davri tarixiy jarayonning suronli yillarini qamrab olib, ijodkorlar iste'dodlarini rivojlanishida "oltin pillapoya" vazifasini o'tadi. Bu davr adabiyotida ozarbayjonlik yuksak insoniy fazilatlar hamda adabiy tafakkur egasi Maqsud Shayxzodaning alohida o'rni bor.

Maqsud Shayxzoda 1928-yil fevral oyida surgun muddatini o'tash uchun o'zbeklar diyoriga qadam qo'yadi. Shu kundan boshlab to umrining so'ngi kuniga qadar o'zbek she'riyati, adabiyotshunoslik ilmi taraqqiyoti, tarjimashunoslik sohasida qator asarlar, ilmiy tadqiqotlar hamda tarjima asarlar yaratib, o'zbek adabiyotining oltin fondini boyitishga o'zining ulkan hissasini qo'shdi. Adibning tahlil va zavqli hayoti, ijodidagi rang-baranglik, uning adabiy-estetik qarashlari, shoirona qalbini tahlil qilish so'ngi yillarda ko'plab tadqiqotlarga mavzu bo'ldi. Shu yo'nalishda doktorlik dissertatsiyalarining dunyo yuzini ko'rishida Maqsud Shayxzodaning sermazzun ijod mundariyasi adabiy manba vazifasini o'tadi.

"Shayx aka"ning XX asr o'zbek adabiyotidagi adabiy portretini to'laqonli aks ettirishda akademik Naim Karimovning "Maqsud Shayxzoda" nomli ma'rifiy-biografik romani adabiyotshunoslik ilmidagi ijodkor haqidagi tadqiqotlar orasida o'zining uslub va janr jihatidan novatarlik xususiyatlari bilan ajralib turuvchi adabiy asardir. Romanda N.Karimov Maqsud Shayxzodaning ijtimoiy-siyosiy jarayonlar qurboniga aylanish sabablarini quyidagicha izohlaydi: "GPU xodimlarining aniqlashlaricha, Maqsud Shayxzoda 1927-

yili Bokuga borib, u yerdan Istanbulda nashr etilgan "Yeni Kavkaz" jurnalini olib kelgan. U Ozarbayjonning mustamlakaga aylanib, Dog'istonning esa ruslashib borayotganidan tashvishlanayotganini yashirmagan. Va nima uchundir Bo'ynoqdagi harbiy qismning son-sanog'i, ahvoli va milliy tarkibi bilan qiziqqan. Shuningdek, garnizondagi Qozon tatarlari bilan yaqinlashishga harakat qilgan. Garchand u o'zining siyosiy qarashlarini ochiq-oydin bayon etmagan bo'lsa-da, u bilan birga Darbanddan Bo'ynoqqa kelgan va bilim yurtida o'qituvchilik qilayotgan Tavfiq Jalol Dog'istonga mahalliy aholining ruslashib ketishiga yo'l qo'ymaslik uchun kelganlarini aytgan. Xullas, 1927- yilning aprel oyida Qrimdagi "Milliy firqa" partiyasining Veli Ibraimov boshchiligidagi bir guruh a'zolari qo'lga olingach, navbat ularning Bo'ynoq shahridagi izdoshlariga keladi. O'sha yilning iyun-iyul oylarida Edhem Fayziy va Mamed Fayziy bilan birga Shayxzoda ham aksilinqilobiy targ'ibot olib borishda ayblanib, qamoqqa olinadi" [1;35]. "Olim adabiyotshunos sifatida tarix, adabiyot, ilm o'rtasidagi tizginni tuta olgan ijodkorlardan biri. Shu bois ilmiy merosida tarixiy jarayon va adabiy hayotning yorqin manzarasini ipga terilgan marjon singari tartiblangan. Adabiyotshunoslikdagi tarixiy jarayon va uning adabiy hayotga ta'siri adabiy hodisalarni ijtimoiy hayot zahirida tekshirishni o'rgatadi" [2;94].

Shu zaylda siyosiy hujumlar va hayotidagi jarayon asosida shoirning ishi qayta ko'rib taxlam-taxlam aybnoma yozildi. "15 sahifadan iborat shu aybnomaga ko'ra, Shayxzoda va uning do'stlari "ijtimoiy xavfli un-

surlar” deb topildi va ularni OGPU Doimiy vakolatxona-si ixtiyoridagi “siyosiy qurilish”ga yuborish haqida hukm chiqarildi” [1;36].

Shu taxlitda Shayx akaning hayot yo'li Toshkent bilan bog'landi. Akademik Naim Karimov ijodkorning Ozarbayjondagi hamda Toshkentdagi hayot yo'lini yoritishda va uning tarjimai holiga aniqliklar kiritishda bolalikdagi ozarbayjonlik do'sti Idris Aliyev, taniqli teatr arbobi Nazira Aliyeva, hayotining ko'p yillari Toshkentda o'tgan ozarbayjonlik Posha G'aniyev, adabiyotshunos olim Vohid Zohidov, Orif Ayubov (*mashhur jurnalist A'zam Ayubov Cho'lpon qatori ilg'or kishilar bilan bir kunda qatl qilingan ziyoli*)ning ukasi, yozuvchi Mirzakolon Ismoilov, adabiyotshunos Yo'ldosh Solijonov kabi qator ziyolilarining xotira yodnomalari hamda yozishmalaridan unumli foydalangan holda Maqsud Shayxzodaning ikki yurtdagi hayotini badiiy lavhalarda dalillaydi. Akademik ma'rifiy romanda ijodkorning adabiy portretini yaratish barobarida tarixiy jarayonni ijodkorning adabiy-estetik qarashlariga ta'sirini ham alohida o'rganadi. Mazkur holat Shayxzodaning Dog'iston bilan bog'liq yillarini yoritishda yaqqol namoyon bo'ladi. "1920-yil martida qizil armiyaning jangovar harakati bilan Dog'iston uzil-kesil bolsheviklar qo'lga o'tdi. 1921-yil 20-yanvarda esa Butunrossiya Markaziy Ijroiya Komitetining qarori bilan Dog'iston Rossiya federasiyasi tarkibidagi avtonom respublika, deb e'lon qilindi. Dorilmualliminni a'lo baholar bilan tugatgan Shayxzodaning ana shu avtonom respublikaga ishga yuborilishi tasodifiy emas. O'tgan asrning 20-yillarida Rossiya federasiyasi tarkibida yasha-

yotgan Dog‘istonning sovetlashib borish xavfi mahalliy aholida Ozarbayjonga yaqinlashish xohishini uyg‘otdi” [1:22-23].

Bu kabi tarixiy jarayonning zamirida ko'plab muammolar ham yuzaga kelgani tabiiy. *"O'sha paytda Dog'istonda, - deb yozadi Shayxzoda, - til muammo si chirsillab turardi. Dog'iston Respublikasining ko'p til (36 til)liligi piravardida tilsizlikka, ya'ni yagona yoki keng tarqalgan, Dog'iston uchun umumiy bo'lgan tilning bo'lmasligiga olib kelishi mumkin edi. Shu masalada ehtirosli va kuchli bahs-tortishuvlar bo'lib o'tardi. Biz jurnal maqolalari va xususiy bahs-munozaralarda Dog'iston uchun turk tilining maqsadga muvofiqqligini isbotlar edik"* [1;24]. Demak, Maqsud Shayxzoda tanqidiy qarashlarining paydo bo'lishida, ijodining yangi boshqichga ko'tarilishida, ijodkorning badiiy olami kengayishida Dog'istondagi tarixiy jarayonning ma'lum darajada ta'siri mavjud.

Akademik Naim Karimov ma'rifiy romanlarida ijodkorlarning murakkab va biz uchun zavqli hayotidan hikoya qilargan ekan, har bir vaziyatni badiiy talqin qilishga urinadi. Tarixiy jarayonni yorqin akslantirishda ijodkor bilan bog'liq tarixiy davrni o'z tili bilan so'zlatadi. Bu o'rinda adabiyotshunoslik hamda tarixiy haqiqat bahsga kirishadi. Olim ma'rifiy roman orqali "Shayx aka" xususidagi ilmiy ma'lumotlarga, daliliy materiallarga badiiylik berish, obraz yaratish borasida haqqoniylikka asoslanishi orqali ijodkorning XX asr o'zbek adabiyotidagi adabiy portretini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov N. Maqsud Shayxzoda. Ma'rifiy-biografik roman. // Toshkent. Sharq. B.336.
2. Azimjonova Sh. Tarixiy jarayonning adabiy hayotga ta'siri munaqqid nigohida. Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi. //Xiva. 2022. 4/5-son. 94-b.
3. Karimov N. Shayxzoda va jahon adabiyoti. //Jahon adabiyoti. 2008. 11-son. 126-130-b.
4. Karimov N. Shayxzoda nega gamalgan? (intervyu) // Darakchi. 2008-vil. 17-aprel.

Sitora SUXANBERDIYEVA.

Toshkent davlat pedagogika universitetitalabasi

ALLOMALAR ILMIY-MA'NAVIY MEROSINING IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLAR RIVOJIDAGI O'RNI

Buyuk mutafakkirlarimizning ilmiy, ma'naviy-ma'rifiy merosi tarix zarvaraqlarida muhrlab qo'yilgan. Ularni idrok etish uchun tarixni o'qib, adabiyot bilan hamnafas yashamoq kerak. "Adabiyot – atomdan kuchli", - deydi Abdulla Qahhor. Adabiyot insonning qalbini po'rta-na kabi junbushga keltiruvchi kuchdir. U inson qalbidagi umid qulini undiruvchi go'zallikdan bir mujdadir.

Adjodlar merosini anglashda adabiyotning ahamiyati begiyos. Xalqimizning necha ming yillik anʼanalari

aynan adabiyot orqali bizga qadar yetib kelgan. Bobolarimizdan qolgan qimmatli asarlar, boy ilmiy merosi, umuman, madaniyatning umumlashmasi ham adabiyotda o'z aksini topgan. Milliy merosimizga bo'lgan e'tiborni adabiy asarlar, qadimiy yozishmalar va tarixiy qo'lyozmalar orqali anglashimiz mumkin. Atoqli o'zbek shoiri Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon "Adabiyot yashasa, millat yashar!" degan otashin da'vat bilan maydonga chiqqan edi. Hayot va tarix sinovlaridan

o'tgan teran ma'noli bu so'zlar bugun ham o'z ahamiyati va qimmatini yo'qotgan emas.

Darhaqiqat, adabiyot, san'at va madaniyat yashasa, millat va xalq, butun insoniyat bezavol yashaydi. Madaniyat barhayot yashashi uchun gumanitar fanlarga bo'lgan e'tiborni yanada oshirish, ularni o'rganishga qaratilgan chora-tadbirlarni yanada mukammallashtirish talab etiladi. Mazkur fanlarni o'qish jarayonida tariximiz va adabiyotimizga bo'lgan mehrni yoshlar qalbida ham uyg'otmoq kerak. Tarixini har nafasda his qilib yashaydigan har qanday farzand kelajakka chin ma'nodagi inson nazari bilan boqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. https://t.me/turkiston_kutubxonasi
2. <https://yuz.uz/news/noyob-ilmiiy-manaviy-meros--doimiy-harakatdagi-hayotiy-dastur>

Hamid YODGOROV,
GulDU dotsenti

SHE'RIY MATNDA DISFEMIZMLARNING O'RNI

Disfemik birliklar muayyan millatning yashash tarzi, etnik taraqqiyoti, tarixiy davri bilan bog'liq ravishda til va nutqda shakllangan birliklar hisoblanadi. Disfemizmlarning evfemizm bilan o'xshash tomoni shundaki, denotatga ma'lum konnotativ mazmun yuklaydi, til sathida sinonimik qatorni tashkil etadi, evfemizm bilan birdek qadimiy jarayon hamda nutqiy hodisa sifatida qaraladi.

Evfemizmning aksi hisoblangan disfemizm hodisasi ham qadimdan mavjud bo'lgan bo'lsa-da, evfemizmdan farqli o'laroq, kam o'rganilgan. Buning sababini esa, madaniy muloqot me'yorlaridan izlash muhim. Chunki ular badiiy adabiyotda, madaniy muloqot muhitida odob nuqtai nazaridan berilishi mumkin bo'lmagan birlik sifatida qaralgan.

Odatda tilshunoslikka oid lug'atlarda disfemizm xususida alohida to'xtalinmay, unga evfemizm bo'limida yo'l-yo'lakay izoh berilib ketiladi. Bunga misol sifatida V.N.Yartseva tahriri ostida chop etilgan "Lingvisticheskiy entsiklopedicheskiy slovar" "Лингвистический энциклопедический словарь"ni olish mumkin. Unda evfemizm xususida so'z ketganda yo'l-yo'lakay "uslubiy va emotsional betaraf so'zni nisbatan qo'pol, noqulay so'z bilan almashtirish" deya ta'riflanadi [1].

Disfema – denotatga sub'ektiv munosabatning manfiy tomonga ketishi bilan bog'liq pragmatik hodisa. Bu, albatta, unga adabiy tilda o'rin yo'q deyishga asos bo'la olmaydi. Disfemik ma'noli birliklardan tinglovchida voqelik yoki shaxs haqida kuchaytirilgan salbiy taassurot qoldirish uchun foydalaniladi, biroq bu holat uni shu

Bugungi kunning intellektual salohiyatga ega ilg'or yoshlari ilmiy merosimizni yanada chuqurroq o'rganish va ularni o'rinli ravishda targ'ib qilish borasida talaygina ishlarni amalga oshirishmoqda. Turli sammitlar, uchrashuvlar va adabiy kechalar soha uchun yangi eshiklarni ochib bermoqda. Turli internet tarmoqlari va ulardagi saytlarda ham kuzatish mumkinki, ma'naviy merosimizning jahon tamaddunidagi o'zni yildan yilga oshib bermoqda. Bu o'rinda esa soha vakillarining tinimsiz urinishlari tahsinga sazovor, desak mubolag'a bo'lmaydi.

jihatdan o'rganishga, tahlil va talqin etishga, qolaversa, tasnif etishga asos yo'qligini, maqsad noma'lum ekanligini, ehtiyoj sezilmasligini ko'rsatmaydi. Muammo shundaki, haqiqatan ham, disfemizm mutlaq alohida birliklar tizimi emas, bunday birliklarning disfemik qiymati nutqiy, u evfemizm bilan bir sistemada, shu bilan birga, unga qarama-qarshi – zid vosita sifatida qaraladi [2].

Ma'lumki, bugungi o'zbek adabiy tili qat'iy me'yor-ga solinib, qulay ko'rinishga keltirilgan mezonlar asosida ish ko'radi. Gap badiiy asar tili haqida borganda bu mezonlarni chetlab o'tish hollari ko'zga tashlanadi. Ijodkor kechinmalarining asl holda moddiylashtirilishi shuni taqozo etadi. Bu haqda Ozod Sharafiddinovning "Olamning qalbi" nomli kitobida shunday deyiladi: "Bunday she'riyat hamisha shoironing noyob tiliga bog'liq. Bu til nafaqat shoironing ona tilidir, balki shoironing shaxsiy tili hamdir" [3].

Halima Xudoyberdiyeva ijodini kuzatar ekanmiz, disfemik birliklardan ham badiiy matnni shakllantirishda unumli foydalanganligini ko'ramiz[4]. "Neniki ko'rdim kecha..." she'riga e'tiborni qaratamiz:

Ojiz, go'lliging ko'rdim,
Bir-birin **g'ajib**, egan
Nojins **qulliging** ko'rdim,
Negayam ko'rdim, nega?!

Odatda **g'ajimoq** leksemasi ko'pincha mushuk, it va, umuman, hayvonlarga nisbatan ishlatiladi. Mazkur leksemadan boshqa ijodkorlar ham stilistik figura sifatida foydalanganligini quyidagi misollar tasdiqlaydi:

Ko'chada yotgan suyakni qaysi it g'ajimaydi! (A.Qahhor. Og'riq tishlar). Agar mazkur termin odamga nisbatan ishlatilsa, asosan salbiy ma'no tashishga xizmat qiladi: Qo'yib bersa, hozir ular bir-birini g'ajib tashlashga tayyor edilar, ammo cho'tir kishining amirona vazmin ovozi ularni bosib qo'ydi (H.Tursunqulov. Hayotim qissasi).

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati” (M.,1981) da “g‘ajimoq” fe‘liga shunday izoh berilgan: Suyak, qattiq non va shu kabilarni kemirib yemoq, mujimoq (ko‘pincha it, mushuk, yirtqich hayvonlar haqida). Shoir a xalqimizning kecha-gi (yaqin o‘tmishdagi) ayanchli kunini obrazli tasvirlar ekan, uning o‘z haq-huquqi masalasida ojiz ekanligini, o‘z taqdirini o‘zi belgilashda tarqoq ekanligini, shu bilan birga, go‘lligini, soddaligini ayanch bilan tasvirlaydi. Shunday paytda bir millat bo‘la turib, bir-birini sotgan, bir-biriga xiyonat qilgan kimsalardan, birining go‘sh-ti-ni ikkinchisi g‘ajigan odamlardan nafratlanadi. Shoir a bunday ko‘rinishni qullik bilan tenglaydi, bunday man-zarani ko‘rganligidan, guvohi bo‘lganligidan, **“neniki kecha ko‘rganligidan”** afsuslanadi.

Ma'lumki, **“g‘ajimoq”** fe’li sememasida **“yemoq”** semasi mavjud. Shunday bo’lsa-da, shoira ikki leksemani yonma-yon qo’llaydi. **“Yemoq”**qa nisbatan **“g‘ajimoq”**da ma’no kuchli ifodalanadi. Shoira “g‘ajimoq”ni qo’llash bilan o‘z poetik niyatiga erishgan, chunki g‘ajish odamivlikka xos xislat emas.

Ijodkor misralarda **“ko‘rmoq”** fe‘lini takror-takror qo‘llash bilan bunday ayanchli manzarani ko‘rish qanchalar azob ekanligini kitobxon ruhiyatiga singdirishga harakat qilmoqda. Toki bunday illatlar odamiylikka yot ekanligini ular bilishsin.

Mazkur she'ning keyingi bir parchasi shunday boshlanadi:

Go‘rimda ham kuyar oy

Sovurilib votarman.

Ko'rganlarim unutmay

Qovurilib votarman.

Mana mana individuallik, mana mahorat, mana o'ziga xos yondashuv. Halima Xudoyberdiyeva asarlarini ko'zdan kechirar ekanmiz, ijodkorning novatorligiga guvoh bo'lamiz. Har qanday yoqimli narsa, yoqimli so'z odamga yoqadi, kayfiyat bag'ishlaydi. Lekin aksi bo'lsa-chi? Odatda har qanday odamga *qabriston*, *mazoriston*, *go'riston* degan so'zlar xush kelavermaydi. Bu joyni evfemik ifodalash ana shunday **sovuq** tushunchani anchayin yumshatadi. Lekin ijodkor bu safar unday qilmaydi, narsani o'z oti bilan aytib, **go'r** so'zini ochiq qo'llaydi. Bu bilan lirik qahramonning o'sha paytdagi ruhiy holatini, ichki kechinmasini bor bo'yi bilan ko'rsatishga intiladi. Voqelikni silliq, yumshoq ko'rsatish ijodkorning ruhiy holatini to'liq ifodalay olmasligini his qiladi.

Garchi **sovurilmoq, qovurilmoq** leksemalari ko'chma ma'noda ishlatilgan bo'lsa-da, u shaxsning kechinmalari bilan boq'liq. Har ikki leksema ko'chma ma'noda

salbiy ma'no tashishga xizmat qiladi. Har qanday be-hudaga sarflangan vaqt, pul, ishga nisbatan *sovurmoq* leksemasi ishlatiladi. Xalqimizda “o‘z yog‘iga o‘zi qovurilmoq” degan ibora bor. Inson uchun qovurilish – og‘ir, azob. Ichki kechinmalarni bundan ortiq ifodalashning imkoni yo‘q. Shunday ekan, shoira mazkur so‘zlarni badiiy matnga mahorat bilan olib kirgan va poetik individualligini namoyish qilgan.

Halima Xudoyberdiyeva she'rlarining poetik tilini o'rganar ekanmiz, adabiyotshunos D.Quronovning "Adabiyotshunoslikka kirish" kitobidagi quyidagi jum-lalar diqqatimizni tortadi: "Yozuvchi umumxalq tilidan foydalanar ekan, umumodatlangan normadan og'adi (ya'ni til unsurlarini odatdagidan o'zga shakl, ma'no, tartib, munosabat va shu kabilarda qo'llaydi) va shu "og'ish"dan ma'lum badiiy-estetik maqsadni ko'zda tutadi. Bu xil og'ishlar tilning turli sathlarida – fonetik, leksik, morfologik, semantik, sintaktik sathlarda kuzatili-shi mumkin" [5]. Shoir she'rlarida ham yuqorida sanab o'tilgan og'ishlar natijasida tilning poetikligiga erishiladi. 1990-yilda yozilgan **"Biz o'tarmiz. Eslar ul, qiz"** she'ri-dan parcha keltiramiz:

O, ona Sharq, ona Sharq-sen,

Bugun **fitna**, **qonga** g'arqsen.

Merosxo'rlarim manqurt deb,

Moziydaqi bilim yig'lar

Shoira mazkur she'rida vulgarizmlardan, dialektizmlardan, arxaik grammatik vositalardan unumli foydalanadi. Ma'lumki, **fitna, qon to'kish, manqurt** kabi birliklar sovuq tushunchalarni tashiydi. 1990-yillardagi ayrim Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi o'zaro qon to'kishlar, janjalli voqealar ijodkorga tinchlik bermaydi. Fitna bor joyda qon to'kiladi, fitna bor joyda yovuzlik hukmron bo'ladi, fitna bor joyda og'a inisiga g'anim bo'ladi. Shoira bundan tashvish tortadi, so'ngsiz savollariga javob izlaydi. Dunyoning dunyo bo'lishiga ulkan hissalarini qo'shgan moziydagi turkiy allomalar "mer-osxo'rlarim manqurt" deb yig'layotganlarini katta afsus bilan yozadi. Vaholanki, **"manqurt"** termini o'zligini bilmaydigan, o'tmishi yo'q, itoatkor kishiga nisbatan ishlatiladi. Faqat o'zligini bilmaydigan qavmlargina bir-biriga tosh otishi mumkinligini badiiy mahorat bilan matnga olib kiradi.

Ma'lumki, evfemizmnning bosh unsuri – xushmuomalalik. **“O’lim”** singari shunday xunuk, yoqimsiz bir tushunchani shoira shaklan boshqa, mazmunan bir bo’lgan evfemik vositalarni qo’llab, har bir she’rida takrordan qochib, turlicha ifodalaganligini ko’ramiz. Quyidagi parchada ham **o’lmoq** tushunchasini **“biz o’tarmiz”** shaklida evfemik qo’llab, poetik to’kislikni ta’minlagan. Vazn talabiga ko’ra, **o’g’il** so’zini sheva imkoniyatlaridan foydalangan holda **ul** tarzida matnga olib kirgan, **bul** va **shul** olmoshlarini arxaik qo’llab, go’zal bir she’riy imoratni yarata olgan.

Shoira uchinchi va to'rtinchi misralarda turkiy qavmlar o'rtasidagi nizolardan jabr tortgan o'zbek va

qirg'izlarning ahvolini tasvirlashda disfemik birliklardan ham foydalanadi. Bunday fojiali, achinarli holatni o'z oti bilan aytishni ma'qul topadi va badiiy matnga **sho'rlik o'zbek, sho'rlik qirg'iz, o'lim yig'lar** kabi disfemizmlarni olib kiradi:

Biz o'tarmiz. Eslar ul, qiz,
Bul asrdan qolgay shul iz.
Sho'rlik o'zbek. Sho'rlik qirg'iz.
Qoq o'rtada o'lim yig'lar.

Mustaqillik bergan ne'matlar cheksiz. Ularni sanab adog'iga yetish qiyin. Lekin o'tgan feodal jamiyatida, sobiq Sho'rolar davrida har bir ijodkor o'zidan nimalar o'tganini o'zi yaxshi biladi. Halima Xudoyberdiyeva 1991-il aprel oyida Abdulla Oripovga bag'ishlab, **"Shoir nomi"** nomli she'rini yozadi. Mazkur she'rdan parcha keltiramiz:

Qodiriyning qonlarini obdon ichib to'ydilar,
Hanuz bilmam men Usmonni otdilarmi, so'ydilar,
Nasimiyning terisini shilib, ko'zin o'ydilar,
Endi bildim, nechun sening ko'zing kulmas, og'ajon,
Ko'zlaringda "xalqim" degan sezim kulmas, og'ajon.

O'tmishda xalqimizning yetuk farzandlari, olimu fuzalolari qanday yashaganliklari, qanday ijod qilganliklari, erk deganning quli bo'lganliklarini ochiq namoyon qilish uchun, kitobxonga bor bo'yi bilan ko'rsatish uchun, tarixni to'g'ri yoritish uchun shoir matnga **qoni-ni ichmoq, otmoq, so'ymoq, terisini shilmoq, ko'zi-ni o'ymoq** kabi yoqimsiz birliklarni olib kiradi. Bunday birliklar o'rnida silliq, yumshoq, muloyim eshitiladigan birliklarni qo'llash mumkin edi, biroq bunday yondashuv

tarixiy haqiqatni bu darajada yoritmagan bo'lardi. Kitobxon she'rni o'qir ekan, o'tmishning jirkanch sahifalari uning ko'z o'ngida namoyon bo'ladi, xalqimizning ayanchli tarixini chuqur anglab yetadi, adolat va haqiqat yo'lida adashmaydi.

Shu o'rinda polyak yozuvchisi Yan Parandovskiyning quyidagi gaplarini eslashni ma'qul topamiz: "Darhaqiqat, yozuvchining yozuvchiligi u tanlaydigan badiiy vositalarda namoyon bo'ladi – bu vositalar yozuvchi ko'rsatmoqchi bo'lgan taassurotlarni imkon qadar keng va teran qo'zg'atmog'i yoxud chiqarmog'i mumkin bo'lsin"[6].

Xalq tili misoli bir buloq ekanligi ma'lum. Lekin bu buloqdan hamma ijodkor ham birdek suv icha olmaydi. Shoirada so'z tanlash iqtidori shunchalar kuchliki, bu so'zlardan da'vat, chaqiruv, undash hidlari ufurib turadi. She'riy matndagi har bir so'z odamning ruhiyatiga ta'sir qiladi, nimagadir undaydi, o'ylantiradi, ogohlikka, insofga, birdamlikka chorlaydi. Qo'llanayotgan har bir so'z odamga mas'uliyat yuklaydi, go'yo sening harakatingga, faoliyatingga, o'tmishingga baho berayotganday jaranglaydi. Uning she'rlarida vatanparvarlik, xalqparvarlik, millatparvarlik, odamiylik, ezgulik, sadoqat ulug'lanadi.

Xulosa qilib aytganda, shoir Halima Xudoyberdiyeva o'z ijodida disfemik birliklardan badiiy vosita sifatida umumli foydalangan. Bunday birliklar voqelik, shaxs yoki narsa haqida yorqin tasavvur uyg'otish, shuningdek, o'quvchida kuchli taassurot qoldirish hamda o'zining munosabatini ochiq namoyon qilish maqsadining amalga oshishiga imkon yaratgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ярцева В.Н. Лингвистический энциклопедический словарь. – М., 1990. – С.26.
2. Рахимова Д. Поэтик тилда муаллиф "мен"ининг акс этиши. ЎТА, 2016. 4-сон. 97-101-бетлар.
3. Шарафиддинов О. Оламнинг қалби. –Тошкент: Маънавият, 2014. 220-б.
4. Худойбердиева Ҳ. Танланган асарлар. – Тошкент: Шарқ, 2020.
5. Куронов Д. Адабиётшуносликка кириш. – Тошкент: Фан, 2007. 122-б.
6. Парандовский Я. Алхимия слова. – Варшава, 1951. – С.13.

Darmon O'rayeva

*Buxoro davlat universiteti O'zbek tili va adabiyoti
kafedrası professori, filologiya fanlari doktori*

O'ZBEK FOLKLORI VA ADABIYOTIDA MEHMON VA MEHMONDO'ST-LIKNING BADIY TALQINI

O'zbek – mehmondo'st xalq. Xalqimizda mehmonga nisbatan "atoyi Xudo" iborasi ishlatiladi. Shu tufayli o'zbek xalqi kelgan mehmonni juda katta e'tibor, hurmat-izzat bilan kutib oladi. Topganini mehmondan ayaamaydi. Mehmon va mehmondo'stlikning yozilmagan qonun-qoidalari bor. Ulardan ayrimlari xalq maqollarida aks ettirilgan. "Mehmon kelsa eshikdan, rizqi kelar teshikdan", "Mehmon joyi ko'z ustida", "Mehmon kelgan

uyning chirog'i ravshan", "Mehmon kelgan uy – barakali, "Mehmon – uyning ziynati" va hokazo kabilar shular jumlasidandir. Hatto Mahmud Koshg'ariyning "Devoni lug'otit turk" kitobida "Uma kelsa, qut bo'lar" degan qadimiy maqol ham uchraydi. Unda "uma" so'zi mehmon tushunchasini ifodalab kelgan bo'lib, "Mehmon kelsa, qut bo'lar" degan ma'noni bildiradi. Bundan xalqimizning

azaldan mehmonnavozlik odobiga katta e'tibor bergani anglashiladi.

Demak, o'zbek xalq maqollarida mehmon va mezbondobi, mehmondo'stlikning quyidagi qoidalari yoritilgan:

a) mehmonning uzoq vaqt qolib ketmasligi: "Birinci kun mehmon – oltin mehmon, Ikkinchi kun – kumush, Uchinchi kun – mis, To'rtinchi kun – pes", "Mehmon kelsa uchtakina, uchib ketsa qushdakkina"; "Mehmon nosi uch kundan keyin sasir", "Mehmon oz o'tirar, ko'p ko'rar", "Qo'noq bir kun qo'nsa – qut, Ikki kun qo'nsa – yut";

b) mehmonning mehmondorchilik jarayonida va mezbondoldida o'zini tutishi: "Betamiz mehmon mezbongi qistar", "Chaqirilmagan qo'noq – yo'nalmagan tayoq";

d) mehmonni shirin so'z, xushmuomalalik bilan kutish lozimligi: "Mehmonning itini tur dema", "Mehmonga shirin so'z ber", "Mehmonning ketishini so'rama, Kelishini so'ra", "Suhbat sevmagan tegirmon qurdirar, Mehmon sevmagan bolasini urar", "Mehmonning o'zi ham mehmon, So'zi ham mehmon";

e) mehmonni saxiylik bilan kutish orqali shodlantirish, xijolat qilmaslik: "Yo'qcha guruch osh bo'lar, Mehmon ko'ngli shod bo'lar", "Mehmon kelsa, pastga tush, Palov bermoq ahdga tush", "Kelguncha mehmon uyalar, Kelgandan so'ng mezbond uyalar", "Mehmon ko'rki – dasturxon", "Qo'noqqa osh ber, otiga – yem", "Mehmon so'rab yemas", "Mezbond borini qo'ysa, mehmon ozga sanamas", "Mehmon kelsa, et pishar, et pishmasa, bet pishar", "Mehmon – uy egasining buzog'i", "Mehmonga osh qo'y, Ikki qo'lini bo'sh qo'y";

f) mehmon oldida mezbondning burchdorligi va mas'uliyati: "Kelish mehmondan, ketish mezbondan", "Mehmon – aziz, mezbond – laziz", "Mehmon izzatda, mezbond xizmatda", "Mehmon kelsa choptirar, Boryo'g'ingni toptirar", "Mehmonxonang tor bo'lsa ham, Mehri diling keng bo'lsin".

O'zbek xalqining mehmondo'stligi "Alpomish" dostonida ham o'z aksini topgan. Unda bu tuyg'u qahramonlik, mardlik, do'stlik tuyg'ulari bilan o'zaro bog'likda ochib berilgan.

Dostonda Alpomishning Qorajon tomonidan mehmon qilinishi tasvirlangan. Bunda Qorajon – mezbond, Alpomish esa mehmon rolida ko'rinadi. Qorajon Alpomish uchun ziyofat tashkil qilib, uning oldida yelib-yugirib xizmat qiladi. Qorajonning onasi o'g'lining bunday xatti-harakidan, tabiiyki, g'ashi keladi. Buni sezgan Qorajon onasiga shunday izoh beradi:

Xudoni o'rtaga solib do'st bo'ldim,

Kelgan mehmon sening o'g'ling bo'ladi,

Dostonda yana Barchinning Alpomishga yuborgan choparlarini Boybo'ring mehmon qilishi tasviri ham mavjud. Boybo'ri o'n mahramiga buyurib, choparlarini bitta-bitta otdan ko'tarib tushirtiradi. Ularga xizmat ko'rsatishni buyuradi. Choparlar yigirma kun yotib,

xo'p izzat-ikrom ko'rishadi. Ularni rosa ziyofat qiladilar. Choparlar jo'naymizga tushib qolishganda, Boybo'ri ularga zar-zebar in'om berib, "xush kelibsan" qilib, yo'lga solib yuboradi. Bundan xalqimizda mehmon to o'zi ketishni xohlamagunicha, u ketkazib yuborilmasligi anglatilmoqda.

Ikkinchidan, kelgan mehmon sarxil taomlar bilan quyuq ziyofat qilinadi. Uchinchidan, doimo mehmon xizmatiga shay turiladi. To'rtinchidan, mehmon ketar chog'ida unga turli sovg'alar, in'om-ehsonlar beriladi. Dostonda bu an'anaviy o'ziga xos urf-odatimiz Boybo'ri huzuriga tashrif buyurgan choparlar obrazi misolida talqin etilgan.

Alpomish tilidan aytilgan quyidagi jumlar ham bevosita mehmondorchilik odobiga daxldorligi bilan e'tiborni tortadi: "Kun bevaqt bo'ldi, bemahal borgan mehmonning izzati, obro'yi bo'lmaydi, bugun men sizlarning qushxonalaringda yotayin, ertan turib ketayin".

Dostonning yana bir o'rnida "Qo'noqqa osh ber, otiga – yem" deganlaridek, Alpomishni cho'ponlar qo'shxonada mehmon qilishar ekan, "Boychiborning jilovidan ushlab, yeznasini mehmon qila boshlab, ostiga shim bilan kebanakni to'shab tashlab, ziyofatga qo'yni so'yishadi. Charchab kelgansizdir, yezna, suyanib o'tiring, deb xurjuni bilan unni olib kelib qo'yishadi. Yeznasini mehmon qilib siylaydi. Boychiborni oq shuvoqqa boylaydi".

O'zbek xalqining "Erkenja" ertagida Nodir bobo qushbonni tanimasa ham, "bir necha kun mehmon bo'ling, keyin ketarsiz" deb, o'n besh kecha-kunduz mehmon qiladi. Keyin yana u bilan kelgan sakkizta mehmonni ham tanimasa-da, oltmish derazali, toza ko'rpachalar, gilamlar solingan mehmonxonasiga olib kirib, izzat bilan mehmon qilgani aytiladi.

"Xotinning yaxshi-yomoni mehmon kelganda bilinar" ertagida bir kuni er ovga ketganida biron eshikni taqillatib, "Hazratqul" deb chaqiribdi. Ammo xotini eshikni ochmay, ichkaridan turib, "uyda yo'qlar" deb javob beribdi va kelgan mehmonning kimligini ham so'ramabdi.

Mehmon eshikning ortida turib-turib qaytib ketibdi. U kelgan kishi erining otasi ekan. Ketmasidan avval u kishi: "Hazratqul kelsa ayting, ostonani boshqa qursin!" deb ketibdi. Shunda eri bo'lgan voqeani tushunib, xotining javobini berib yuboribdi va boshqa ayolga uylanibdi. U ovdaligida yana otasi kelib, eshikni qoqibdi. Xotini chiqib, uni uyga taklif etibdi, mehmon qilibdi. U xursand bo'lib, qaytayotganida: "Eringiz kelsa ayting, ostonani sira o'zgartirmasin", – debdi.

Ko'rinadiki, mehmonni kutib olish uy bekasi bo'lgan xotinlarga ko'p jihatdan bog'liqligi anglatilmoqda.

E'tiborli jihati shundaki, mehmondorchilik, mehmonga munosabat talqini badiiy adabiyotda alohida o'rin tutadi. Buni Abdulhamid Cho'lpon asarlari misolida ham kuzatish mumkin. Bu masala adibning hikoya va romanlarida alohida motiv sifatida yoritilgan. Masalan, adibning "Qurboni jaholat" hikoyasida Eshmurodning

uyiga kutilmaganda Mo'minjon kelib qoladi. Uni Elmurod "Voy, Mo'minjon ekan-ku" deya, hayrat bilan kutib oladi hamda mehmonxonaga olib kiradi. Darhol xizmatchisini chaqirib, choy-non olib kelishga buyuradi. Shundan anglasa bo'ladiki, har bir o'zbek hovlisida, albatta, maxsus "mehmonxona" uy bor. Kelgan mehmonga, albatta, choy-non qo'yiladi.

Cho'lpon asarlarida mehmon, mezbon, mehmonxona, mehmondorchilik, mehmonnavozlik, mehmongarchilik kabi so'zlar ko'p qo'llangan. Bu so'zlar ijodkorning "Kecha va kunduz" romanida ham ko'p uchraydi. Romanda mehmondorchilik mavzusi asar tuguni sifatida tanlangan va voqealar rivojiga omil bo'lib xizmat qilgan. Ma'lumki, unda Zebi (Zebinisa)ni dugonasi Salti (Saltanat) "bahorlashib kelish" uchun Enaxonlarnikiga mehmonga aytib keladi. Shu voqelik sabab Zebining taqdirida juda katta o'zgarishlar ro'y beradi. U mingboshiga turmushga uzatiladi. Aniqrog'i, mehmondorchilikka borib, mingboshioymilar tomonidan mehmonga chorlangan Zebinisoni ko'rgan, uning yoqimli ovozdin mast bo'lgan xotinboz mingboshi qizni to'rtinchi xotinlikka oladi. Shu bilan "baxtli mehmon" baxtsizga aylanadi.

Zebi shahardan Saltinining qishloqdagi dugonasi Enaxonnikiga kelgani uchun "shaharlik mehmon" deya e'zozlanadi. Bu ularni shahardan qishloqqa aravasida olib borgan O'lmas aravakash tomonidan ham ta'kidlanadi: "Shahardan bir arava mehmon olib keldim, ena! Uyingiz kuydi toza! Ikki kunda bor-yo'g'ingizdan ajralib qoqlanasiz endi!" – deydi. [26]. Mehmon kutishning ham o'z odob-qoidasi borligi ma'lum. Shunday odatlardan biri kelgan mehmonni ishga jalb qilinmaydi. Bu odatga asarda Saltinining supurgini olib, Zebiga bir oz supirishib bermog'chi bo'lganida dugonasi "Voy, bu nimasi! Qo'ying, o'zim supuraman!" deyishi orqali ishora qilingan.

O'zbekona mehmondorchilik bilan bog'liq yana bir odat mehmon uchun osh-ovqat tayyorlash jarayoni bilan bog'liq. Odatda, mehmon uchun tansiq taomlar tayyorlanadi. Adib shu motivdan foydalanib, o'z davrida kambag'al va boy xonadonlarning tirikchiligidagi, ro'zg'oridagi farqni tasvirlashni ko'zda tutgani ayonlashadi. Masalan, Zebini mehmonga chaqirgan dugonasi Enaxon kambag'al oiladan bo'lgani uchun yangasi ikkalasi sepidan, buvisi esa o'limligidan haq chiqarib, shundan bozor-o'char qilishadi va dasturxon tuzashadi. Shu o'kinchli holat ifodasi uchun asarda: "Oshqovoq somsa!" "Oshqovoq somsa!" Kambag'allik qursin, ilohim! "Kambag'al – xudoyimning suygan bandasi", deyilar, shumi suygan bandaning holi!" yoki "Varaqi somsalar

qilsak, oq unlardan g'alati mantilar, chuchvaralar qilsak, boylarnikida bo'ladigan dimlama qo'g'urmalar qilsak..." [33]; "Shuncha yerdan bizning so'k oshimizni ichgali kelisharmidi?" [31]; "Boylarnikiga o'xshagan g'alati ziyofat qilib jo'natamiz mehmonlarimizni!" [28] kabi ifodalar keltirilgan.

Mingboshi Akbarali Xolmatning uyiga shahardan bir arava mehmon kelganini eshitib, nopisandlarcha: "U bechora ochidan o'lolmay yuribdi, mehmon chaqirib nima qilar ekan? Bitini berib boqadimi!" – deydi.

Asarda mehmonlariga qo'lidan kelgancha yaxshi dasturxon solib, qo'ni-qo'shni qizlar va kelinchaklarni chaqirtirib, allaqaylardan tori uzilgan dutorlarni topdrib kelgan va ularni xursand qilmoq uchun tirishib-tirmashgan Enaxon o'z ko'nglida yana xijolat tortishdan qutulmaydi. Qadrli mehmonlarini yana allaqanday ziyofatlar, mehmongarchiliklar, takalluflarga ko'mib tashlamoqchi bo'ladi. "O'lganim yaxshi mening! – dedi u. – Ko'ngildagidek bir siylay olmasam mehmonlarimni!" [32].

Enaxon o'z mehmonlarini xursand qilish, izzatiga yetish uchun shunchalik harakat qilgan bo'lsa-da, mingboshioymilar uning dasturxoniga "lab burishadi". Asarda bu shunday tasvirlangan: "Dasturxon ustida duv-duv gaplashib, ayvonni ovozga to'ldirib o'tirgan qiz-juvonlardan hech biri o'ng biqinida yonma-yon o'tirib, zo'rg'a dasturxonga qo'l uzatgan mingboshi oyimlarning "shu ham mehmondorchilikmi?" degan ma'nida bir-biriga qarab lab burishtirganlarini payqamadi". [35].

Mehmondorchilikdan qaytgan mingboshioymilardan Poshshoxon, avvalo, "Ha, dasturxondan keling" deb so'raydi. Uning bu savoliga "Kambag'alning dasturxonini nima bo'lardi? Non, patir, mayiz, o'rikqoqi... savzi qiyom... Oxirida zig'ir yoki palov.... bitta-yarimta go'sht uchrasa bor, bo'lmasa yo'q..." [50] degan javob aytiladi.

Mehmonni chaqirish va yana bundan voz kechish "Xudodan qaytishga teng"dir. Bu gapni mehmonlarga yetkazish yanada og'ir kechadi. Ana shu holat ham "Kecha va kunduz" romanida alohida tasvirlangan: "Faqat ertalabgacha hech narsa demadilar. Ular borgan joylaridan charchab kelishib, o'tirgan o'rinlarida shundoqqina uzanib qolgan edilar" [53].

Xullas, hikoya mazmunidan mehmon xalq orasida nechog'lik e'zozlanishi, silanishi, qadrlanishi anglashiladi.

Umuman aytganda, o'zbek folklori va ayrim o'zbek adiblari asarlarida o'zbekona mehmondorchilikning badiiy tasvirini keltirish orqali ularning milliy ruhini oshirishga, realligini kuchaytirishga, badiiy ta'sirchanligini oshirishga erishilgan.

Adabiyotlar

1. Абдулхамид Чўлпон. Кеча ва кундуз. XX аср ўзбек романи. Биринчи китоб. Кеча. – Тошкент: Шарқ, 2000. – 287 б.
2. Алпомиш. Ўзбек халқ қаҳрамонлик эпоси. – Тошкент: Шарқ, 1998. – 400 б.
3. Шарафиддинов О. Чўлпоннинг ижодий йўли тўғрисида. – Шарқ юлдузи. – 1988. – №2. – Б.62.
4. Ўзбек халқ мақоллари. – Тошкент: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1989. – Б.168-1171.

Nargiza Xusenova
Buxoro viloyati Romitan tumani
3-DMTT psixologi

MAKTABGACHA TA'LIM YOSHIDAGI BOLALARGA BADIY ADABIYOT MASHG'ULOTLARINI INTEGRATIV USULLAR ORQALI TASHKIL ETISH

Soha ilmlarining paydo bo'lishi va rivojlanishi jamiyatning tarixiy rivojlanishi bilan bog'liq. Insoniyat rivojlanishining dastlabki bosqichlarida odamlar tabiat haqida to'liq tasavvurga ega bo'lmaganlar, atrof-muhitda sodir bo'ladigan hodisa, jarayonlarni kuzatuvchilari bo'lishgan, xolos. Vaqt o'tgani sari hodisa, jarayonlarning sodir bo'lishini kuzatibgina qolmay, ma'lumotlar to'plab, tahlil qila boshlaganlar. Hozirgi davrda asosiy bilimlarning ildizlari albatta, maktabgacha ta'lim muassasalarida olib borilayotgan mashg'ulotlarga kelib taqaladi. Shu tufayli integratsiyalab o'qitish ayniqsa, kichik yoshdagi bolalarning ta'lim jarayonida qo'llansa ancha samaradorlidir. Tabiat haqidagi tasavvurlar, olam, insonlar, umuman, bolani o'rab turgan muhit haqidagi tasavvurlar yig'ilib bir butunlik asosida tushuntirilsa, bola ongida bog'lab tushunish takomil topadi. Bola bir ertak o'qib eshittirilganda uning obrazlaridan didaktik o'rnak olish bilan bir qatorda, boshqa sohalari bilan uzviy bog'liqlikda tushunishi, borliqdagi jami yaratilarning bir-birini taqozo qilishini anglashi lozim. Bunda esa albatta, tarbiyalovchi integratsiya metodlari yordam beradi.

Integratsiya - «butun» degan ma'noni bildiradi, demak, bu tafakkur o'sishi jarayonining turli qism va elementlarini bitta butunga birlashtirish bo'lib hisoblanadi. Integratsiya fanlarning mexanik birlashishi emas, bu sintez, yangi narsaning kelib chiqishi, kashfiyotdir. Alohida tizimlarning yaqinlashishi, bog'lanishi va yagona bir yangi narsaning yaratilishidir.

D.Lokkning g'oyalari ta'limning mazmunini aniqlashga qaratilgan bo'lib, unda bir fan ikkinchi fanning elementlari va misollari asosiga boyitilishi nazarda tutiladi. Nemis o'qituvchisi F.Yunge sakkizta tushuncha va empirik umumlashmalar asosida, birinchilardan bo'lib, tabiat fanlarini integratsiyalab o'qitishga tayangan kursni ishlab chiqdi. I.G.Pestalotssi katta didaktik material asosida o'quv fanlarining turli yo'nalishdagi o'zaro bog'liqliklarini yoritib berdi. Bunda u «O'z ongingda barcha o'zaro aloqador predmetlarni bog'liqligini ular jonli tabiatda aynan qanday bog'liq holda bo'lsalar aynan shu holda tasavvur qilgin» deb talab qiladi. U bir fanning ikkinchi fandan ajratib olinishidagi alohida no'rin jihatlarini ham asoslab berdi. Klassik pedagogika namoyandasi Konstantin Dmitriyevich Ushinskiy (1824-1870) fanlararo bog'liqligining psixologik-pedagogik asosini anchayin to'liqroq holda ishlab chiqdi. Uning fikriga ko'ra «Ma'lum qilinayotgan bilim va g'oyalar organik jihatdan fanda qanday bo'lsalar, shunday tarzda o'rganilishi zarur». XX asrning 20-yillarda «Tabiat», «Mehnat» va «Jamiyat» mavzusidagi integrativ kurslar yaratildi.

Boshlang'ich 1-4 sinflar uchun «Atrof olam» va yuqori 5-7 sinflar uchun «Tabiatshunoslik» integrativ kurslari yaratildi. Bu kurslarda tabiat, inson va jamiyat haqidagi o'quv materiallari o'zaro bog'lanishda aks ettirilgan. Ta'lim integratsiyasining bosh maqsadi - shaxsni har tomonlama kamol topishini ta'minlashning muhim prinsipi sifatida maydonga keldi. Integratsiyalashgan ta'lim shaxsni intellektual va madaniy rivojlantirishning bosh omili bo'lib qoldi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda badiiy adabiyot mashg'ulotlarini samarali tashkil etish bola hayoliy dunyosi va tafakkur eshiklarini birdek ochadi. Chunki faqat ertaklardagina barcha boshlang'ich fanlar yig'ilishi mumkin. Masalan, shunday ertaklar borki ularda sinov motivlari ajoyib, topishmoqlar ustiga quriladi, zero bolalar adabiyoti – universal hodisa. Bu topishmoqlarda ham matematika, ham tabiat, ham falsafiy qarashlar aks etishi mumkin, ayni shu jarayonda o'qituvchi integrativ metodlardan foydalanadi. Masalan, ertaklardagi sinov motvida odatda 3 shart qo'yish motivi ustunlik qiladi. Podshoh go'zal qizi uchun sovchilikka kelgan shahzodalarni turli sohalarga oid ma'lum shartlar asosida sinashi bola dunyosining sarhadlarini kengaytiradi yoki shahzoda shatranj, nard o'ynash shartlari ham o'zbek xalq ertaklarida keng tarqalgan motivlardandir. Shuningdek, maishiy va hayvonlar xususidagi ertaklar ham shu yo'sinda tushuntirilsa, olam mo'jizalarini endi anglatayotgan bola dunyosiga yangilik bo'lib kirib boradi. «Qizil qalpoqcha» ertagida nega qizaloq o'rmonda aynan bo'riga duch keldi, chunki bo'ri yirtqich hayvon va u o'rmonda yashaydi. Yirtqich hayvonlar odatda go'sht bilan oziqlanadi. Shuning uchun Qizil qalpoqcha bo'ri ni ko'rib qo'rqib ketti, kabi bir-biriga bog'lab integrative metodlar orqali tushuntirilsa bola ham tabiat, ham adabiyot haqidagi boshlang'ich tasavvurlarga ega bo'ladi.

Tabiat yoki predmet haqidagi eng oddiy bilimlarni hosil qiluvchi bog'liqlikning eng soddasi ma'lum bir joy yoki tushuncha bilan chegaralangan lokal tasavvurdir. Bu bog'liqlik boshqa bilimlardan nisbatan ajralgan, shuning uchun eng oddiy aqliy faoliyatni ta'minlaydi. Bu kichik maktab yoshiga xos. Biror bir tizimga tegishli bo'lgan tasavvurlar eng soddasi tizimli tasavvurlardir. Ular biror bir mavzu, predmet yoki hodisani o'rganish asosida hosil bo'ladi. Biror bir predmetni bilish yangi fakt va tushunchalarning tanlanishi, ularni bir-biri bilan taqqoslanishi asosida amalga oshiriladi. Bunda bilimlarning eng oddiy umumlashtirilishi sodir bo'lib, o'quvchilarning tahlil qilish va umumlashtirish faoliyatlari vujudga keladi. Tizim ichidagi tasavvurlar o'quvchilarning butun

bir fanlar tizimini bilishlarini ta'minlaydi. Tizim ichidagi tasavvurlar, vaqt, muhit, son bog'lanishlarni aks ettiradi. Predmetlararo tasavvurlar aqliy faoliyatning eng yuqori pog'onasi hisoblanadi.

Boshlang'ich maktab va maktabgacha ta'lim muassasasi ta'lim va tarbiyasini integratsiyalash muammosi nazariya uchun ham, amaliyot uchun ham muhim va dolzarbdir. Hozirgi kunda asosini tabiat bilan tanishtirish mashg'uloti bo'yicha bilimlar tashkil etuvchi integratsiyalangan ta'lim yaratish muammosi dolzarb bo'lib turibdi. Bular boshqa turdagi bilimlarni jipslashtiruvchi asosiy vazifani o'z zimmasiga oladi. Olimlar va amaliyotchi-o'qituvchilar bolalarda qanday qilib dunyo to'g'risida yaxlit tushuncha hosil qilish va turli fanlar bo'yicha bilimlarni yaqinlashtirish uchun bir butun dasturni tuzish to'g'risida bosh qotirmoqdalar. Bir-biriga yaqin bo'lgan fanlarni birlashtiruvchi kurslar tashkil etish harakatlari bo'lmoqda: Masalan, matematika va konstruksiyalash, tasviriy san'at va badiiy mehnat.

Kichik maktab yoshidagi yoki maktabgacha ta'lim muassasalaridagi bolalarning qiziqish va qobiliyatlarga moslashish ularning badiiy faolligini rivojlantirishni taqozo qiladi. Bilim olish, badiiy hayotiy masalalarni hal qilishda o'ziga xoslikni, uddaburonlikni, epchillikni rag'batlantirishni nazarda tutadi. Shu munosabat bilan bolalarning she'r va hikoyalar yodlatish, o'qib berish, yangi raqs o'ylab topish, shirin taom pishirish, biror asbob yaratish, o'simliklardan shakllar yaratish kabi ishlar bilan rag'batlantirib borish taqozo etiladi. Emotsional tomonlarni rivojlantirishga katta ahamiyat beriladi. Darslar bolalarda ko'rish va eshitish qobiliyatlarini (materiallar sifatini, materialini ushlab ko'rib ajrata bilish qobiliyati), sezish tuyg'ularini (hid va ta'mni ajrata olish qobiliyatlarini) rivojlantirishga yordam beradi. «Ovchilar», «Hayvonlar», «Izquvarlar» o'yinlarini o'ynash bolalarga faqat umumiy bilimlarga ega bo'lish, masalalarni mantiqan hal eta bilishgina emas, insonga berilgan barcha his-tuyg'ular ham muhim ekanligini ko'rsatib beradi. Ularni rivojlantirish o'ta nozik tuyg'ularning shakllanishiga yo'ldir. Bunga yorqin obrazlarga, san'at asarlariga, tabiat bilan zavqlanishga murojaat qilish orqali erishish mumkin. Bolalarda salbiy, xunuk, yomon narsalarga ham emotsional munosabatini rivojlantirish lozim. Bunga ertaklar o'qish, turli sahna ko'rinishlari qo'yish yordam beradi. Bolaning his-tuyg'ulari uning jismoniy rivojlanishi bilan bog'liq holda bolani faol harakat qilishga, o'z xolatini tana harakatlari, imo-ishoralar, raqs orqali ko'rsatib berishga imkon beruvchi mashqlarni kiritish lozim.

Ta'lim uslublari bolalarning qobiliyatini namoyon etishga, zehni o'tkirlashga, tafakkurini rivojlantirishga xizmat qilmog'i zarur. Shu maqsadda she'riy san'atdan foydalanish, o'rganilyotgan mavzularni sharhlash va izohlash kabilardan foydalanish maqbul yo'l hisoblanadi. Bu uslublarni bolani rag'batlantirish, uning o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirish va qobiliyatini namoyon etishga xizmat qiladi.

Mashg'ulotlarga mavzu va metod tanlashda eng avvalo, tarbiyachi sinfning tayyorgarlik darajasini, bolalarning psixologik xususiyatlarini, qiziqishlarini hisobga olishi lozim. O'quv faoliyatidagi qiyinchiliklarning sabablaridan biri integratsiya metodidan foydalanish ham bo'lishi mumkin. Ta'lim oluvchilarning bir fanni muvaffaqiyatli o'zlashtirishlarining sababi, boshqa bir fandan yaxshi bilimga ega bo'lishlari bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin.

